

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

**Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim kafedrasining
5141500 Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi
bo'yicha
(shifri va ta'lim yo'nalishi nomi)
bakalavr darajasini olish uchun**

Nazarov Jasurbek Sobirovich

**Mavzu: ALISHER NAVOIYINING MA'NAVIY MEROSI VA UNING G'OYAVIY
NEGIZLARI**

Ilmiy rahbar:

Katta o'qituvchi, I. Abdullaeva

Urganch 2015 yil

1-ilova. Bitiruv malakaviy ishining titul varag'i

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

Tarix
(fakultet nomi)

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi
(kafedra nomi)

Mavzu: ALISHER NAVOIYINING MA'NAVIY MEROSI VA UNING G'OYAVIY
NEGIZLARI
(bitiruv malakaviy ish mavzusining nomi)

Bajaruvchi:

Nazarov Jasurbek Sobirovich

Rahbar:

Katta o'qituvchi, I. Abdullaeva

Urganch shahri-2015-yil

M U N D A R I J A

MAVZU: ALISHER NAVOIYINING MA'NAVIY MEROSI VA UNING G'OYAVIY NEGIZLARI.

Kirish

**I-BOB. ALISHER NAVOIY MEROSIDA INSONPARVARLIK
G'OYALARNING AKS ETISHI VA UNING NAZARIY-METADOLOGIK
ASOSLARI.....**

1.1 Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati.....

1.2. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlar...

**1.3. Alisher Navoiyning asarlarida shaxs shakllanishiga oid g'oyalarini aks
etishini.....**

**II. Bob. ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MA'NAVIY-AHLOQIY G'OYALARNI
AKS ETISHI.....**

**2.1. Alisher Navoiyning bag'rikenglik to'g'risidagi
g'oyalari.....**

2.2. Alisher Navoiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari.....

2.3. Alisher Navoiy asarlarida axloqiy g'oyalarni aks etishi.....

Xulosa.....

Foydalanilgan manba va adabiyotlar.....

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: O`rta Osiyo tarixiy voqealarga g`oyat boy o`lka bo`lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma`naviyatning markazlaridan biri bo`lib kelgan. Bu o`lka dunyoga ma`naviyat va ma`rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug` zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma`rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar, uning taraqqiyoti va boyishiga ulkan xissa qo`shganlar. O`rta Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati va ma`rifatining o`zviy ajralmas tarkibiy qismidir.

Ajdodlarimiz e`zozlab kelgan, asrlar qa`ridan olib o`tilgan falsafiy-axloqiy pand-nasixatlar, qadriyatlar ataylab, maqsadni ko`zlab yurgizilgan siyosat qurboni bo`ldi, e`tibordan chetda bo`ldi. Bu esa yosh avlodning ma`naviyatiga salbiy ta`sir o`tkazdi. Vaholanki, Prezidentimiz ta`kidlaganik «...o`tmishdagi allomalarning bebaho merosi ongini va turmush tarzini shakllantirgan edi va u hamon ta`sir ko`rsatmoqda»¹.

Barkamol insonni tarbiyalashda ularni zamon talabiga to`g`ri keladigan shaxs qilib etishtirishda boy ma`naviy- ahloqiy merosimizni o`rganish, ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. O`tmishda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk siymolar bo`lmish Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Imom Buxoriy, Bahovuddin Naqshband, Xoja Ahror, Alisher Navoiylarning ma`naviy-axloqiy fikr taraqqiyotiga qo`shgan xissalari beqiyosdir. Prezidentimiz I. A. Karimov aytganlaridek: “Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g`ururi sha`ni sharafigi dunyoga tarannum qilgan o`lmas so`z san`atkoridir”².

¹O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bag`ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 2005. 19yanvar.

²Karimov I. A. Yuksak ma`naviyat yengilmas kuch. T.: 2008-B.145.

Ma'lumki, xalqimiz boshidan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliyligimizni asrab-avaylashga, rivojlanishiga mutlaqo yo'l qo'yilmagan. Ana shunday davrda Navoiyshunos olimlarimiz dilidagi gaplarini ochiq-oydin aytolmagan. Mustaqillik sharofati tufayli, mumtoz adabiyotimizni har tomonlama chuqur o'rganishga keng yo'l ochildi.

Ijod- insonning yangi moddiy-ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati bo'lib hisoblanadi. Darhaqiqat, biz ham malakaviy bitiruv ishimizda Navoiy hazratlarining ma'naviy-axloqiy durdona asrlarini mingdan bir qirrasini ko'rsata olsak, maqsadimizga yetgan bo'lamiz. Alisher Navoiy yoshligidan Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr" asarini sevib o'qiganligi hech kimga sir emas va bu asar yodi bilan bir umr yashagani faqatgina "Lison ut-tayr"da emas, boshqa asarlarida ham sezilib turadi. Ma'lumki, Navoiy dostonlari sujeti qushlarning Semurg` tomon qilgan safari tasviriga asoslanib, bu tasvir orqali muallif o'zining muayyan falsafiy masalalarga doir qarashlarini obrazli tarzda ifodalab ko'rsatganlar.

Asardagi ibratli jihatlar hozirgi axborot texnologiyasi davrida o'quvchi yoshlarni tarbiyalashda ayni muddaodir. Zero, Prezidentimiz yoshlarni vatanga sadoqat, yuksak axloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashda bunday asarlarning ahamiyati kattaligini bejizga ta'kidlamagan.

Alisher Navoiyning ma'naviy-ahloqiy qarashlarida poklanish, mehr- shavqat, to'g'rilik, sofdillik, vatanparvarlik, do'stlik insof va diyonat, ezgulik va adolat, imonli, e'tiqodli bo'lish kasb- hunar va bilimni egallash haqidagi g'oyalar qamrab olgan, bo'lib bu g'oyalar yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rin egallaydi.

Bu borada yoshlar ongida Navoiyning insonparvarlik, vatanparvarlik haqidagi g'oyalari shakllantirish mavzuning dolzarbligini tashkil etadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Navoiy merosi ko'pdan beri faylasuf tarixchi, adabiyotshunos, dinshunos, madaniyatshunos pedagoglarning diqqatini o'zida jalb etib keladi. Bir necha olimlarimiz va adiblarimiz tomonidan Navoiy

merosi tadqiq etilgan. Jumladan, Boltaboev X.¹, Hasanov S.², Ibrohim Haqqulov³, Hayitmetov A.A.⁴, Qodirova M.⁵, Rustamov A.⁶, Quدراتullaev H.⁷, G'anieva S.⁸, Valihujayev B., Vohidov R.⁹, Doniyorov X.¹⁰ lar Navoiy merosini o'rganib, bir necha muhim tamonlarini tahlil qilganlar.

Mavzuning yoritishdan asosiy maqsad va vazifalar: Alisher Navoiyning ma'naviy- ma'rifiy qarashlarini ochib berishdan iborat.

Mavzuning maqsadidan kelib chiqqan xolda quyidagi vazifalar belgilanadi:

1. Alisher Navoiyning insonparvarlik g'oyalarini o'rganish va tahlil qilish.
2. Alisher Navoiyning ijodida ma'naviyat va ma'rifat masalalarini umumlashtirish.
3. Alisher Navoiyning tasavvufiy qarashlarida shaxsni ma'naviy kamolotga erishish mezonlarini aniqlash.

Ishning obyekti. Ishning obyekti bo'lib Alisher Navoiyning ijodida ma'naviyat va ma'rifat masalalarini umumlashtirish hisoblanadi.

Ishning predmeti. Alisher Navoiyning insonparvarlik kontseptsiyalarini tahlil qilish.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, Alisher Navoiyning ijodida ma'naviyat va ma'rifat masalalari to'g'risida ko'plab ma'lumotlarni olish va sinf hamda darsdan tashqari jarayonlarda ularni turli tadbirlarda komil insonni ma'naviyatini shakllantirishda va ma'rifatini rivojlantirishda ular tasavvurini ma'naviy merosimiz, milliy madaniyatimizga oid qarashlar bilan boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

¹ Boltaboev X. Mir Alisher Navoiy Fitrat talqinida. O'zbek tili va adabiyoti. - T.: Fan, 1992, №1. - 846.

² Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasi. -T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

³ Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-846.

⁴ Hayitmetov A.A. Navoiy ijodining manbalari. "O'zbek tili va adabiyoti".-T.:Fan,1991. №1.-846.

⁵ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-.: "Sharq"(nashriyot-matbaa kontserni, 1991.-246.

⁶ Rustamov A.Navoiyning badiiy mahorati.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. -2146.

⁷ Quدراتullaev H. Navoiyning adabiy-estetik olami.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.-1606.

⁸ G'anieva S. Alisher Navoiy. - T.:Fan, 1968.-1486.

⁹ Valihujayev B., Vohidov R. Navoiy ijodi - ilhom manbai. - T.: Fan, 2013. -46.

¹⁰ Doniyorov X. Alisher Navoiy va o'zbek adabiy tili. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - 616.

Bitiruv malakaviy ishning tarkibiy qismi.

Bitiruv malakaviy ish “Kirish”, ikkita bob, oltita paragrafni oʻz ichiga olgan, “Xulosa” hamda “Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati”dan iborat. Matnning umumiy hajmi --- betni tashkil etadi.

Urganch davlat universiteti

Tarix fakulteti

Milliy gʻoya, maʼnaviyat asoslari va huquq taʼlim yoʻnalishining

Bitiruv malakaviy ishiga

T A Q R I Z

Malakaviy ish mavzusi. Alisher Navoiyining maʼnaviy merosi va uning gʻoyaviy negizlari.
Malakaviy ishning hajmi. 12 ming coʻzdan iborat

Tushuntirish qismi varaqlar soni: 70 sahifadan iborat

Bitiruv malakaviy ish mavzusining dolzarbligi va berilgan topshiriqqa mosligi. Ishning mavzusi dolzarb, berilgan topshiriqqa mosdir

Bitiruv malakaviy ishning «Kirish» qismida va ilova qilingan materiallarning tarkibi va bajarilish sifati. Ishning kirish qismida dolzarbligi, ilmiy oʻrganilganlik darajasi, metodologik asosi va muhim manbasi, maqad va vazifalari, amaliy ahamiyati, tarkibiy tuzilishi va xajmi oʻz aksini topgan boʻlib, toʻla talabga javob beradi.

Malakaviy ishda ilmiy manbalar. Fan-texnika innovatsiya yutuqlari natijalaridan foydalanilganligi. Bitiruv malakaviy ishda ilmiy adabiyotlardan, innovatsion yutuqlar natijalaridan, prezident asarlaridan keng foydalangan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan asoslanganligi. Ishda mavzuga oid barcha maʼlumotlar umumlashtirilgan va tahlil qilingan. Ish ilmiy uslubiy va texnik iqtisodiy jihatdan toʻla asoslab berilgan. Amaliy ahamiyati ham koʻrsatilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ijobiy tomonlari. Berilgan tavsiyalarni ishlab chiqarishda va taʼlim-tarbiya jarayonida foydalanish imkoniyatlari. Ishda mavzuning ilgari kitoblarda aks ettirilmagan jihatlari koʻrsatib berilgan. Ishning materiallari va tavsiyalardan taʼlim sohasida ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻrganishda hamda maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlarda muhim manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishidagi kamchiliklar. Ishda ayrim texnik kamchiliklar va juz'iy orfografik xatolar mavjud. Ular ishning ahamiyatini pasaytirmaydi.

Taqrizchi: _____

**Urganch tuman 2-son umumiy o`rta ta'lim maktabi
o`qituvchisi, Sobirov Mansur**

I.Bob. ALISHER NAVOIY MEROSIDA INSONPARVARLIK G'OYALARNING AKS ETISHI VA UNING NAZARIY-METADOLOGIK ASOSLARI.

1.1. Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyati.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Amir Temurning o'gli Shohruh Mirzo shohligi davrida Hirotida tug'ildi. Zamondoshlari uning haqida ko'pincha "Nizomiddin Mir Alisher" deb yozadilar. "Nizomiddin"-din--diyonat nizomi degani bo'lib, donishmand mansab egalariga beriladigan sifat, "mir" - amir demakdir. Uning otasi G'iyosiddin Muhammad (uni G'iyosiddin Kichkina ham der edilar) temuriylar saroyining amaldorlaridan, xonadonning ishonchli kishilaridan edi. Onasi amirzoda Shayh Abusaid Changning qizi bo'lgan, ismi ma'lum emas. Alisherning bobosi Temurning o'g'li Umarshayx bilan emikdosh (ko'kaldosh) bo'lgan ekan.

Buyuk shoir o'z asarlarida o'z asarlarida bu qutlug' dargohga yaqinligidan iftixor etishini bayon qiladi. Shuningdek, uning tarjimai holiga oid ayrim lavhalar asarlarida uchraydi. Bu tabarruk zot to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni esa uning zamondoshlari o'z kitoblarida beradilar¹. Alisher saroy muhitida yashaganligi uchun alohida tarbiya va nazoratda o'sdi. Kichiklik chog'idan she'r va musiqaga ishq tushdi. Olimu fozillar davrasida bo'ldi. Uch-to'rt yoshlarida davrining mashhur shoiri Qosim Anvorning bir she'rini yod aytib, mehmonlarni hayratga soldi. Bir yildan so'ng uni maktabga berdilar. U bo'lajak sulton Husayn Bayqaro bilan birga o'qidi. Uning zehni va iqtidori haqidagi gaplar esa el orasida tarqalib bordi.

1447-yilda Shohruh Mirzo vafot etib, temuriy shahzodalar o'rtasida taxt uchun kurash boshlanadi. Hirot notinch bo'lib qoladi. Alisherlar oilasi Iroqqa yo'l oladi. Yo'lda, Taft shahrida Alisher zamonasining mashhur tarixchisi, "Zafarnoma"ning muallifi Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashdi.

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfası.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

Alisher xonadoni 1541-yilda Hirotga qaytadi. Tarixchi Xondamir bu bilan bogʻliq shunday bir hikoyani keltiradi: Karvon Yazd choʻli bilan Hirotga borarkan, tungi yurishlardan birida ot-ulov ustida hammani uyqu bosadi. Alisher mingan ot, ittifoqo, yoʻldan chiqib, boʻlajak shoir egardan tushib qoladi, uyqu zoʻrlik qilib, uygʻonmaydi. Horigan ot ham egasi yonidan ketmay, toʻxtab qoladi.

Alisher tong otib, quyosh qiziganda uygʻonadi. Qarasa, poyonsiz sahro, atrofiga hech kim yoʻq. Yolgʻiz otigina yovshan ildizlarini chimtib turibdi. Oʻn yoshli bola oʻzini qoʻlga oladi. Otini minib, zehn bilan yoʻlni topib ilgari yuradi. Kun qizib, chanqoqlik boshlanadi. Shu payt uzoqdan bir narsa qorayib koʻrinadi. U suv toʻla mesh ekan, Oллоhga shukronalar aytib, Alisher yoʻlini davom ettiradi. Uning ota-onasi manzilga yetgach, oʻgʻillarini yoʻqligini biladilar va mulozimni shoshilinch orqaga qaytaradilar. Mulozim koʻp yurmay, Alisherga duch keladi. Alisherni, goʻyo u qayta tugʻilganday, quvonch bilan kutib oladilar.

1452-yilda Abulqosim Bobur Mirzo Xuroson taxtiga oʻtiradi, notinchliklar bosiladi. Gʻiyosiddin Muhammad Sabzavorga hokim qilib tayinlanadi. Alisher esa oʻqishini davom ettiradi¹. Maktab yosh Alisherni sheʼriyat, adabiyot olamiga olib kirdi. Boʻlajag shoir Saʼdiy Sheroziyning "Guliston". "Boʻston", asarlarini, Farididdin Attorning "Mantiq ut-tayr"("Qush mantigʻi")ni soʻngsiz ishtiyoq bilan oʻqidi. Ayniqsa, qushlar tilidan keltirilgan hikoyatlar va ularning chuqur mazmuni Alisherning oʻy-xayolini tamom egallab oldi...

Bir kuni qushlar jam boʻlibdi. Har xil: toʻti, qumri, toʻvus, bulbul va hokazo. Oʻrtaga hudhud (sassiqqopishak) chiqibdi. Boshidagi tojini selkillatib, oʻzini taʼrifu tavsif etibdi. Soʻng u hammani olam podshosi Semrugʻni izlashga undabdi. Qushlar uni surishtira boshlabdilar. "Zotini, sifatini, sifatini ayt, bizga nishon ber!" – deyishibdi ular. Hudhud hikoya boshlabdi: Smurgʻ bir kecha dunyoni aylanib, uchib yurar edi. Nogoh yoʻli Chin shahri ustidan tushdi. Bir silkingan edi, mamlakat nurga gʻaeq boʻldi. Patidan biri tushib qolgan ekan.

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfası.-T.:Gʻ.Gʻulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

Ogoh bo'lganlar aqlu shuurini yo'qotdilar. Chin mulki esa hashamat(ulug'vorlikka) chulg'andi.

Qushlar zavqu shavq bilan yo'lga tushadilar. Buroq bu zavq-shavq uzoq davom etmaydi. Qushlar e'tiroz bildirib, uzr aytib, o'zlarini chetga ola boshlaydi. Hudhud har biriga javob aytadi. Semrug'ga yetishish baxti oldida bu dunyoning tashvishlari hechligini isbot etuvchi biror hikoya keltiradi. Hudhudning gaplari, hikoyalari qushlarga yangi bir kuch bag'ishlaydi. Ular hudhudni boshliq qilib, yo'lga tushadilar. Hudhud buy o'lning ishq yo'li ekanligi, unga kirgan odam Shayx San'on singari o'zligidan kechishi lozimligini aytadi. Yana bir-biridan jozibali hikoyalar... Nihoyat, qushlar yeti vodiyni bosib o'tadilar va o'zlarining Semurg' ekanligini anglab yetadilar.¹

"Mantiq ut-tayr" xayoli Alisherga bir umr hamroh bo'ldi. Umrining so'ngida esa "Lison ut-tayr"("Qush tili") nomi bilan kitob yozdi. Bo'lajag shoir yana Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy asarlarini sevib o'qir edi. 1453-yilda Alisherning otasi G'iyosiddin Mauhammad vafot etadi. Alisher Abulqosim Bobur hizmatiga kirdi. Avval Sabzavorda, so'ng Mashhadda yashadi. Ikki maktabdosh do'st – Husayn va Alisher yana birga bo'ldilar. Bir munosabat bilan u 50 ming bayt, 100 ming misra she'r yod olganini aytdi. She'r shunchaki nutq o'stirish emas, ma'rifat, taffakur mashqi ham edi. Navoiy 15 yoshlarida o'z she'rlari bilan zamonasining mashhur shoirlari diqqatini tordi. Xondamirning yozishicha, she'rlari bilan endigina tanilib kela boshlagan Alisher o'z davrining dongdor shoiri Mavlono Lutfiy xizmatiga boradi. Mavlono undan she'r o'qishni iltimos qiladi. Alisher o'zining:

Orazin yopg'och, ko'zimdin sochilur har lahza yosh,
Bo'ylakim, paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh. matla'i bilan
boshlanadigan g'azalini o'qiydi. She'rdan hayratga tushgan keksa shoir bunday deydi: "Valloh, agar muyassar bo'lsa edi, o'zumning forsiy va turkey tillarda aytgan o'n-o'n ikki ming baytimni shu g'azalga almashtirardim va buni

¹ Haqkulov I. Tasavvuf va she'riyat. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-846.

o`zimning katta yutug`im deb hisoblar edim". Bu turkiy (o`zbek) she`riyatiga juda katta iste`dod kirib kelayotganidan nishona edi.

1457-yilda Abulqosim Bobur vafot etdi. Hokimyat tepasiga Abusaid Mirzo keldi. Husayn Bayqaro taxt uchun kurashga sho`ng`ib ketdi. Navoiy esa Mashhad madrasalarida o`qishni davom ettirdi. Do`stlar orttirdi. Keksa shoir Kamol Turbatiyni shu yerda uchratdi. Turbatlik bu shoir Alisher bilan bir bayt muhokamasi ustida tanishib qoldi. Shoir 1464-yilda Hirotga qaytadi. Biroq poytaxda uni noxushliklar kutadi. Abusaid Mirzo u bilan taxt talashayotgan Husayn Bayqaroni yaqin kishilarini ta`qib va tayziq ostiga olgan, jumladan, tog`alari Mirsaid Kobuliy va Muhammad Ali G`aribiylarni oldinma-keyin qatl ettirgan edi. Ular iste`dodli shoirlar edi. Alisherning ota mulki musodara qilingan, hatto yashashab turgani boshpana ham qolmagandi. U shaharda uzoq qola olmadi. Holbuki, yosh shoirning ijodi barq urgan payti edi. Abdurahmon Jomiyadek zamonasining alloma adibi bilan yaqindan tanishib, saboqlar olgani, mehr qozongan edi. Navoiy - "Mahmud Nuran" deb e`zozlagan bu mashhur shoir va olim o`zini siyosatdan uzoq tutar, hatto shahar tashqarisidagi Sa`diddin Koshg`ariy (1456-yilda vafot etgan mashhur shayx, Jomiyning ustози) mozori yonidan joy qilib, o`sha yerda yashar edi.¹

Navoiyning Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan she`riy maktubi bor. U "Masnaviy" nomi bilan "Xazoyin ul-maoniy"ning birinchi devoniga kiritilgan. Mutaxassislar uni Navoiyning Hirotidan Samarqandga jo`nash oldidan yozgan maktubi deb hisoblaydilar. Chamasi, shoir safar oldida Ardasher bilan xayrlashmoqchi bo`lgan, lekin uni topmagan. So`ng ushbu maktubni yozib qoldirgan. Maktub Alisherning safar oldidagi kechinmalari va o`z otasidek yaqin ko`rgan Sayyid Hasan Ardasherining sifatlarini ta`rif etish bilan boshlanadi. Vatan va do`stlarni tashlab ketish og`ir. Xayrlashmay ketish undan ham og`ir. U ulug` do`stiga ketishi sabablarini tushuntirmoqchi. Xat shu munosabat bilan

¹ Hayitmetov A.A. Navoiy ijodining manbalari. "O`zbek tili va adabiyoti".-T.:Fan,1991. №1.-846.

yoʻzilgan. Inson soʻz bilan ulugʻdir, "falak jismining joni"-soʻz, ayqisa "nazm" (sheʻr), deydi shoir. Va oʻzida sheʻr yozishga juda katta kuch-qudrat sezayotganini aytadi. Shunday qudratki, agar Firdavsiy oʻz "Shohnoma"sini 30 yilda yozgan boʻlsa, u oʻshanday asarni 30 oyda yoza oladi. Nizomiy Ganjaviyning 30 yil sarflab maydonga keltirgan "Xamsa"si uning oldida 2-3 yillik ishdir. Faqat unga imkon kerak. Yurt esa notinch, odamlarda vafo yoʻq. Insoniylik qolmagan zulm avjida. Hatto tasali beruvchi kishi ham yoʻq. Ketaman, desang etagindan tutadigan umr yoʻldoshing, ketsang, ayriliqdan eziladigan doʻsting boʻlmasa.

Navoiy 60-yillarning ikkinchi yarmida Samarqandda yashadi. Uning bu shaharga kelishi sababini turlicha talqin qiladilar. Xondamir, oʻqish uchun keldi, deydi. Toʻgʻri u Samarqandda din huquqshunosi va faylasuf Fazulloh Abullays qoʻlida oʻqidi. Zahiriddin Bobur uni Abusaid surgun qildi deydi. Bunda ham asos bor. Abusaidning Alisherga munosabati yomon edi. Shoir Samarqandda dastlab moddiy qiyinchilik ichida yashaydi.¹ Keyinroq unga shahar hokimi Ahmad Hojibek ragʻbat va hoilylik koʻrsatadi. Nihoyat, Samarqand oʻz goʻzalligi bilan ham Navoiyni maftun etadi. Shoi uni "firdavsmonand"(jannatmisol) deb ataydi va unga hech qachon "gardi fano" oʻltirmasligini – zavolikka yuz tutmasligini istaydi. Navoiy shu yillari shoir sifatida juda katta shuhrat topa bordi. 1465 – 1466-yillarda uning muxlislari sheʻrlarini toʻplab, "devon" tuzadilar. Bu kitob bugun "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir. 1468-yil oxrida Eronni eggalash uchun boʻlgan jangda Abusaid halok boʻladi. Husayn Bayqaro 1469-yilning boshida Hiroti qoʻlga oladi va Samarqandga xat yoʻllab, Navoiyni oʻz yoniga chaqiradi. Husayn Bayqaro uni davlat ishlariga jalb etadi. Muhrdor qilib tayinlaydi.

Alisher Navoiy 1469-1472-yillarda muhrdor, 1472-1476-yillarda vazir boʻlib ishlaydi. 1487-1488-yillarda Astrobodga hokimlik qildi. Husayn Bayqaro uni oʻziga gʻoyat yaqin tutar, har bir narsada u bilan maslahatlashar va buni

¹ Hayitmetov A.A. Navoiy ijodining manbalari. "Oʻzbek tili va adabiyoti".-T.:Fan,1991. №1.-846.

nihiyatda qadrlar edi. To'g'ri, Bayqaro va Navoiy o'rtasiga uchinchi kishi aralashgan, sovuqchilik tushgan paytlar ham bo'ldi. Lekin o'z davrining ikki atoqli arbobi hamkorligi juda ko'p sinovlardan muvaffaqiyat bilan o'tib, avlodlarga o'rnak bo'ldi. Husayn Bayqaro saltanatining daslabki yillarida juda notinch kechdi. Xondamirning yozishicha, u taxtga chiqqan yilning o'zida Abusaid Mirzoning o'g'li Yodgor Muhammad taxt da'vosi bilan qo'zg'aldi. Husayn Bayqaro unga qarshi qo'shin tortadi va g'alaba qozonadi.

1470-yilning bahorida Yodgor Mirzo Astrobodda yana bosh ko'taradi. Husayn Bayqaro Navoiyni yoniga olib, qo'shin bilan yana yo'lga tushadi. Xuddi shu payt Hirotga qo'zg'olon bo'lganligi xabari keladi.¹ Husayn Bayqaro Navoiyni unga katta vakolatlar berib poytaxtga qaytaradi. Navoiy shaharda adolatni tiklab, xalqni tinchlantiradi. Shunday to'qnashuvlarning birida Yodgor Mirzoning qo'li baland kelib, poytaxtdagi ayrim kishilar unga qo'shiladilar. Mojarolarni tinchlantirish maqsadida uylangani Abusaidning qizi Robiya Sultonbegim eriga hiyonat qilib, u safariga ketganida poytaxtda inisi Yodgor Mirzo nomiga xutba o'qitadi. Yurt bir muddat Yodgor Mirzo qo'liga o'tadi. Bu hol Husayn Bayqaroga qattiq ta'sir etadi. Tushkunlikka tushadi. Navoiy shunday paytda uning yonida turadi, tassali beradi. O'sha 1470-yilning o'zida payt poylab, Navoiyning maslahati bilan Murg'ob daryosi bo'ylaridan juda qisqa muddatda Hirotga yetib keladi va Bog'I Zog'onda maishatdan charchab uxlab yotgan Yodgor Mirzoni qo'lga oladi. Shundan keyingina Xurosonda ma'lum muddat tinchlik, osoyishtalik qaror topadi. Alisher ijod kishisi edi. U tabiatan buyuruqvozlikdan va hukmfarmonlikdan yiroq, tafakkur hamda taxayyulga moyil, g'oyat nozikta'b bir kishi edi. Mansab-lavozimlar har qancha yuksak bo'lmasin uning uchun zil-zambil yuk bo'lib, Husayn Bayqaroga bo'lgan ixlos va muhabbatigina uni iste'fo berishdan saqlab turar edi. Shunga qaramasdan, u sadoqat bilan xizmat qildi. Donishmadnligi, tadbirkorligi bilan ko'plab g'alayonu qon to'kishlarni oldini oldi, urushlarni yarashga aylantirdi. Uning bu

¹ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246.

fazilati, ayniqsa, 1972-1476-yillardagi vazirlik faoliyatida yaqqol namoyon bo'ldi. Husayn Bayqaro hokimyat ishlarida Navoiyning aql va sadoqatida tayanib ish ko'rdi. Uni, qarshiligiga qaramasdan, yuqori martabalarga tayinladi, 1472-yilda esa "amir"(vazir)likka qo'ydi. Buyuk shoir "amiri kabir" (ulug' amir), "amirul muqarrab" (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning vazirlik yillari Hirotda obodonlik avj olgan, madaniyat gullab, yashnagan davr bo'ldi. Ulug' amir o'zi bosh bo'lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozallatirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta'mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan-qancha madrasalar, xonahoqlar soldirdi. Alisher Navoiy she'rni, shoirlikni hamma narsadan baland tutdi. Vazirlik martabasida turib ham she'r yozishni to'xtatmadi. Atrofida gilar uning bu ishiga rag'bat va hurmat bilan qaradilar. Shoh Husayn Bayqaroning o'zi unga rahnamolik qildi.¹ Ulug' shoirning ilk she'riy devonini muxlislari tuzgan bo'lsalar, birinchi devoni - "Badoye ul-bidoya" ("Badiiyluk ibtidosi")ni 1472-1476 yillarda shohning amri va istagiga ko'ra o'zi kitob qildi. 1485-1486-yillarda ikkinchi devon - "Navodir un-nihoya"("Nihoyasiz nodirliklar") maydonga keldi. Alisher Navoiy 1481-1482-yillarda "Vaqfiya" asarini yozadi. Vaqf deb biror xayrli ishning sarfu xarajatini ta'min qilmoq uchun ajratilgan yer yoki mulkka aytiladi. Alisher Navoiyning eng katta orzusi doston yozish, birinchi navbatda, XII asrning buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy (1141-1209) dan keyin shoirlik qudutarining mezoniga aylanib qolgan "Xamsa" yaratish edi. Nizomiyning "Panj ganj" nomi bilan tarixga kirgan "Xamsa"si 5 masnaviydan tashkil topgan edi: "Maxzan ul - asror"("Sirlar xazinas"), "Xusrav va Shirin", "Layli va Majnun", "Hayf paykar"("Yeti go'zal"), "Iskandarnoma". Yuz yildan keyin unga Xusrav Dehlaviy (1253-1325) javob qildi. U o'z dostonlarini "Matla ul-anvor" ("Nurlar boshlanishi"), "Shirin va Xusrav", "Majnun va Layli", "Hasht behisht"("Sakkiz jannat"), "Oynayi Iskandariy" (Iskandar oyinasi) deb ataladi. Lekin bular

¹ Qodirova M. O'zbek shoiri naziyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(nashriyot-matbaa kontserni, 1991.-

hammasi forsiy tilda yozildi. Ulardan forslar, shu tilni bilganlargina bahramand bo'ldilar. O'z xalqining shunday hazinadan bebahra qolishi Navoiyni qiynadi. Navoiy maslahatga ustozi Abdurahmon Jomiy huzuriga boradi. Jomiy Navoiyni bu ishga tezlikda kirishishga undaydi, uning o'z kuchi va imkoniyatlariga ishonchini mustahkamlaydi. Navoiy besh dostonni ikki yilda tamomlaydi. 1483-yilda o'z "Xamsa"sini yoza boshlab, 1485-yilning boshida yugatadi. Shoir ishlagan kunlar hisobga olinsa, 54 ming misralik ulkan obida 6 oyda bitkaziladi. Turkiy tilda birinchi marotaba "Xamsa" yaratiladi. Olimu fuzalo - barcha bu hodisani zo'r olqish bilan kutib oldilar. Zayniddin Vosifiyning "Badoye' ul-vaqoye'"sidan: "Shoh Navoiyga: "Bir mojaro Siz bilan bizning oramizdan ko'pdan hal bo'lmay keladi, shuni bugun bir yoqlik qilaylik", deydi. Bu mojaro shundan iborat ediki, Sulton Husayn Alisherning muridi bo'lishini ko'pdan orzu qilar va uni "pirim" deb atar edi. Alisher esa har gal: "Yo Ollo, yo Ollo, bu qanday gap bo'ldi! Aslida – biz muridmiz, siz – hammasiga pirsiz", der edi. Endi Sulton Husayn Alisherdan so'radi: - Pir nima-yu, murid nima? Alisher javob berdi:- Pining tilagi - muridning tilagi bo'lishi kerak. - Shunda Sulton Husayn o'zining oq otini olib kelishni buyuradi. Ot juda asov, chopag'on edi.¹

Sulton Husayn aytdi:- Siz murid, men murid bo'ladigan bo'lsam, Siz shu otga minasiz, men uni yetaklayman.

Alisher noiloj otga minishga majbur bo'ladi. Ot g'oyat asov bo'lib, shohdan boshqani o'ziga yaqinlashtirmas edi. Alisher oyog'ini uzangiga qo'yishi bilan ot tipirchilay boshladi, Sulton Husayn otiga o'shqirdi, ot itoat qilib, Alisherning minishini kutdi. Alisher egariga o'tirishi bilan Sulton Husayn otining jilovidan ushlab yetaklay boshladi. Alisher hushidan ketdi. Uni egardan ko'tarib oldilar. Tarihda bunday hol ko'rilmagan edi. Hech bir zamonda shoh shoirga jilovdorlik qilmas edi. 1480-1490-yillar Navoiy uchun badiiy ijodda samarali davr bo'ldi. Shoir "Xamsa" dan keyin ko'p o'tmay, ketma-ket nasriy

¹ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246

kitoblar yaratdi. U 1488-yilda yozgan "Tarixi mulki ajam" ("Ajam shohlar tarixi") shularning biri edi. Bu asar "Muhokamat ul-lug'atayn"da "Zubdat ut-tavoxir"("Tarixlar qaymog'i") deb ham ataladi. 1480-yillarning oxiri, 1490-yillarning boshida Navoiyning yaqin do'stlari, ustozlaridan Sayyid Hasan Ardasher (1489), Abdurahmon Jomiy (1492), Pahlavon Muhammad (1493) ketma-ket vafot etdilar. Navoiy ularga bag'ishlab "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Pahlavon Muhammad" asarlarini yozadi. Bu asarlar nasriy bo'lib, shoirning bu ulug' zamondoshlari haqidagi memuar xotiralaridan tashkil topgan edi. 1491-yilda muammo janriga bag'ishlangan "Risolayi muammo" (ikkinchi nomi "Mufradot") risolasini yozi. Navoiy zamonasida muammo janri keng tarqalgan bo'lsa - da, asosan, fors tilida yozilar edi. Navoiy o'zbek tilida muammo yozgan ilk o'zbek shoirlaridan bo'ldi. "Xazoyin ul-maoniy"ga uning 52 muamosi kiritilgan¹. Shoirning fors tilidagi muammolarini esa 500 chamalaydilar. Navoiyning 1490-yillardagi eng katta xizmatlaridan biri "Xazoin ul maoniy" ("Ma'nolar xazinasini")ni tuzish bo'ldi. 1492-1498-yillarda tartib qilingan 4 qism devondan iborat bu ulkan she'riy kulliyot shoirning turkiy tilda yozilgan deyarli barcha lirik she'rlarini qamrab olgan edi. Shoir 7-8 yoshidan 20 yoshigacha bo'lgan davrni umrining navbahori hisobladi va shu davr devonini "G'aroyib us-sig'ar"("Yoshlik g'aroyibotlari") deb atadi.

1490-yillarning boshidagi og'ir yo'qotishlar, ayniqsa, 40 yillik qadrdoni Pahlavon Muhammad bilan ustози Jomiydan judo bo'lish Navoiyga qattiq ta'sir etdi. Buning ustiga saroyda Xadichbegim Nizomulmulk bilan mulk va mansab ishtiyoqida yangi-yangi fitnalar to'qiydi. Shu fitnalar natijalaridan biri pok qalbli barcha kishilarni larzaga solib, mamlakatni halokat yoqasiga keltirib qo'yadi. Bu-Mo'min Mirzoning o'z bobosi farmoni bilan qatl qilinishi edi. 1489-yilda Navoiy Hirotga qaytgach o'rniga Astrobod hokimi qilib Badiuzzamon tayinlagan edi. Bu orada Balxda Darveshali qo'zg'oloni boshlanadi. Husayn Bayqaro Navoiyni olib, Balxga jo'naydi. Darveshali bilan sulh tuziladi, lekin

¹ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 46.

Hisorda Abusaidning o'g'li Sulton Mahmud Husayn Bayqaroga qarshi kurash boshlaydi. Shoh Navoiyni Balxda qoldirib, o'g'li Badiuzzamonni olib Hirotga o'tlanadi. U bilan ham murosaga kelishib, orqaga qaytadi va Balxni Badiuzzamon tasaruffiga beradi. Badiuzzamon o'g'li - 13 yoshli Mo'min Mirzoni Astrobodda qoldirib Balxga keladi. Xadichbegim Nizomulkmulk bilan birgalikda Astrobodga Muzaffar Mirzoni hokim qilib tayinlashga erishadilar. Husayn Bayqaro va Badiuzzamon o'rtasidagi munosabat yomonlashadi. Badiuzzamon Mo'min Mirzoga Muzaffar Mirzoni shaharga kiritmaslikka buyuruq beradi. Shoh tezda Navoiyni Balxga yuboradi. Navoiy ota va o'g'il orasiga tushib, ularni yarashtiradi. Biroq huddi shu paytda Husayn Bayqaroning Badiuzzamonni qo'lga tushirish va qamoqqa olish haqidagi Balxga, shahar qutloviga yo'llagan yashirin farmoni ma'lum bo'lib qoladi. Yarash yana urushga aylanadi. Navoiy voqeani bunday izga kirib ketganidan qattiq iztirob chekadi va umidsiz orqaga qaytadi.¹ Ota-o'g'il urushida Badiuzzamon yengiladi. Mo'min Mirzoni Muzaffar Mirzo asir oladi. 1499-yilda Marvda Husayn Bayqaroning yana bir o'g'li Abulmuhsin otasiga qarshi bosh ko'taradi. Shoh o'z qo'shini bilan Marvga o'tlanadi. Bu paytlarda Navoiy hajga boorish orzusida edi. Mirxondning xabar berishicha, Abulmuhsin otasi bilan sulh tuzish uchun Alisherning podshoh nomidan vakil bo'lib kelishini shart qilib qo'yadi. Navoiyga tez chopar yuboriladi. Chopar shoirga yetib, shohning maktubini topshiradi. Unda shoirning hajni keyinga qoldirib, texda Marvga yetib kelishi iltimos qilingan edi. Alisher Mashhad ulug'lari va hamrohlari bilan maslahatlashadi. Ular mamlakatning tinchiligi uchun Alisherning hajga borishidan kechishini so'raydilar. Alisher belgilangan joyga yetib boradi, ota-o'g'illarni yarashtirib, Hirotga qaytadi².

1498-yilda Alisher Navoiy "Majolis un-nafois"ni qayta ko'zdan kechirib, to'ldirdi. Shoirlar adadni 459 taga yetkazdi. Shu yili yoshligidan qalbida muhirlanib kelgan "Mantiq ut-tayr" ga javob yozadi. "Lison ut-tayr" Navoiy

¹ Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. -T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. -2146.

² Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari. -: "Sharq" (ashriyot-matbaa kontserni, 1991. - 246

ijodini yakunlovchi asarlardan biridir. Buyuk shoir 1498 -1499 yillarda xatlarini to'plab, "Munshaot" tuzdi. Unda 88 ta xat jamlangan bo'lib, ularning aksariyati shoirning shoh va shahzodalarga yo'llangan. Shoirning 1500-yilning oxirlarida yozib tugatgan "Mahbub ul-qulub" asari uning eng so'nggi asari bo'lib qoldi. Navoiy 1501-yilning 3-yanvarida vafot etadi. Butun halq - shohda gadogacha, olimdan cho'pongacha, shoirdan dehqongacha ulug' farzandining o'limiga qayg'u va iztirob bilan motam tutadi.

1.2. Alisher Navoiy asarlarida komil insonni tarbiyalash haqidagi fikrlar.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy fan va san'atning turli sohalari: adabiyot, tarix, til bilimlari, musiqa, hattotlik, tasviriy san'at, me'morchilik rivojlanish bilan birga ta'lim-tarbiya takomillashishiga katta e'tibor beradi. U o'zining «Hamsa», «Mahbub ul qulub» kabi ta'limiy axloqiy asarlarida, shuningdek «Munojat», «Vaqfiya», «Majolisun nafois», «Muhokamatul ul-lug'atayn», «Qirq hadis» asarlarida tarbiyaga oid qarashlarini ifoda etadi.

Uning qarashlari insonparvarlik g'oyasi bilan sug'orilgandir. U xalq baxtini orzu qiladi, xalq manfaatini o'z manfa

atidan ustun qo'yadi:

Yuz jafo qilsa menga bir qatla faryod aylamam,

Elga qilsa bir jafo yuz qatla faryod aylaram.

Yoki

Odami ersang demagil odami

Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.

Alisher Navoiy inson kamolotida ilmning o'rnini muhim deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlik, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Ilm olishni insoniy burch deb biladi. U ilmda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi.

Navoiy ilm-fanni yuksaltirish uchun Ixlosiya madrasasini tashkil etdi, uning yonidan maktab ochib, o'z vakfidan mablag' ajratdi. Madrasada qattiq intizomga amal qilinishini nazorat qildi.

Adib ustoz-murabbiylarga ham katta talablar qo'yadi, ularni avvalo o'zlari bilimli va tarbiyali bo'lishlari lozim deydi. Shu bilan birga ustozlarning mehnatini juda qadrlaydi:

Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila¹.

Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlarida komil inson obrazlarini yaratib, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ifodalagan bo'lsa, ta'limiy-axloqiy asarlarida esa komil insonni shakllantirishning mazmuni, yo'llari, usullarini bayon etdi.

Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni, aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib berdi.

Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlarga: ijodkorlik, qobiliyat, ilm-fanga muhabbat kiradi. Chunki, baxtli hayotga intilgan Navoiy fikricha, oqil, qobiliyatli, dono inson o'zining kuch-quvvatiga, aqlu zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ilikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni «Nazmul javohir» asarida:

Kim olim esa nuqtada barhaq de oni,
Gar bazm tuzar bihishti mutlaq de oni.
Har kimsaki, yo'q ilmga anga ahmaq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmaq de oni¹.

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul qulub. T., G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti. 1983 y. 98 b.

¹ Alisher Navoiy. Nazmul-javohir. Asarlar, O'n besh tomlik, Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 15-tom, 1968, 45-bet

ya'ni ilmi, oqil odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikni engib o'tadi, Kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo'lmaydi va ilmning vazifasin inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy ilmni inson kamoloti uchun eng zarur fazilatlardan deb biladi. U ilmni insonni, xalqni nodonlikdan, jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida ta'riflaydi. Shunga ko'ra u o'z asarlarida kishilarni ilm-ma'rufatli bo'lishga undaydi. Ilm olish har bir kishining insoniy burchi, deb hisoblaydi. Chunki ilm egallashtan maqsad ham xalqining, o'z mamlakatining baxt-saodatli, farovon hayot kechirishi uchun xizmat etishdan iboratdir, deb ta'kidlaydi. Masalan, Mirzo Ulug'bekni shunday insonlardan, deb ta'riflab, uning nomi ilmu xikmatda, tarixda abadiy qoldi, deydi.

Navoiy orzu qilgan komil inson faqat ilmi bo'lish bilan qanoatlanib qolmasligi, balki u yana sabr-toqat, saxiylik, himmatli, tg'rilik, rostgo'ylik, tavoze', adab, ishq va vafo hamda shu singari fazilatlarga ham ega bo'lishi lozimligini bir necha bor ta'kidlagan edi.

Shoirning «Hamsa»siga kirgan «Xayratul abror» dostoni va «Mahbubul qulub» asarlari axloqiy didaktik asarlaridan hisoblanadi.

«Hayratul abror» muqaddima qismiga oid bir necha boblardan tashqari 20 maqolat, har bir maqolatga oid 20 she'riy hikoyadan tashkil topgan bo'lib, maqolatning har birida Navoiy o'z davri uchun zarur bo'lgan biror ijtimoiy siyosiy yoki ixloqiy masalani qo'yadi, uni o'z davridagi hayotdan, ijtimoiy tabaqalarning ahvolidan kelib chiqish va atroflicha tahlil qiladi va unga insoniy munosabat bildiradi. «Hayratul abror»dagi masalalarni 3 turkumga ajratish mumkin:

1. Falsafiy masalalar.
2. Ijtimoiy-siyosiy masalar.
3. Axloqiy-ta'limiy masalalar.

Asarning 5-maqolati insoniy fazilatlardan biri –saxiylikka bag'ishlanadi, saxiylik qoidalarini ko'rsatib beradi. U saxiy insonni shunday ta'riflaydi: «Ey xushyor odam, sen shunday odamni saxiy deb bilki, baxt-davlat uning boshini yuqori ko'tarib, ahvoli yaxshi bo'lsa ham, yomon bo'lsa ham birovdan molu amal tama' qilmasa...u qo'lida bor narsa bilan qo'li qisqa odamni xursand qiladi...birovning yarasini ko'rsa malhamini ayamaydi»².

6-maqolat tarbiyaga bag'ishlanadi. Bolaga dastlab yaxshi ism qo'yish, so'ngra yaxshi muallimga berish, yashi tarbiya berishni maslahat beradi. bolalarni esa ota-onani hurmat etishga chaqiradi:³

Boshni fido ayla ato qoshiga,
Jismni qil sadqa ano boshiga.
Ikki jahoningga tilarsen fazo,
Hosil et ushbu ikkisidan rizo.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Navoiyning «Mahbub ul qulub» asari asosida insonparvarlik, xalqparvarlik g'oyasi yotadi. U inson haqida qayg'uradi, uning dardini chekadi. Insoniylikka yarashikli fazilatlarni madh etadi, unga zid bo'lgan illatlarni nafratlaydi. Asar uch qismdan iborat:

1-qismda feodal jamiyatlardagi turli ijtimoiy tabaqalarning jamiyatda tutgan o'rnini va vazifasi haqida so'z yuritiladi. Dehqonlar va ularning mehnati ulug'lanadi.

2-qismda odob va axloqqa oid masalalar yoritiladi. Odabli insonlar ulug'lanishi, hurmatli bo'lishi ko'rsatiladi.

3-qismda saxiylik, oliyjanoblik, muruvvat, karam, vafo, muloyimlik kabi insoniy xislatlar tahlil etiladi. Qator maqollar keltiriladi: «Tilga ixtiyotsiz –elga

² Alisher Navoiy. Hayratul abror. T., G'.G'ulom nomidagi «Adabiyot va san'at» nashriyoti. 1989 y. 256 b.

³ O'sha asardan. 76 b.

e'tiborsiz», «Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zolim», «Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur».¹

Navoiy ilmni va ilm ahllarini ulug'laydi. Mamlakat obodonligini ta'minlashda xalq ahvolini engillashtirishdi ilm ahliga katta umid bog'laydi.

Navoiyning ta'lim-tarbiya haqidagi o'g'itlari, uning ma'rifatparvarlik g'oyalarining uzviy qismini tashkil iladi. U butun umri davomida ilm-ma'rifatni targ'ib qiladi. Navoiy merosini chuqur o'rganish undan ta'lim-tarbiya jarayonida keng foydalanish hozirgi kunimizning muhim talablaridan biridir.

Alisher Navoiy bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olimu fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi.

Masalan, Navoiy o'zining «Ixlosiya» madrasasi yonida maktab oib, o'z vaqfidan mablag' ajratgan. Madrasada ta'lim olayotgan har bir talabadan ilmda qattiq intizomga rioya qilish talab etilgan. Shuningdek, u ilm-fanni mustaqil holda o'rganish, etuk ilm sohiblaridan dars olishga ham undaydi.

U bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur, deydi. bunda har qanday qiinchilikni engib o'tish muhimligi, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan ish ko'rish, uni oxrigacha etkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hattoki ta'lim tizimini ham belgilab beradi, ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida maktab, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushi byoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi.

Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berishda muallimlar, mudarrislar hamda ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon, mutaassib, johil domlalarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur, deydi. Masalan, u «Mahbub ul qulub» asarida shunday fikr bildiradi: «Uning ishi odam qo'lidan

¹ Rustamov A.Navoiyning badiiy mahorati.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. -2146.

kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga ojizlik qilardi, u esa bir to`da bolaga ilm va adab o`rgatadi, ko`rkim bunga nima etsin.

Shunisi ham borki, u to`dada fahm-farosati ozlar bo`ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo`ladi. Har qanday bo`lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko`pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi.

Haq yo`lida Kim senga bir harf o`qitmish ranj ila,
Aylamak bo`lmas ado oning haqin yuz ganj ila»¹

Alisher Navoiy o`qituvchining hurmatini qanchalik joyiga qo`ysa, unga bo`lgan talabni ham shunchalik oshiradi. Ayniqsa, madrasa mudarrislarining bilimli, fozil va dono, kamtar, ma`naviy pok bo`lishlarini talab etadi: «mudarris kerakki, g`arazi mansab bo`lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchung dars berishga havas krgazmasa va olg`irlik uchun gap-so`z va g`avg`o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo`lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o`rin bo`lmasa... Yaramasliklardan qo`rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o`zini olim bilib, necha nodonga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa; qilmas ishlarni qilmoq undan sodir bo`lsa va qilar ishlarni qilmaslikunga qoida va odat bo`lib qolsa. Bu mudarris emasdir, yomon odatni tarqatuvchidir»²

Navoiy o`zi barpo etgan «Ixlosiya» madrasasida o`z zamonasining etuk mudarrislarini yig`di va ilm izlagan talabalar ana shu madrasalarda ilm peshvolaridan tahsil oldilar.

Demak, Navoiy har bir yoshning aqliy kamolotga etishida ilmu fanning hamiyatini ko`rsatib o`tish bilan birga jamiyat taraqqiyotining asosi sanalgan ilm ahli, ilmni tarqatuvchi olimu fozillarni hurmat qilishga va ularning turmush darajasini yaxshilash masalalarig ham e`tiborni qartdi. Bugungi kunda hukumatimiz o`tmish merosimizga katta hurmat bilan munosabatda bo`lmoqda.

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, O`n besh tomlik, Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 13-tom, 1966, 192-193-betlar.

² O`sha kitob. 189-190-betlar.

Ko'plab san'atkorlarimiz xalqimizga qaytarilmoqda. Asarlari tadqiq etilmoqda. Bugungi kun nuqtai nazaridan o'rganilmoqda. Alisher Navoiy merosiga bo'lgan munosabat yana ham kuchaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 11 chaqiriq 1-sessiyasi 2-yig'ilishida Navoiyni yana ham kengroq o'rganishni, uning asarlarini xalqimizga sodda va tushunarli tarzda etkazish zarurligini uqtirdilar. Haqiqatan ham, Navoiy shaxsiyati, asarlarining yoshlarimizni ma'naviy etuk, har jihatdan mukammal qilib tarbiyalashdagi o'rni benihoyadir.

Navoiyning buyukligi nimada? Nima uchun unga qayta-qayta murojaat etamiz? Uning ulug'ligi ko'p va xo'p yozganligidami? Tafakkurining kengligidami? Yuksak amallarda ishlaganidami? Bu savollarning hammasi ham Navoiy buyukligining bir qirrasi. 200000 misra yozgan, 100000 misra yod biladigan, rang-barang janr va mavzularda asar yoza olgan shaxs ilohiy nurga erishgani shubhasiz.

Navoiy umrini xalq va yurtga bag'ishladi. U shoir, adabiyotshunos, donishmand, tarixchi, tilshunos, o'zbek adabiy tiliga asos solgan, ilm-fan homiysi, donishmand-qisqasi ulkan san'atkor.

Navoiy ijodiga qiziqish, o'rganish o'z davridan boshlandi. Navoiy hayoti va ijodini o'rganishdagi birinchi manba uning o'z asarlaridir. Uning barcha asarlarida, ayniqsa «Munshaoot», «Vaqfiya», «Xamsat-ul-mutahayyirin», «Xutbai davovin», «Majolisun nafois», «Muhokamatul-lug'atayn» kabi asarlarida hayoti va faoliyatiga doir ko'p ma'lumotlar bor. Ularda Navoiyning shaxsiy hayoti, ijodiy faoliyati, ayrim asarlarining yozilish tarixi, obodonchilik borasidagi ishlari, do'stlari, dushmanlari bilan bo'lgan munosabatlari va boshqa masalalar bayon etilgan.

Navoiy faoliyati va merosini o'rganishda zamondoshlarining asarlari ham muhim o'rin tutadi. Xondamirning «Makorimul-axloq», «Habibus-siyar» /«Suyukli xislatlar»/, «Xulosatul-axbor» /«Voqealarning xulosasi»/, Davlatshoh Samarqandiyning «Tazkirat-ush-Shuaro», Boburning «Boburnoma», Vosifiyning «Badoyiul-vaqoe» /«Go'zal voqealar»/ kitobi va boshqalar Shular

jumlasidandir. Ayniqsa, Xondamir asarlarida ko'p ma'lumotlar keltirilgan. «Makorimul-axloq»da Navoiyning hayoti so'nggi kunlarigacha bo'lgan davri, ijodi, davlat va binokorlik faoliyati, tug'ilishi, bolaligi, Husayn Boyqaro saroyiga kelishi va boshqalar tasvirlanadi. Asarda Navoiy hayoti bilan bog'liq kichik mutoyibalar, latifalar, hikoyalar ham beriladi.¹

Vosifiy «Badoeul-vaqoe» asarida Navoiyning mijozi, nazokati, latofati, nafsoniy shahvatning cheklanganligi, Mavlono Binoiy bilan munosabatlari, Pahlavon Muhammad bilan yaqinligi va boshqalar haqida yozadi.

«Boburnoma»da esa Navoiy shaxsiy hayoti, asarlari bilan bog'liq anchagina ma'lumotlar keltiriladi.

Bulardan tashqari, Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Xiradnomai Iskandar», «Bahoriston» kabi asarlarida ham ma'lumotlar bor. Navoiy keyingi asrlarda yaratilgan ko'pgina tazkira va tarix kitoblari va memuarlardan ham o'rin olgan. Lutf Alibek Ozarning «Otashkada», Som Mirzoning «Tuhfai Somiy», Faxriy Hiraviyning «Latofatnoma», Mirzo Haydar Dug'latning «Tarixi Rashidiy» asarlari shular jumlasidandir.

Navoiy hayotini o'rganishda xalq og'zaki ijodining o'rne ham katta. Navoiy haqida o'zbek, tojik, turkman va boshqa xalqlar og'zaki ijodida ko'plab ertak, afsona, hikoyatlar yaratilgan. /Bu jihatdan M.Jo'raev tomonidan tuzilgan «El desa Navoiyni...» kitobini eslash kifoyadir./

Navoiyning asarlari turli davrlarda xattotlar tomonidan hurmat bilan ko'chirildi. XIX asrning 70-yillarida O'zbekistonda bosmaxona paydo bo'lgandan keyin Navoiyning «Xamsa», «Chor devon», «Vaqfiya» va boshqa asarlari bir necha marta nashr etildi.

Navoiy asarlariga nazira bitish, g'azallariga muxammas bog'lash an'anaga aylandi. Yozuvchi Umar Boqiy Navoiyning «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» dostonlarining qisqartirilgan nasriy variantini ishlab chiqdi. Navoiy asarlari bo'yicha lug'atlar tuziladi. Xorazmlik Muhammad Xoksorning

¹ Rustamov A.Navoiyning badiiy mahorati.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1979. -2146.

o'zbek tilida yozilgan «Muntaxab-ul-lug'at» /«Tanlangan lug'atlar». 1798/ kitobi uchun Navoiy asarlari matniga keng o'rin berildi. Navoiy hayotining oxirida Yoki o'limidan bir oz keyin uning asarlari asosida «Badoyi-ul-lug'at», keyinroq esa «Lug'ati Navoiy» yaratildi¹.

Yevropaliklar XVI asrlardan boshlaboq Navoiy asarlari bilan tanisha boshlagan bo'lsada, Navoiy ijodini o'rganish asosan XIX asrda boshlandi. Fransuz Sharqshunosi Katrmer 1841 yilda bosilgan majmuasiga Navoiyning «Muhokamatul-lug'atayn» va «Tarixi mulki Ajam»ni kiritdi. Rus olimi I. Berezin «Turk xrestomatiyasi» kitobida Navoiy asarlaridan bir necha parcha berdi. Navoiy faoliyatini o'rganish Nikitinskiyning «Amir Nizomiddin Alisher, uning davlat va adabiyot sohasidagi ahamiyati» nomli magistrlik dissertatsiyasi /1856/ bilan boshlandi. U Navoiyni tarjimon shoir deb baho berdi. 1861 yilda Istambuldagi «Osiyo» jurnalida Belinning Navoiy haqidagi maqolasi bosilib chiqdi. U Navoiyni tarjimon dedi. Fransuz tarjimoni Bloshe Navoiy asari qimmatini pasaytirdi. Rus sharqshunosi Il'minskiy Navoiyning «Muhokamat ul-lug'atayn» asarini kengroq o'rganib, uni o'zbek tili uchun kurashchi sifatida tasvirlaydi. Bartold «Mir Alisher va siyosiy hayot» asarida «Navoiy taqlidchi shoir» degan fikrni takrorladi.

XX asrda Navoiyni o'rganishga jiddiy kirishildi. o'ziga xos navoiyshunoslik yuzaga keldi. O'zbek navoiyshunoslari, boshqa xalqlar olimlari Navoiy asarlarini o'rganish borasida ish olib bordilar. Professor Fitrat Navoiy asarlari, she'rlari, forsiy devon va g'azallari haqida tadqiqot yaratdi. Navoiy tug'ilganining 500 yilligi munosabati bilan 1941 yilda bir qancha ishlar amalga oshirildi Navoiy asarlari, dostonlari, Ayniy tomonidan «Xamsa»ning qisqartirilgan varianti nashrga tayyorlandi. «Chor devon», «Muhokamat ul-lug'atayn», «Mahbubul qulub» va boshqalar nashr etildi. Boshqa tillarga tarjima qilina boshlandi. 1939 yilda Olim Sharofiddinov «Alisher Navoiy» nomli ilmiy-ommabop asarini nashr ettiradi. 1940 yilda to'plam nashr etildi. Shayxzoda

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfası.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

«Genial Shoir» asarini nashr etdi. V.Abdullaev Navoiyning Samarqanddagi faoliyati haqida nomzodlik dissertasiyasi yozdi. Bertel's «Navoiy» monografiyasini yaratdi. Urush yillarida Oybek «Navoiy» romanini yozdi. Navoiy haqida doston, hikoya, dramalar yaratildi. O.Xo'jayev sahnada, R.Hamroev ekranda Navoiy rolini ijro etdilar.

1957 yildan boshlab 9 fevral Navoiy tug'ilgan kun sifatida o'tkazib kelinmoqda.

Navoiy hayoti va ijodi, asarlari matnini o'rganishda I.Sulton, she'riyatini o'rganishda H.Sulaymon, Shayxzoda, tarjimai holini o'rganishda A.Qayumov, Navoiy lirikasi, uslubi masalalari uning ijodi bilan bog'liq turli masalalar, bo'yicha A.Hayitmetov, «Xamsa» bo'yicha T.Jalolov, S.Hasanov, M.Afzalov, S.G'aniyeva, Navoiyning she'riyati, tili bo'yicha A.Rustamov, Navoiyning poetikasi bo'yicha Yo.Ishoqov va boshqalarning tadqiqotlari yaratildi.

O'zbek navoiyshunoslari safida N.Mallayev, A.Abdug'afurov, S.Erkinov, B.Valixo'jayev, R.Vohidov, N.Komilov, I.Haqqulov, S.Olim, N.Jumaxo'ja kabi etuk olimlarimiz ham bor¹.

Bugungi kunda Navoiy merosining yangi qirralari, diniy-tasavvufiy mohiyatiga e'tibor qaratilmoqda. Asarlarining to'liq nashri tayyorlanib chop etilmoqda. 2001 yil Shoir tavalludining 560 yilligi munosabati bilan ham ko'p ishlar amalga oshirildi.

Alisher Navoiy elimizning faxri va iftixoridir. Uning merosi 500 yildan ortiq vaqt mobaynida ko'plab kishilarning ma'naviyati, dunyoqarashi shakllanishida, barkamol avlodni tarbiyalashda muhim manba sifatida xizmat qilib kelyapti. Ulug' shoirimizning, qolaversa o'tmishda o'tgan ko'plab buyuk zotlarimizning merosi bugungi kunda chuqur e'tibor bilan o'rganilayotgani ham bejiz emas. Prezidentimiz I.Karimov asarlari, nutq va suhbatlarida bobokalonlarimiz yaratgan merosning bugungi kundagi o'rni va ahamiyati qayta-qayta ta'kidlanmoqda. Yosh avlodni kamol toptirishda ularning o'rni aniq

¹ Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-846.

qayd etilmoqda. Bu jihatdan hazrat Navoiyning, u kishidan bizgacha etib kelgan ulkan adabiy yodgorliklarning ham salmog'i yuksakdir. Xalqimiz mustaqillikkka erishgandan so'ng buyuk Shoirimizga yana ham bo'lakcha hurmat va ehtirom ko'rsatilmoqda. U kishi o'z davridayoq yuksak martabaga ko'tarilgan edilar. Zamondoshlari u kishining izzatini o'z o'rniga qo'ya bildi. Shoirlar, hukmdorlar, oddiy xalq Navoiy haqida ko'p va xo'p yozib qoldirganlar. Mirxond, Xondamir, Abdurazzoq Samarqandiy, Zayniddin Vosifiy, Jomiy, Husayn Boyqaro va boshqalarning fikrlari e'tiborlidir. Shoir va hukmdor Husayn Boyqaro «Risola»sida Shunday yozadi:

Erur so'z mulkining kishvaristoni,
Qayu kishvariston-xisrav nishoni.
Dema xisravnishonkim -qahramoni,
Erur gar chin desang sohibqironi¹.

XV asr jahon ma'naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hijriy 844 yil ramazon oyining 17-kuni /1441 yil 9 fevral'/da Hirotda tug'ilgan. Hirot shahri XV asr birinchi yarmida Amir Temur asos solgan ulug' saltanatning ikkinchi poytaxti, Temurning kenja o'g'li SHohruh Mirzoning qo'l ostidagi obod manzillaridan biri edi. Alisher tug'ilgan xonadon Temuriylar saroyiga azaldan yaqin va yurtda nufuz sohibi edi. Bo'lg'usi Shoirning otasi G'iyosiddin Muhammad o'g'lining tarbiyasiga jiddiy e'tibor beradi.

Professor N.Mallayevning ta'kidicha, Alisherni to'rt yoshida o'qishga beradilar. Uning Hirotdagi o'qishi ko'pga cho'zilmaydi. 1447 yil Shohruh vafotidan so'ng, toj - taxtuchun kurash keskinlashadi. Shu sabab Navoiylar oilasi Xurosondan Iroqqa ko'chib, Taft shahrida yashay boshlaydilar. Ali YAzdiy suhbatiga erishadi. Alisher zukko edi. Akademik V.Zohidovning yozishicha, «Alisher 3-5 yoshlarida fors adabiyoti klassiklarining ba'zi she'rlarini yaxshi yodlab, hamisha aytib yuradi. Navoiy o'zining «Majolisun-nafois» asarida yoshligini, bolaligini eslab o'sha vaqtlarda yodlab olgan bir fors baytini /mashhur shoir Qosim Anvariyning/ yodga olib aytadiki, «hali 3 yosh

¹ Navoiy A. Mahbub ul - qulub. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 1126

bilan 4 yoshni orasida erdim, azizlar o'qimoq taklif qilib o'qiganimdan keyin hayrat izhor qilurlar erdi».

1452 yilda Alisher oilasi Hirotga qaytib keladi. G'iyosiddin Muhammad Abulqosim Bobur saroyida xizmat qila boshlaydi. Ko'p o'tmay Abulqosim Bobur uni Sabzavorga hokim qilib tayinlaydi. Navoiy Hirotga qoladi. Sa'diy, Farididdin Attor asarlarini qayta-qayta o'qiydi. «Mantiqut-tayr»ni boshdan oyoq yod oladi. Navoiy yoshlik vaqtidan boshlab saroyda, davlat arboblari, olimlar, shoirlar orasida yashaydi.¹ O'n besh yoshlarida Abulqosim Bobur saroyiga ishga kirib, hukumat yumushini bajara boshlaydi. Adabiyot bilan shug'ullanadi. Fors, arab tillarini o'zlashtirib oladi. Ikki tilda she'r yozib, «zullisonayn» nomini oladi. Prof. M. Imomnazarovning qayd etishicha, «Alisherning she'riyatdagi ilk ustozlari tog'asi Mir Sayyid Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiydirlar». Navoiyning qaysi yoshdan she'r yoza boshlagani bahsli. Ammo 10-12 yoshlarida o'z she'rlari bilan peshqadam shoirlar e'tiborini qozongan edi. 12 yoshida keksa Mirshohiy bilan xat yozishgani buning dalili. Yoki Lutfiy bilan bo'lgan suhbat. 17-18 yoshlarida Kamol Turbatiy bilan tanishishi.

1456 yilda Abulqosim Bobur Husayn Boyqaro bilan Navoiyni Mashhadga olib ketadi, o'qishni davom ettiradi. 1457 yil Bobur vafot etadi. Husayn Marvga ketadi. Mashhadga qolgan Navoiy mantiq, falsafa, riyoziyot va boshqa fanlar bilan shug'ullanadi. «Navoiy» va «Foniy» taxalluslari bilan ijod qiladi. Sayid Hasan Ardasher bilan tanishadi. (1455-56) 18-19 yoshlarida Jomiy bilan tanishadi. Jomiy Navoiyni ham shogird, ham farzand deb biladi. Pahlavon Muhammad (She'r voqeasi Navoiy o'rniga Nasimiy deb o'qish), to'rtinchi do'sti Lutfiy.

Akademik V.Zohidov qaydicha, Navoiy 1464 yilda Hirotga qaytadi. «O'zbek adabiyoti» kitobining 2-tomida esa 1466 yil deb ko'rsatiladi. 1459 yilda Xuroson taxtini Abusaid egallaydi. 1466 yilda Abusaid Alisherni Bobur

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfası.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

so'zi bilan aytganda «ixroj»-surgun qiladi. Navoiy o'sha davr odaticha Temuriylarni ochiq tanqid qilmaydi. O'z munosabatini oshkor bildirmaydi. Shu sabab Abu Sayid haqida (u 1451-1569 yilgacha Samarqand, Xurosonda hukmronlik qilgan) pardali qilib so'zlaydi. Salbiy munosabatini Shu bilan ko'rsatadiki, «MN»ga (VII majlisga) uni kiritmaydi. (I.Sulton fikrlari). 1466-1468 yillar orasida Navoiyning umri asosan Samarqandda kechadi. /Navoiyning Samarqanddagi hayoti haqida V.Abdullayevning «Alisher Navoiy Samarqandda» nomli tadqiqoti bilan tanishish mumkin/. Navoiy otasining merosidan mahrum qilinadi. Iqtisodiy qiyinchilikda yashaydi. Samarqand hukmdorlaridan Ahmad Hojibek va Mahmud Tarxon kabilar unga har jihatdan yordam beradilar. Navoiy qiyinchilikda yashasada, oliyhimmatligini unutmaydi. Xondamir «Makorimul-axloq» kitobida bu haqida bir hikoya keltiradi. /Gadoy, unga Navoiyning oxirgi tangani berishi/. Olim Fazlulloh Abullays Navoiyga mudqarislik qiladi va uni o'ziga farzand deb hisoblaydi. Samarqandda bir qancha taniqli olimlar, san'atkorlar yig'ilgan edi. Mirzo Xoji Sug'diy, Sayid qutb Samarqandiy, Yusuf Safoiy, Shayxim Suhayliy kabi Shoirlar bor edi. Uloyi Shoshiydan dars oladi. Sakkokiy kabi Shoirlar merosi bilan tanishadi. Samarqanddagi madaniy hayot yuksalishiga hissa qo'shdi. Riyoziy, Yusuf Badiylarning ijodidagi kamchiliklarni ko'rsatib beradi.¹

1469 yilda Sulton Husayn iltimosiga ko'ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do'sti sharafiga bitilgan «Hiloliya» qasidasini unga taqdim etadi. Ikki kun o'tmayoq unga muhrdor lavozimini beradi. Ko'p o'tmay bu lavozimni do'sti Shoir Amir SHayxim Suhayliygga topshiradi. 1472 yilda vazir lavozimini egallaydi. «Amiri Kabir» unvonini beradi. Navoiy bu yerda yetuk ijodkorlarni to'playdi. Ularga homiylik qiladi. Jomiy, Said Hasan Ardasher, Mirxond, Xondamir, Behzod, Qulmuhammad, Amir Burhoniddin, Atoulloh Nishopuriy, Qozi IxtiYoriddin Hasan Turbatiy, Amir Jamoliddin, Asiliy, Abulvose` va boshqalar Shular

¹ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 46.

jumlasidandir. Xondamir «Makorimul-axloq»da shunday yozadi: «Bu hashamat egasi Amir sayid, olim va fozillara haddan ortiq va haddan ziyoda go'zal bog'lar va shodlikni ortdiruvchi joylar in'om qilgandir va ko'p miqdor yaxshi ekinzor yerlar va dilkash suvlik joylarni oliy hazratlarga va mahdumzodalarga, ham poklik pardasi orqali bezalgan joyda o'tiruvchilarga tortiq qilgandirkim, ularni hisoblash va sanash uchun kishi o'zining ojizligini e'tirof etadilar». Navoiy yaxshi o'qigan talabalar uchun nafaqalar tayin etadi.

1.3. Alisher Navoiyning asarlarida shaxs shakllanishiga oid g'oyalarini aks etishini.

Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Xalosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «SHifoia» shifoxonasi, masjidi Jome' yoniga qorixona qurildi. Ulug' amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirlar qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, ularni bezash bilan band edilar. Hirotda yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa binolar barpo etildi. Navoiy hayoti va faoliyati haqida ancha keng ma'lumotlar Xondamirning «Makorimul-axloq» asarida keltirilgan. Asarda Navoiyning tarjimai holi to'la berilmasada, Navoiy obrazi to'laroq chiqqan. Asarda Navoiy harakati, fe'l-atvori, dunyoqchashi, ruhiyati, odat va e'tiqodlariga oid juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Asarda Navoiyning bino qurilishlariga bevosita ishtirok etishi, ustalar, mardikorlar bilan hazillari, Navoiydagi yumor, hozirjavoblik, o'tkir aql tasvirini ko'ramiz. Muallif Navoiy hayoti bilan bog'liq juda ko'p hikoyatlar keltiradiki, bular Shoir xarakteridagi ko'ngilchanglik, yumshoqlik, rahmdillikni ko'rsatadi.¹ Masalan: Navoiyning chodiriga uya qurgan musicha, kiyimiga ilashgan chumoli haqidagi hikoyatlar.

¹ Qodirova M. O'zbek shoiri nashriyotida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 46.

Shuningdek, ushbu asarda Navoiy tomonidan bunyod etilgan binolar alohida sanab ko'rsatiladi. Madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, hovuzlar, ko'priklar, hammomlar va boshqalar. Ba'zi manbalarda Navoiy tomonidan bunyod etilgan binolar soni 200 dan ortiq deb ko'rsatilsa, akademik V.Zohidov ularni 370 ga yaqin deb ko'rsatadi. Bulardan tashqari, Xondamirning ma'lumotiga ko'ra "Xalosiya" xonaqohi yonida musofir va qashshoq kishilarga ovqatlar va har yili 2000 ga yaqin po'stin, chakman, ko'ylak, kovush va boshqa kiyimlar ulashilar ekan.

Navoiy suvsiz yerlarga suv chiqarish ishiga katta ahamiyat beradi. Tus viloyatining Chashmai Gulist bulog'idan Mashhadga suv keltirish uchun 70 km yaqin masofada ariq qazdiradi.

Husayn Boyqaro saroyida har xil odamlar bor edi. Mansabparastlar, ochko'z, ig'vogar kishilar uchrar edi. Majdiddin, Nizomulmulk kabilar Navoiyga yaxshi munosabatda bo'lmaydilar. U haqda Husayn Boyqaroga noto'g'ri, bo'hton gaplar yetkazib, podshoh ko'nglida Navoiyga nisbatan shubha uyg'otishga harakat qiladilar. Navoiy bir necha marta vazirlikdan ozod etishni so'rab Husayn Boyqaroga murojaat qiladi. 1476 yilda Navoiy vazirlikdan ozod qilinadi. Podshoh Navoiyga hurmat bilan munosabatda bo'laveradi.¹ U Navoiyning katta siyosiy arboblik qobiliyatini ko'zda tutib, 1480 yilda mamlakat poytaxti Hirotning hokimi qilib tayin etadi. Navoiy vazirlikdan bo'shagandan to 1487 yilgan qadar Hirotida bo'ladi. Davlat ishlariga aralashib turadi. Asosan ilmiy va ijodiy ishlar bilan shug'ullanadi.

Navoiy xarakteri, fe'l-atvori, mamlakat va xalq ishlariga munosabati, dushmanlariga bo'lgan muomalasi va boshqalar Oybekning «Navoiy» romanida chuqur yoritib berilgan. Uni o'qib chiqish har birimizning burchimizdir.

Umuman, Navoiyning o'rni, mavqei hamma davrda ham yuksakligicha qolaveradi. Bobur yozadi: «Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytibturlar, hech kim oncha ko'p va xo'b aytkon emas...

¹ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 46.

Ahli fazl va ahli hunarga Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lgay». Davlatshoh Samarqandiy esa, Navoiydek kishilarni insoniyat faqat bir necha yuz yilda bir marta ko'rishini gapiradi. "Xamsa" – beshlik- 5 ta mustaqil dostonidan iborat bo'lgan yaxlit asar sanalib, har bir doston ma'lum bir mavzu voqealarni atroflicha va keng usulda masnaviy yo'lida yoritib beradi. Sharq adabiyotida bu an'anani buyuk Ozarbayjon shoir Nizomiy Ganjaviy boshlab bergan. Uning "Xamsa" si quyidagi dostonlardan iborat edi:

1. "Maxzan ul-asror" (1173-1179).
2. "Xusrav va Shirin" (1180-1181).
3. "Layli va Majnun" (1188).
4. "Haft paykar" (1196).
5. "Iskandarnoma" (1196-1201).

28 yil davomida yozilgan bu 5 doston "Panj ganj" nomi bilan shuhrat topadi.

Oradan 100 yil o'tgach, asli Shahrizabzlik bo'lgan, mug'ul yag'mosi davrida Hindistonga borib qolgan Xusrav Dehlaviy Nizomiy ishini davom ettirdi. U 1299-1301-yillarda "Matla' ul-anvor", "Shirin va Xusrav", "Layli va Majnun", "Hasht behisht", "Oyinai Iskandariy" dostonlarini yaratdi va Sharq adabiyotida xamsachilik an'anasining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi¹. An'anaga ko'ra, har bir asar "Xamsa" deb atalmog'i uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi kerak:

- 1) beshta dostonidan tashkil topishi;
- 2) 1- doston pand-nasihat ruhidagi ta'limiy-axloqiy, falsafiy bo'lishi;
- 3) 3-doston Xusrav va Shirin mojarolariga bag'ishlanishi;
- 4) 3- doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olishi;
- 5) 4- doston Bahrom, 5 doston Iskandar haqida bo'lishi shart edi.

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfası.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

Xusrav Dehlaviydan keyin xamsachilik anʼanasini ishqiy-axloqiy, tasavvufiy mavzularda dostonlar yaratgan Eron shoiri Xoju Kirmoniy davom ettirdi. Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asarida aytilishicha, uning asari “Xamsai Xoju” deb nomlangan.

XV asrga kelib ikki buyuk xamsanavis maydonga chiqdi. Bular Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar edi. Abdurahmon Jomiy keyinchalik “Xamsa” siga yana ikkita doston qoʻshib, uni “Haft avrang” (“Yotish taxt”) deb ataladi:

1. “Silsilat uz-zahhob”
(“Oltin silsila”)
2. “Solomon va Absol”
3. “Tuhfat ul-ahror”
(“Hurlar tuhfası”)
4. “Sahat ul-abror”
(“Poklar tasbehi”)
5. “Yusuf va Zulayho”
6. “Layli va Majnun”
7. “Xiradnomai Iskandariy”

Alisher Navoiy “Xamsa”si XV asrdagi xalqimiz maʼnaviy taraqqiyotining koʻzgusi boʻlib, unda oʻsha davr ijtimoiy turmushi, xalq hayoti, urf-odatları, din-diyonat, axloq-odob haqidagi qarashlar oʻz aksini topgan. Navoiyning “Xamsa” si boshqalardan farqli ravishda turkiy tilda yozildi, nafaqat oʻzbek, balki umumturkiy adabiyotning ham yuksak choʻqqisi boʻlib qoldi. Turkiy adabiyotda Qutb va Haydar Xorazmiylar boshlab bergan xamsachilik anʼanasi Navoiy ijodida oʻz takomilini topdi.

Navoiy “Xamsa” sining yaratilishi XV asrda Xuroson eli uchun favqulodda shodumonlik va saodat sifatida qabul qilindi. Abdurahmon Jomiy va Husayn Boyqaroning hayrat va yuksak eʼtirofi ushbu haqiqatga dalildir. “Farhod va Shirin” dostoni “Xamsa” ning 2 dostoni boʻlib, unda Navoiyning

mukammal inson haqidagi orzu-o'ylari Farhod timsolida o'z ifodasini topgan. Navoiy ishqni inson hayotining mazmun-mohiyati, deb hisoblaydi va ushbu dostonda insoniy ishqning ilohiy ishqqa yetishdagi vositachiligini ko'rsatishga harakat qiladi. Dostondagi har bir ifoda obrazda lavha va timsollarda muayyan umumfalsafiy, ilohiy ma'no bor. Buni shoir doston muqaddimasidayoq qayd etib o'tadi:

Bu rangin sahfa, bilkim, dard bog'i,
Ayon har lolasida ishq dog'i.¹

ya'ni, maqsad ishq dardini kuylash. Biroq bu oddiy, zaminiiy ishq emas, balki ilohiy ishqdir. Farhod esa shu ilohiy ishqqa muhtalo solikdir. "Farhod" so'zining asl ma'nosi yo'l boshchi, demak. Ammo Navoiy bu nomning arab yozuvidagi harflariga ramziy tus berib, u *firoq*, *rashk*, *hajr*, *oh*, *dard* dan iborat, deb aytadi. Chunki ilohiy ishq yuragiga olov solgan odamning nasibasi hijron qiynoqlari; u o'zi bilan iloh orasida to'siq bo'lib turgan dunyo va jismdan qutilish iztiroblarini chekish shart. Hoqon doimiy egaligin, hazin yurgan o'g'lining ko'nglini ko'tarish maqsadida har xil tadbirlar qo'llaydi (tomoshalar uyushtiradi, 4 ta qasr qurdiradi, tabibga ko'rsatadi). Bu orqali Navoiy ilohiy ishq dardida yongan odam bilan "foniiy dunyo" kishilari o'rtasidagi farqni ko'rsatib bergan. Farhodning o'zligini anglashi uchun zo'r qobiliyat bilan egallagan bilimlari, Qoran va Moniydan o'rgangan hunarlari kifoya qilmaydi. U suluk yo'liga kirib, ma'rifat manzillarini bosib o'tishi lozim. Farhodning hoqon xazinasidagi ko'zguni bilur sandiqdan ololmay Yunoniston safariga Suqrot huzuriga o'tlanishiga zarurat shundan kelib chiqqan. Farhod avval Sulayho bilan uchrashadi. ²Sulayho – Farhodning tariqat yo'lidagi birinchi piri, u Suqrot darajasida komil emas. Oina sehrini ochishga qurbi yetmaydi. Ammo Farhodga

¹ Navoiy A Xamsa. - T.: O'zFA nashriyoti, 1960. - 8546.

² Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasini. - T.: G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

Suqrotga borish yo'lini ko'rsata oladi. Sulayho Farhodni yengib o'tishi kerak bo'lgan to'siqlarlar-ajdaho va devdan xabar beradi. Ajdaho-nafs timsoli, dev-saltanat (hokimlik) ramzi. Sulayho aks dahoni yengib o'tish uchun samandar yog'ini beradi. U ishq ramzi Farhod badaniga samandar yog'ini surtganda ajdahoning o'ti unga kor qilmaydi. –Ishq otashi nafs o'tishini so'ndiradi, demoqchi Navoiy. Farhod ajdaho zulmidan omon qoldi, devni o'ldirdi. Jamshid jomini qo'lga kiritdi. Jom Farhodning musaffo qalbi ramzidir. Bu Farhodning suluk tadrijida muayyan martabaga erishganidan nishona edi. Demak, Farhodning irfoniy bilimi oshdi, ruhiy olami boyidi, ammo ko'zgu sehrini ochishga bu hali yetarli emas. Shuning uchun tilsimlarga to'la tog' oralig'ida yashovchi Suqrot tomon intiladi. Suqrot yashaydigan tog' oralig'idagi g'orga yaqinlashar ekan, sher va temir paykar-robotga duch keladi. Sher g'azab timsoli, g'azabkorlik podsholarga xos, darveshlarda g'azab bo'lmasligi kerak. Temir paykar-riyo, yolg'on timsoli, ayni paytda dunyo mo'jizalari ramzi. Dunyo mo'jizalariga mahliyo bo'lgan odam ilohga yetolmaydi, chalg'iydi. Farhod sherni ham, temir paykarni ham yengib, Suqrot huzuriga shoshiladi. Suqrot-kamolot cho'qqisini egallagan komil inson. O'zi bir joyda tursa ham, ruhi butun dunyoni kezib chiqqan. Suqrot Farhodga dunyoning tuzilishi, odamzod xilqati va vazifasi, vahdat asrori, fano va baqo, ishq haqiqiy va ishq majoziy xususida gapirib beradi. Farhod Suqrotga borar yo'lda ma'rifatning bir qismi-maqomat manzillarini bosib o'tib, o'zligini va ilohiyotning sehru sinoatini taniy boshladi. Yurtiga qaytib, sehrli ko'zguda Shirinni, o'zini va boshidan kechirajak voqealarni ko'rgan Farhod chinakam Majnun oshiqqa aylanadi. Endi avvalida yashirin bo'lgan ishq oshkora tus olib, Farhod hol martabasiga ko'tariladi.

Dengiz safari, qaroqchilarga qarshi jang, dashtu vodiylarda sargardon kezish, tog' kesib suv chiqarish-bularning hammasi ramziy ma'noda oshiqning majoziy ishq yo'lidagi chekkan ruhiy azoblari, hajr qiynog'i. Asardagi Xisrav timsoli ham ilohiy ishqdan mahrumlik, dunyoviy zulm ramzidir. U Farhodga juda ko'p zulm o'tkazadi. Kuch bilan, aqli donish bilan yengolmasdan

makkorlik bilan qo`lga oladi. Tog`lar orasidagi Salosil qo`rg`oniga qamab qo`yadi. Bu tasavvuf \*\*\* ma`noda solikning hol maqomidagi ruhiy manzaralaridir. Shirinni ko`rganda o`zini unitishi, zanjirdan ozod bo`lganda ham Xisravga qarshi chiqmasligi-solikning jismini unuta boshlashi va fanoga yaqinlashuvidan dalolat beradi. Farhod va Shirinning vafot etishi ikki ruhning moddiy dunyo zindonidan qutilib, ilohiy visolga erishuviga ishoradir. Alisher Navoiy so`fiyona g`oyalarni biz aytgandek bayon etib, ketganda, his-hayajon, kechinmalar to`lqinini ifodalovchi asar yuzaga kelmagan bo`lardi. Shoir falsafiy-tasavvufiy ma`noni hayotiy material orqali badiiy talqin qilgan.

Adabiyot olamida 13 asrdiki sevgi haqidagi “Layli va Majnun” deb nomlangan dardli va g`amgin mavzuda she`r va doston bitilib kelinadi. Navoiy “Xamsa” sining uchinchi dostoni ana shu sevgi qissasi haqidadir. O`zbek adabiyotida bu mavzuni Navoiy boshlab berdi:

Men turkcha boshlabon hikoyat,
Qildim bu fasonani rivoyat,-deydi shoir¹.

Navoiy o`z dostonida ruhiyat tasviriga katta e`tibor beradi. Asar voqealarining tun tasviridan boshlanishi, Qaysning beshikdagi nolasidayoq ishqdan xabar borligi, Ka`baga olib borilgan Majnunning xalqa-xalqa ko`z yosh to`kib ishq o`tini ko`paytirishini so`rab yolvorishi Navoiy dostonining ob`ektivligidan dalolat beradi.

Navoiy bu dostonda pok muhabbat pokiza insonlar qalbidan joy olishi mumkin, degan g`oyani ilgari surib, “Haqiqat asrorini majoz tariqi bila” ko`ylaydi. Dostonning mohiyatini majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanishini obrazlar vositasida ko`rsatib berish tashkil qiladi. Majnun ishq bu borada oliy namuna, chunki u butun vujudi, jonu dili ila Ilohni sevadi. Ayni vaqtda esa shafqat-muruvvati, najib axloqi-yu beqiyos iste`dodi bilan eng go`zal insondir. Majnun zamon va makondan tashqari samoviy ishq ramzi. Dostonda ikki

¹ Navoiy A Xamsa. - T.: O`zFA nashriyoti, 1960. - 8546.

qutb-ishq va ishqsizlik tasviri bobdan bobga rivojlanib boradi. Shoir yangi-yangi g'oyalar, obrazlar kiritib, o'z g'oyalarini ifodalab boradi. Qaysning otasi bir qancha choralar bilan o'g'lini bu yo'ldan qaytarmoqchi bo'ladi (tabiblarga ko'rsatadi, Ka'ba ziyoratiga olib boradi, qo'l-oyog'iga kishan soladi). Bu choralar hech qanday foyda bermagach, Navfal Majnunga ko'mak bermoqchi bo'ladi va Layli qabilasi ustiga qo'shin tortadi. Majnun buni qat'iyon rad etgandan keyin qizini Majnunga nikohlab beradi. Ammo Majnun Layli-Ruhi Mutlaq ishqida yonadi.¹ Layli vafotini eshitgan oshiq bir ilohiy kuch bilan Layli qabilasi tomon yuguradi va vafot etadi.

Ishq qissasi shu tarzda poyoniga yetkaziladi. Umr bo'yi bir-birining vaslida, ishqida kuygan, bu dunyoda bir-birining diydoriga to'yolmaganlar ruhi mutloq sari ravona bo'ladilar. Navoiyning fikricha, har bir odam oshiqlik yo'lini tutib, ishq tarixiga kirib, o'zini o'linga emas, balkim vasl mayini ichishga tayyorlashi kerak. Bu dunyoning birdan-bir mazmuni ham shu, demoqchi shoir.

“Sab'ai sayyor” “Xamsa” ning to'rtinchi dostoni bo'lib, ishqiy sarguzasht xarakterdadir. Bahrom-asarning bosh qahramoni; Sharqda Mars yulduzining nomi, arabchasi-Mirrix. Bahrom ko'pincha jangu jadallar, fitnayag'molar timsoli sifatida keladi. Tarixchilar bu nomni Eronning sasoniy hukmdori Varaxran nomi bilan bog'laydilar. Bahrom birinchi bo'lib Firdavsiy “Shohnoma” sida tasvirlanadi. Nizomiy Ganjaviyning “Haft paykar”i, Xusrav Dehlaviyning “Hasht behisht” ida ham bosh timsol sifatida talqin qilingan.

Navoiy o'zigacha yozilgan Bahrom haqidagi dostonlarni sinchiklab o'qib chiqqan. An'anaga ko'ra, “Sab'ai sayyor”ni oldingi dostonlardek hafif bahrida yozdi. Biroq ustozlarining hurmatlarini o'z o'rniga qo'ygan holda ularga e'tirozlar bildirdi va syujetga jiddiy o'zgarishlar kiritdi.

Doston 38 bob, 5000 baytdan iborat bo'lib, asar voqealari 12-bobdan boshlangan. Yetti iqlim shohi Bahrom Moniy chizgan suratdan xitoylik

¹ Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 46.

savdogarning qizi Diloromni ko'rib, sevib qoladi va Xitoyning bir yillik xirojini to'lab, qizni saroyga keltiradi. Ovdagi kiyik voqeasidan keyin Diloromni qo'l-oyog'ini bog'lagan holda cho'lga tashlab keladi. O'ziga kelgandan keyin Diloromni topa olmagan shoh ayriliqdan o'zini yo'qotib qo'yadi. Uzlatga beriladi. Hakimlar tavshishga tushadilar. Bahromdagi savdoiylilikni daf etmoq uchun yetti iqlim shohi yetti qasr quradi. Moniy ularni yetti xil rang bilan bezaydi. Yetti iqlim shohi qizlarini Bahromga nikohlab beradilar. Shoh farmoniga ko'ra, yetti iqlim yo'lidan kelgan yetti musofir yetti kun davomida hikoyat so'zlaydi. Juma kuni oq qasrda xorazmlik musofir aytgan hikoyatda Dilorom haqida xabar bor edi. Shoh Diloromni topgandan keyin yana aysh-ishratga beriladi. Bir kun ov vaqtida eski bir botqoqlik ustiga juda ko'p qo'shin va hayvonlar jam bo'ladi. Sharros yomg'ir quyadi. Xaddan tashqari ko'p qon to'kiladi. Natijada shoh Bahromni, Diloromni, butun arkonu davlatni yer yutadi.

Navoiy Bahrom timsolida oshilik va shohlikning bir tanga sig'masligini ko'rsatadi. Hikoyalarning berilishi va qasrlarning qurilishini ham Bahrom hayoti va taqdiri bilan mantiqan bog'lagan. Shuningdek, shoir asar voqealarini, hikoyalarni ham Xurosonu Movarounnahr bilan bog'laydi. Shahrisabz va Xorazm haqida maxsus hikoyatlar kiritadi. Dostonning 37-bobida Navoiy tush voqeasini olib kiradi va bu bilan Husayn Boyqaroga ta'sir ko'rsatishni niyat qiladi. Shoir dostonni shunday misralar bilan yakunlaydi:

Xalqqa zebi torak ayla ani!

O'qig'ang'a muborak ayla ani!

Yetti aflokni anga yor et!

Yetti iqlim elin xaridor et!¹

¹ Navoiy A. Mahbub ul - qulub. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 1126.

“Saddi Iskandariy” Navoiy “Xamsa” sidagi eng yirik doston. U 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Sharqdagi mashhur siymolardan biri jahongir Iskandarga bag’ishlangan. Bu mavzuni sharq adabiyotida birinchi bo’lib, Firdavsiy qalamga olgan, so’ng Nizomiy Ganjaviy u haqda “Iskandarnoma” degan ikki qismdan iborat doston yaratdi. Xusrav Dehlaviy “Oinai Iskandariy” dostonida Iskandarning ilm-ma’rifat egasi bo’lganligiga diqqatni qaratadi. Abdurahmon Jomiyning Iskandar haqidagi dostoni “Xiradnomai Iskandariy” deb yuritiladi. Jomiy ham mavzuning axloqiy-didaktik jihatlariga katta e’tibor berdi. Iskandarning Arastudek jahoniy olim tarbiyasini ko’rganligiga diqqatni jalb qildi. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni Abdurahmon Jomiyning “Xiradnomai Iskandar” dostoniga tatabbu’ tarzida yaratilgan. Iskandar haqidagi kitoblarda uning odamxo’r ya’jujlardan saqlanish uchun ulkan bir devor qurdirgani aytiladi. Bu devor Qirvon o’lkasida Qof tog’ida ekan. Bu devorning tarixan qay darajada aniq va to’g’riligi haqida bir narsa deyish qiyin. Lekin uning katta ramziy ma’nosi bor. U ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi devor. Uni barcha xalqlar birgalashib quradilar. Navoiy shu tariqa Iskandarning jahongirlikiga emas, insonparvarligiga diqqatni tortadi¹.

Shoirning fikricha, Iskandarda to’rt sifat-to’rt maqom mujassam. Bular: shohlik, hakimlik, valilik va nabilik.

Garchi shohlik Iskandar taqdirida yozilgan bo’lsa ham bunga u chuqur bilimi, hikmat va falsafadan xabardorligi, ma’naviy-axloqiy kamoloti tufayli erishadi. Navoiy tasvirida Iskandar dunyoga dahshat solgan, qirg’inbarot janglar, talon-taroj bilan xazina to’plagan jahongir emas, balki u dunyoni hikmat bilan olib, adolat va tadbir asosida boshqarish namunasini ko’rsatgan kishi. Arastu, Aflotun kabi o’nlab ilohiy hakimlar unga maslahat berib, ilmu donish o’rgatdi va ilmni amaliyotga tatbiq etdi.

¹ Navoiy A. Asarlar, O’n beshtomlik. XVtom. -T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. - 248v.

Iskandar orifona suhbatlarni berilib tinglaydi, olamga orifning basirat ko`zi bilan qarab, Olloh sirini, uning zot va sifatini anglay boshlaydi. Xalq ham uning siymosida shohlik, hakimlik, valilik, nabilik aks etganini ko`rib turardi:

Bilib xalq shohi muzaffar oni,
Hakimu valiyu payg'ambar oni.¹

Asarda dunyo, molu- mulk, taxtu toj bir kunlik tashvish va g'amingga arzimaydi, degan hikmat boshdan oxir hukmron. Asar voqealarining boshlanishida berilgan darvesh maslagini qabul qilgan shahzoda hikoyasi (1-hikoyat, 1-hikmat) bilan asarning oxirida Luqmon hikoyasi bir-biriga hamohang. Luqmon ham dunyo va uning boyligi ulug' va ilohiy ma'naviyat oldida arzimasligini uqtiradi.

Alisher Navoiy Sharqda mashhur bo'lgan xamsachilik an'anasini davom ettirar ekan, avvalambor, salaflarining tajribalariga tayanadi. Nizomiy Ganjaviyning "Maxzan ul-asror" dostoni ruhida "Hayrat ul-abror" asarini yaratadi. Xusrav Dehlaviyning "Xisrav va Shirin" dostonidan ilhomlanib, "Farhod va Shirin" dostonini yozadi. Xoju Kirmoniyning "Gavharnoma" siyo'lida "Layli va Majnun" dostonini, Sharqda keng tarqalgan "Bahrom Go'r" afsonasi asosida "Sab'ai sayyor" dostonini va Jomiyning "Xiradnomai Iskandariy" dostoniga tatabbu' sifatida "Saddi Iskandariy" dostonlarini yaratadi. Yana bir e'tiborli jihati shundaki, Navoiy qaysi dostonga javob yozayotgan bo'lsa o'sha asarning vaznini saqlab qolishga ham harakat qiladi. Ammo shoir har bir dostonga yangiliklar kiritadi, salaflarining ayrim kamchiliklarini tuzatadi. Masalan, "Farhod va Shirin" dostonida boshqa xamsanavislar singari Xusravni emas, Farhodni bosh obraz qilib oladi. Chunki Navoiyning fikricha Xusrav Shirin muhabbatiga munosib emas. U komil inson bo'lolmaydi, uning ishqiqi beqaror. Qolaversa, Xusravda taxt ishqiqi ham bor. Shu sababli dostonga Farhod markaziy qahramon qilib olingan.

¹ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 1993. - 2086.

Sanga bu teshavarlik bo`lsa matlub,
Erur Farhod hamsuhbatlig'i xo`b,-

deydi shoir. Yoki Bahrom sarguzashtlari haqida hikoya qiluvchi “Sab`ai sayyor” dostoni ham boshqa xamsanavislarning dostonlaridan tubdan farqlanadi. Bu obrazni adabiyotga dastlab Firdavsiy olib kirgan. Nizomiy va Dehlaviylar u haqida maxsus doston yaratganlar. Navoiy salaflariga cheksiz hurmatini izhor etadi, ammo ularning dostonlaridagi syujetga keskin e`tirozini ham bildiradi va afsonaviy voqealarga jiddiy o`zgarishlar kiritadi.

1. Biri bukim yo`q anda moyai dard,
Qildilar ishq so`zidin ani fard.¹

Bahromning qasrlar qurishi, malikalarni keltirishi, dunyo ne`matlaridan to`ymasligining bosh sababi nimada? Nega u bunchalik beqaror? Uni boshqaradigan kuch nima? Shoirning fikricha, u ishqdan xoli qilingan. Birinchi nuqson shu.

2. Yana biri bukm anda ba`zi ish
Zohiran nomunosabat tushmish.

Bahromning 7 qasr qurib, 7 malikadan afsona eshitib, uxlashi asossiz, deydi shoir. Agar afsona aytish zarur bo`lsa, boshqa qissaxon yo`qmidi? –degan savolni qo`yadi.

Bo`yla nodon uchun yozib avsof,
Anga qilgaylar o`zlarin vassof.

Ana shunday bir nodon, haqiqiy ishqdan bexabar kishi uchun doston yaratib, o`zlari bir maddoh bo`lib qoldilar, deydi shoir.

Navoiy Bahrom obraziga juda katta ma`no-mazmun yuklaydi. Uning timsolida oshiqlik va shohlikning bir tanga sig`masligini ko`rsatadi. Bahrom oshiq bo`lgach, mamlakat ishlarini tamoman unutadi:

Ishq ila shohlig' muvofiq emas

¹ Rustamov A.Navoiyning badiiy mahorati.-T.:Adabiyot va san`at nashriyoti, 1979. -2146.

Ishq lofida shoh sodiq emas.

Qasrlarning qurilishi va hikoyalarning berilishi Bahrom hayoti va taqdiri bilan mantiqan bog'lanadi.

Uchinchidan, buyuk shoir asar voqealarini, hatto hikoyalarni ham Xuroson, Movarounnahr hayoti bilan bog'lashga harakat qiladi. Bu holat "Xamsa" ning boshqa dostonlarida ham uchraydi. Masalan, "Saddi Iskandariy" da Samarqand va Hirotning bino qilinishicha alohida to'xtaydi¹.

Navoiy o'z oldiga qo'ygan maqsadini sharaf bilan ado etdi. Shoirning "Xamsa" ni yaratish uchun ishlagan kunlari hisobga olinsa, 54 ming misralik o'lgan obida 6 oyda bitkaziladi. Olimu fuzalolar turkiydagi birinchi "Xamsa" ni zo'r olqish bilan kutib oladilar. Asar o'z davrining mashhur shoirlari e'tirofini qozonadi. Husayn Boyqaro va Abdurahmon Jomiylarning yuksak bahosi va ehtiromi bunga misoldir. Turkiy tilda "Xamsa" yaratish bilan Navoiy turkiy til va adabiyotni jahoniy miqyosga olib chiqdi. Uning "Xamsa" sidagi dostonlar esa turkiy adabiyotda ko'plab naziralar yozilishiga sabab bo'ldi.

II. Bob. ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MA'NAVIY-AHLOQIY G'OYALARNI AKS ETISHI.

2.1. Alisher Navoiyning bag'rikenglik to'g'risidagi g'oyalari

Bugungi kunda xar bir insondan bilimli va ongli bulish talab etiladi. Bilim, ongning usishi ma'naviy xayotimizning tarakkiyotiga okilona yondoshishga undaydigan omil. Bilim ukish - urganish orkali rivojlanadi, bilimli odamga ong tarakkiy eta boshlaydi.

Natijada ular ukigan narsalarida kurib kuzatayotgan vokea xodisalardan tugri xulosa chikarib, uz xulk -atvorlariga bor bulgan salbiy xususiyatlarni bartaraf kiladilar. Ijobiy xislatlar esa tobora rivojlanib axlokan barkamol bula boshlaydilar. Demak, odob – axlok xam ilmdir. Uni ukish, yozish, kuzatish va

¹ Haqkulov I. Tasavvuf va she'riyat. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-846.

nasixatlar eshitish orkali amalga oshirish mumkin. Ushbu ma'noda allomalarimiz merosini urganish. Ulardagi pand-nasixatlar, durdona suzlar, xikmatli va ibratli xikoyalardan oziklanib, ma'naviy jixatdan yuksalish mumkin. Ayniksa bu bebaxo merosdan ta'lim – tarbiya jarayonida tugri foydalana olish katta axamiyat kasb etadi. Bugungi mavzuning dolzarbligi xam ana shundadir.

Inson zoti paydo bulibdiki, kuli ishga, tili suzga kelib bir-biri bilan muomila kila boshlagandan beri. Bu ajoyib, sexrli, chigal, butun mavjudod sirlaridan iborat dunyoda tinib tinchimay yashash darsini ukiydi, ibrat oladi va uzlariga urgatadi. Birok bu dars, bu ilm tuganmas va xududsizdir. Eng buyuk allomalaru-donishmandlar umrini ilmu – fanga bagishlab, jaxon kezib, dunyo-dunyo kitob ukib bu yorug olamdan ketar chogi: «Xayot ilmini chukur egalladingizmi?» degan savolga: «Xech narsa bilmay katayapmn» - deganlar. Ne ajab xayot ilmi sirli va murakkabki, uni mukammal anglab etmokka nafakat bir inson, balki butun insoniyat umri xam etmaydi.

Xattoki: Karo er karidan to avzni Zuxal,
 Koinot sirlarin barin kildim xal.
 Kup mushkul tugunni angladim, echdim.

Engilmay kolgani birgina ajal.

Degan Xayyom xam oxir okibatda yozadi:

Dilim ilmlardan maxrum bulmabdi,
Bir sir kolmadi mavxum bulmabdi.
Tunu – kun uyladim 72 yil.
Ngladim xech narsa ma'lum bulmabdi.¹

Ammo insoniyat tafakkuri, ilmi, tajribasi tobora takomillashib boradi, chunki u meros koladigan bobolar xikmati, otalar suzi va pand-ugitlaridan foydalanadi. Rivoyat, xikmat, ugitlar, pandnomalar biz uchun asrlarning sadosi, uzok utmish bilan xamnafaslik xissini uygotuvchi mangu chakirik, zamonlararo oltin kuprikdir. Xr bir xalk asrlar davomida kuplab xayotiy tajribalar tuplaydi va

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasi.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

ularni turli vositalar bilan kelajak avlodlargsha meros kilib koldiradi. Makol, masal va xikmatli suzlar ma'naviy merosimizning duru – gavxari xisoblanadi. Dunyoda xikmat durdonalari yaratmagan, ularni asrlar osha kuz korachigiday asrab avaylab, saykal berib, dilida, tilida saklab kelayotgan biror xalk yuk. Jaxon ma'naviyat- madaniyati ravnaki uchun Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sin, Abu Rayxon Beruniy, az-Zamaxshariy, Mirzo Ulugbek, Alisher Navoiy, Bobur mirzo singari kuplab buyuk olim va mutafakkirlar ulkan xissa kushadilarki, ular allomalarni etishtirib bergan xalkimizning madaniyati, donishmandligini, umuman kamolotini butun dunyo jamoatchiligi kadimdan e'tirof etib kelgan, ular yaratgan asarlar donishmandlik mash'ali, xayot xikmati bulib xizmat kilmokda.

Xush, xikmat nima? Xikmat suzining lugoviy ma'nosi - uta donolik, akl zakovat bilan okilona aytilgan, «Mixlab kuyilgan, bekitilgan», «Uzgartirib bulmas darajada» kuyib kuyilgan chukur ma'noli gap demakdir. Xikmat aklning kaymogi, suzning kayrogi. Xlak ijodining uziga xos bulgan bu uslubi ogzaki nutkda xam , yozma adabiyotda xam turli xil atamalar: makol, matal, nakl, masal, zarbulmasal, xikmatli so'z, ibora, ta'bir, aforizm, otalar suzi, ota-bobolarimizdan kolgan so'z, mashoyixlar suzi, donolar suzi, donishmandlar suzi, okillar suzi, kadimgilar suzi, burungilar suzi, ilgari utgan yaxshilar suzi va shu kabilar bilan gomlanadi.

Kim bilan kanday muomila kilmokni bilish xam odobdan. Bu xakda «Kattani-katta bil, kichikni -kichik» degan nakl bor¹. Ota – bobolar aytgan bu makolda kattalar bilar kichik yoshdagilar, ota-onalar bilan bolalar, akalar bilan ukalar, opalar bilan singillar urtasidagi uzaro munosabat kanday bulishi lozimligi uktiriladi. «Kattaga kattalarcha bul, kichikka kichiklarcha». Bu xikmatning sharxi: «Kattalar orasida bulganingda ularni izzat-xurmat kil, pand-nasixatlariga kulok sol, ularning xuzurida bachkana kiliklar kilma, tutriksiz gaplarni gapirma, ogir – vazmin bul. Kichiklar orasida bulganingda esa, ularning

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasi.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

uzlariga yarasha muomalada bul, ularga xos gap – suzlarni topib gapir, uzingni katta tutma», deyilmokchi.

Yoki xalkimizning «Kichkinani yosh dema, keksani- tosh», «Kichkinani makta, kattani sakla», « Kattaga salom ber, kichikka kalom», «Kattaga xurmat, kichikka shafkat», xikmatlariga monand kilib Xazrat Navoiy yozadi:

Kimki ulugrok - anga xizmat kerak,
Ulki kichikrok - anga shafkat kerak.

Demak, kattalar doim izzat-xurmatda bulib, ular yoshlarni yaxshi xulklari va yaxshi nasixatlari bilan yulga solmoklari. xayot saboklarini urgatib, raxnamolik kilmoklari lozim. Yoshlar kattalarni ibratli pand – nasixatlariga kulok solishlari va ularga amal kilmokligi farzdir.

Xalk xikmatlaridan biri bulmish «Sabr tagi sarik»ni taxlil kiladigan bulsak, u inson turmushga, yashash jarayonida uchraydigan ogirliklar, kaygu-alam, eshtilgan noloyik va tuxmat gaplarga bardoshli bulishga chorlashda'vatdir. Sabr kilgan yutadi, murod-maksadiga etadi, xar kanday xasrat – nadomatlar va tuxmat - buxtonlar xam vakti kelib oydinlashadi. Sabrli kishi yuzi yoruulib, baxt saodatga erishadi. Besabrlik va shoshma –shosharlik esa kishini beburt, subutsiz kilib kuyishi mumkin. Alisher Navoiy aytadi:

«Sabr ila kup boglik ish ochilur»
Ishda oshikkan kup toyilur.
Kup toyilgan kup yikilur»

Bayt: Kishining gam aro gar bulsa sabri,
Uning bulgay, axir maksad nasibi.¹

Sabr achchik doridek tuyuladi, ammo keyinrok sixat – salomatlik keltiradi. Sabr xajr tunidek korongu va uzun bulsa xam okibatli visol tongidir.

Bayt: Agar xijronda cheksa zaxmatu ranj,
Nasib bulgay nixoyat bexisob ganch.

¹ Hasanov S. Navoiyning etti tuhfasi.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot, 1991.-190b.

Ota – bobolar makolalarida kishining xayotda sabr tokatli, chidamli, kanoatli bulishi nakadar yaxshi, nakadar kimmatli fazilat ekanligini ta’kidlab. Buning aksi yomon okibatlarga olib kelishini uktirganlar. «Sabr – umr xazinasini», «Akl odamning kurki, sabr – uning sherigi», «Aklning kurki - sabr», «Akl sabrni sakla », «Kamoli iymon - sabr», «Sabr – shodlik kaliti», «Sabr - etgan murdga - etgan», «Sabr achchik, mevasi shirin» va xokazo.

Insonni sabrli -kanoatli bulishga da’vat etuvchi makollar bunday ming yillar mukaddam yashab ijod etgan shoirlar, allomalar tomonidan zur maxorat bilan kullanilganki, bu ularning kadimiyligidan dalolat beradi¹.

Nosir Xisrav aytadi:

Achchikdir «sabr kil» degan pand,
Ammo sabr kilsang bular kand.

Durbek yozadi:

Sabr bilan tengri bulur komil dil,
Sabr kilu, sabr kilu, sabr kil.

Sabr Navoiy talkinida kuyidagicha yangraydi:

Taammul bilan kom paydo bulur,
Taxammul bilan gura xolva bulur.
Kimki bir shiddat aro sabru taxammul ayladi,
Baxt aning nishini nushu xorini gul ayladi.

Bir donishmanddan : «Insonga kanday fazilatlar ziynatu baxt bagishlaydi?» - deb suradilar.

Donishmand aytadi: «10 fazilat kishi xusniga –xusn, baxtiga – baxt kushadi, Mana ular:

1. Xamma vakt chiroyli xulk bilan muomila kilish.
2. Tugrilikni uziga shior kilib, munofik va riyokorlikdan yirok yurish.
3. Karindosh urug, dust va boshkalarga marxamatli, shafkatli bulish.

¹ HayitmetovA. Navoiyxonlik suhbatlari.-T.:O`qituvchi,1993.-216b.

4. Yaxshilikka yaxshilik bilan javob berish. Yomonlikdan or kilish.
5. Omonatga xiyonat kilmaslik.
6. Xayr – exsonli, saxovatli bulish, baxillikdan xazar kilmoklik.
7. Kushnilar bilan totuvlikda yashash, ularni ayblarini oshkor kilmaslik.
8. Dustlarga sadokatli bulish.
9. Uyga kelgan mexmonni ochik yuz bilan, izzat – ikrom bilan kutib olish.
10. Xayoli va nomusli bulish.»

Jaloliddin Rumiyl aytadi:

- Ey birodar, agar baxt – saodat istasang, gurur, manmanlikdan yirok bul, xikmatli suzlarni sokinlik bilan tingla, takabburlik, adovat, ginachilikdan xazar kil.

Alisher Navoiy turkiy adabiyotda o`zining dilbar lirik she`rlari bilangina emas, balki takrorlanmas nasriy asarlari bilan ham o`lmas iz qoldirgan adibdir. Navoiyning nasriy asarlari tarixiy, tarixiy-memuar, ilmiy, diniy, tasavvufiy hamda axloqiy-ta`limiy mavzularga bag`ishlangan.

“Tarixi muluki Ajam” asari ajam shohlari tarixiga bag`ishlangan. Unda Navoiy fors sultonlarini 4 tabaqaga ajratadi:

1. Peshdodiylar.
2. Kayoniylar.
3. Ashkoniylar.
4. Sosoniylar.

Peshdodiylar tabaqasidagi 11 podshoh haqida ma`lumot beriladi. Kayumarsdan boshlab Jamshid, Zahhok, Afrosiyob, Girshosbgacha bo`lgan podsholarning podsholik qilgan yillari, amalga oshirgan ishlari, ixtirolari, xarakterli jihatlarini yoritishga harakat qiladi¹. Masalan, Navoiy Jamshid haqida gipirib, shularni qayd etadi: “G`arib ixtirolar qildi. Va ul jumladin sipohiylik aslihasidurkim, paydo qildikim, ondin burun tosh va yig`och erdi. Sinon va harba va pichoq, ba`zi habba ham debdurlar, qalqon ham debdurlarkim ul

¹ Hayitmetov A.A. Navoiy ijodining manbalari. "O`zbek tili va adabiyoti".-T.:Fan,1991. №1.-846.

yasadi. Va hammom bino qildi va g'avvoslig' xayol qildi. Va ipak va qazz va ko'prak to'qur nimalarni va ranglarni arog'a kiyurdi" (199-bet).

Kayoniylar tabaqasidagi 9 podshoh haqidagi ma'lumotlar orasida Humoy xotinning saltanatni boshqargani haqidagi ma'lumotlar o'ta muhimdir. Bahman ismli podshoh qizi Humoy homilador bo'lganda uning qorniga tojni qo'yib, taxtni Humoyga topshiradi. Humoy farzandi tug'ilib, voyaga yetguncha davlat boshqarishi, keyin esa taxtni o'g'liga topshirishi kerak edi. Ammo o'g'li tug'ilgandan keyin uni bir sandiqqa solib daryoga oqizadi. Sandiqni Gozur ismli bir kishi topib olib, chaqaloqqa Dorob deb nom qo'yadi va uni tarbiya qiladi. Dorob ulg'ayib, Humoy qo'shiniga mulozim bo'lib qo'shiladi va janglarda ko'rsatgan jasorati uchun podshoh e'tiboriga tushadi¹. Humoy o'g'li Dorobni ko'rgan zahoti ona qalbi bilan uning o'z farzandi ekanligini his qiladi va davlat boshqaruvini unga topshiradi.

Shuningdek, ashkoniylar tabaqasiga mansub bo'lgan 15 hukmdor hamda sosoniylarga mansub 29 podshoh haqida ham ma'lumotlar beriladi. Asar, asosan, nasrda yozilgan bo'lib, deyarli har bir podshoh haqidagi ma'lumotdan so'ng a-a-b-b tarzida qofiyalangan va shoir tomonidan "she'r" deb nomlangan to'rtliklar keltirilgan. Asar nihoyasida 50 baytdan iborat masnaviy berilgan bo'lib, u Husayn Boyqaroga bag'ishlangan. Undagi ushbu misralar Husayn Boyqaroni shoh, darvesh va inson sifatida ulug'langanligini isbotlaydi:

Shaho keldi shahlig' musallam sanga,
Ne shahlig'ki darveshlig' ham sanga.
Desam aylayin vasfing oson emas,
Ki mingdin birin demak imkon emas.

Shuningdek, shoir ushbu masnaviyda Husayn Boyqaroga bag'ishlangan, uning tug'ilishidan to podshohlik damlarigacha bo'lgan davrini, sifatlarini tarannum qiluvchi bir asar yozish niyati borligini ham qayd etadi.

¹ Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. - T.: O'qituvchi, 1993. - 216b.

Asarning asosiy g'oyasi-odil podshohlarni maqtash va zamona hukmdorlarini ana shu podshohlardan namuna olishga chaqirishdir. Navoiy tarixda shunday podshohlar bo'lganiga ishonadi va ularning nomini "hayvon suyi" (obi hayot) bilan tiriltirmoqchi, ya'ni tarixdan olib chiqib, zamonaga va kelajakka xizmat qildirmoqchi. Shuning uchun ham uzoq tarixdan Navoiy shunday xulosa chiqaradi: birov shoh bo'ladigan bo'lsa, jahon hashamatini ko'zga ilmasin. Faqat zulmni yo'q qilish uchungina va adolat o'rnatish uchungina mamlakat va taxt olishga arziydi. Kishi o'zi shoh bo'lsa ham xo'yi (fe'li, xarakteri) darveshlarcha bo'lishi kerak¹.

"Tarixi anbiyo va hukamo" asari avliyo va anbiyolar, olimlar, hukamolar tarixiga bag'ishlangan. Odam atodan boshlab o'tgan payg'ambar va valilardan 59 tasi, 4 ta obid hamda 13 hukamo haqida fikr yuritiladi. Navoiy asarda payg'ambarlarni 4 guruhga ajratadi:

1. *Mursol payg'ambarlar*: Bularga Jabroil vositasida vahy kelgan.
2. *G'ayri mursal payg'ambarlar*: ilhom yoki tushdagi vahiylik orqali elga rahnomalik qiladilar:
3. *Ulul-azm payg'ambarlar*: osmoniy kitoblar nozil bo'lgan kishilar.
4. *Xotam payg'ambar*: eng so'nggi payg'ambar bo'lib, bu Muhammad (s.a.v.) dir.

Alisher Navoiy nafaqat badiiy adabiyot va adabiyotshunoslik, balki qiyosiy tilshunoslikka ham muhim hissa qo'shgan. Uning tilshunoslikka bag'ishlangan "Muhokamat ul-lug'atayn" asari turkiy tilning imkoniyatlarini fors-tojik tiliga chog'ishtirish orqali ko'rsatib berishga bag'ishlangan. Asar 1500-yilda yozilgan bo'lib, unda turli tilda mavjud bo'lgan, ammo sort (fors) tilida muqobili bo'lmagan 100 ta so'z, shuningdek bir necha ko'p ma'noli so'zlar, forsiy tilda birgina varianti mavjud bo'lgan sinonim so'zlar, ayrim hayvon va parranda nomlari, kiyim-kechak nomlari, yeguliklar nomi, kasb-hunarni atovchi otlar haqida ma'lumot beriladi. Ayrim so'zlar haqida

¹ G'anieva S. Alisher Navoiy. - T.:Fan, 1968.-1486.

gapirganda Navoiy turkiy nazmlardan misollar keltirib, fikrini isbotlaydi. Masalan, “sinqarmoq” soʻzi xususida toʻxtalib, shunday deydi: “...Biri sinqarmoq lafzidurki, mubolagʻa mundin oʻtmas turkcha nazmda bu matlaʻ bordurkim, bayt:

Soqiyo, tut bedakim, bir lahza oʻzumdan boray,¹
Shart bukim, har necha tutsang labo-lab sinqaray.

Oyo! Bu sipqaray lafzi mazmuniga yetganda, forsiy sheʻrda ne iloj qilgʻaylar?”. (16-tom, 13- bet).

Ayrim hayvon va parrandalarni turli nomlar bilan atash turkiy tillarga xosdir. Shu haqda gapirar ekan, Navoiy kiyik, toʻngʻiz, ot singarilarning turli nomlari xususida toʻxtaladi. Jumladan, “...dagʻi turk oʻrdakning erkagin “soʻna” va tishisin “boʻrchin” der. Va sort munga ham ot qoʻymaydur. Va nar va modda ikkalasin “murgʻobi” der. Va oʻrdakning anvoi bilur qushchilar qoshida, masalan, joʻrka va erka, suqtur va olmabosh va choʻqirqanot va temirqanot va aldaldagʻa va alapuka va bogʻchol va bu yoʻsunluq derlarki, yetmish navʻ boʻlurkim, sort borisin murgʻobi oʻq der” (20-bet).

Asarning hech biror oʻrnida Navoiy fors-tojik tilini kamsitmaydi, balki bu til hamda ushbu tilda ijod qilgan ijodkorlarga hurmati baland ekanligini qayd etadi. Oʻzining turkiy va fors-tojik tilida yaratgan asarlari nomlarini zikr etadi. Navoiy nasrda yozilgan va ilmiy uslubda yaratilgan bu asarda ham 7 ta ruboiy 2 ta qitʻa, bayt va nazm deb atalgan 70 misra sheʻr keltiradi. Sheʻrlarning katta qismi shoir qalamiga mansub. Shuningdek, unda Atoyi, Lutfiy, Husayniy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Xoqoniy Shervoniy kabilarga oid sheʻriy misralar ham bor².

¹ Qudratullaev H. Navoiyning adabiy-estetik olami.-T.:Gʻ.Gʻulom nomidgi Nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.-1606.

² Saʼdulaeva Ya.Ona koʻngli. (Oila tarbiyasida onaning roli).-T.:Oʻzbekiston,1972.-396.

Navoiyning “Mezon ul-avzon” asari turkigo`y xalqlarni aruz ilmidan bahramand etish niyatida yozilgan. Shoir an`anaviy aruzga turkiy she`riyatga xos bo`lgan vaznlarni, ularning bahrlarini qo`shdi.

O`zbek she`riyatining, xalq og`zaki ijodining necha yuz yillik tajribasi bu asarda birinchi bor tadqiq etilib, umumlashtirib berilgan.

Har bir bahrning ruknlari, turlari haqida ma`lumot berilib, she`riy misralar asosida dalillanadi. Asarda 164 bayt g`azal, 1 ta tuyuq, 6 ta ruboiy keltirilgan. “Mezon ul-avzon” dan avval Shayxzoda Ahmad Taroziyning “Funun ul-balog`a”, keyin Boburning “Risolai aruz” asari turkiyda yaratilgan.

Alisher Navoiyning “Arba`in”, “Siroj ul-muslimin”, “Munojot” asarlari diniy-islomiy ruhdagi asarlardir.

Sharq adabiyotida “arba`in” an`anasi mavjud bo`lib, xalq orasida mashhur, eng sahih hadislardan 40 tasi saralab olinib, u hadislardan har birining mazmuni bir ruboiyda talqin qilingan. Abdurahmon Jomiyning “Chihil hadis” asarini Navoiy turkiyga tarjima qiladi. Shoirning niyati, asar muqaddimasida ta`kidlangandek, “forsiydonlar idrok aylagan” qirq hadis mohiyatidan turkiyzabonlarni ham bahramand qilish edi:

Forsiydonlar aylabon idrok,
Oriy erdi bu naf`din atrok.
Istadimki, bu xalq ham bori
Bo`lmag`aylar bu naf`din oriy¹.

Hadislarni she`rga solishda barcha shoirlar ularning oson tushunilishini, yodda saqlanishini ham nazarda tutganlar.

“Siroj ul-muslimin” asari she`riy yo`l (masnaviy) da yaratilgan bo`lib, islom dinining arkonlari- namoz, zakot, ro`za, haj haqidagi fikrlar bayon

¹ Qudratullaev H. Navoiyning adabiy-estetik olami.-T.:G`ulom nomidgi Nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.-

etilgan. Asar musulmonlar uchun ma'lum ma'noda dastur-qo'llanma vazifasini bajargan.

Navoiy hayotining so'ngida o'z asarlaridagi ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va dunyoviy muddaolar, shaxsiyatidagi davr talablari, mafkurasiga munosabat haqida ko'p fikr yuritadi. Botiniy hayajonlari, armon-o'kinchlari birlashib, Olloh nazdida tavbalar qilish ehtiyojini yaratgan. "Munojot" ana shunday iltijolar majmu'idan iborat. "Munojot" tili- teran tafakkur tili, his-tuyg'ularga to'la ruhiy holat tili. Mohiyatan esa, ma'naviy kamolot, imon ustuvorligi, ezguliklar sari intilishga da'vat etuvchi asar bo'lib, unda bu yo'lda to'siq bo'luvchi jam'iki illatlarga qarshi turish ham anglatiladi.

2.2. Alisher Navoiyning ma'naviy-ma'rifiy qarashlari.

Shark donishmandlari, xikmatguylar va nasixatnomalar yaratuvchi durdona suzlar aytuvchilar yurti. Uziga xos buyuk ma'naviyat makoni. Bunda ijod etib, bashar avlodini odobu – axlokk, bunyodkorligu ezgulikka, xamjixatligu - xamdamlikka da'vat etuvchi donishmand allomalar soni ming bitta. Birok xalkimizni asl durdona asarlari bilan doimiy ezgulikka chorlab xak yulini kursatuvchi shunday mutafakkirlarimiz borki, ularni urganmaslik mumkin emas.

Bulardan biri komusiy bilimlar soxibi, buyuk mutafakkir fan va san'atni turli soxalarini rivojlantirishga, ta'lim – tarbiya masalalariga katta xissa kushgan Alisher Navoiy (1441 –1501 yillar)dir. Navoiy turkiy tilda kup va xup aytgan alloma shoirdir. Ammo uning «Xamsa», «Maxbub ul-Kulub», «Arba'yn», «Nazm ul-Javoxir», «Vakfiya» kabi asarlarida tarbiya masalalari insonni xulk - atvori va axlok odobiga doir laxzalar cheksiz kupdir.

Navoiy inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab, foydali kishi kilib etishtirishdan kura, xayrli va lazzatli narsa yukdir, deydi. U ilm fanning axamiyatini yoritib berar ekan ilmni, korongulikni yoritadigan chirok- xayot yulini yoritadigan kuyosh. Odamlarni xakikiy kiyofasini

kursatadigan omil sifatida ta'riflaydi. Shu bilan birga ilmni yoshlikdan egallash lozimligini ta'kidlaydi:

Yoshlikda yig ilmni magzini,
Karilikda sarf et sen ani¹.

Navoiy xayotda uz ilmiga amal kilishi, urganganlarini xayotga tadbik etish masalasiga katta e'tibor beradi. U «Maxbub ul-Kulub» asarida ilm ukib, uni ishlatmaganlarxakida shunday yozadi...:

Ilm ukib kilmagon amal makbul,
Dona sochib kutarmadi maxsul.

Alisher Navoiy fikricha, axli ma'ni kishilar ma'naviyati etuk shaxslardir. U «Xayrat ul-Abror» dostonida etuk shaxsning ma'naviyatidagi yaxshilik, saxovat, soflik, xayo, muruvvat, andisha, odob, kamtarlik, sadokat, kanoat, rostguylik, insof, adolat, bagrikenglik singari fazilatlarni ta'riflanib, ruxiy kamolot yullari taxlil etilgan.

Navoiyning bu insonparvarligi, orzulari Sharkda inson kadrini goyat dadil va original dunyokarashi edi.

Alisher Navoiy «Olamda gamsiz utay desang, imu -xunar urgan. Dunyodan kamolotga etmay utish, xammomda toza bulmay chikishning xuddi uzi» - deb ta'kidlaydi. Uning fikricha yosh avlodni kamolotli bulishini xalkparvar, bilimli eng yaxshi fazilatlarga ega kishilar kilib etishtirishdir. Bunda tarbiya etakchi rol uynaydi. Shu bilan birga u tarbiya ta'siriga beriluvchi, kobiliyatli ukuvchi bolalar bulgani singari, yomon xulkli bolalarni tuztish mumkinligiga ishonch bildiradi. Navoiy bolalarga ilm – ma'rifat berish bilan birga ularni odobga urgatishni xam vazifa kilib kuyadi.

Bola shaxsining kamolotida tarbiyaning yuksakligini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiy xam dili, xam tili, xam amali bilan odamiy bulgan va uzgalarni xam shunga targib kilgan.

Odamiy ersang demagil odamiy,

¹ Hayitmetov A.A. Navoiy ijodining manbalari. "O'zbek tili va adabiyoti".-T.:Fan,1991. №1.-846.

Onikim yuk xalk gamidin gami¹.

Alisher Navoiyning xamma asarlarida odamiylik yukori baxolangan. «Farxod va Shirin» dostonida Shirinning Xisrav elchilariga bergan javobi buning dalilidir:

Menga yoru oshik xavasdir,

Agar men odam ulsam ushbu basdir.

Odamiylik e'tikodi bilan yashashni orzu kilgan xar bir kishi Alisher Navoiy asarlrini ukib urganishi, ulug bobomizni insoniy fazilatlarini uzlashtirishi, u kishiga ergashib etishmogi zarur. Insonni insonligi xalkka kancha nafi tegishida deb bilgan alloma yozadi:

Nafini agar xalkka beshak erur,

Balki bu naf uzingga kuprok erur.

Navoiy nazdida barcha insoniy xislatlar odobdan boshlanadi. Zero xakikiy insonga xos xislatlar kanoat, muruvvat, xilm. (yumshoklik), xuddi shu odobli kishida tarkib topadi.

Masalan «Kanoat- bulokdur, suvi olingan bilan kurimaydir, xazinadir – nakdinasi sochgan ilan kamaymaydir. Ekinzordir – urugi va shavkat mevasini beradir. Daraxtdir – shoxi tortinchoklik va xurmat mevasi etkazadi», deb ifodalaydi. Sharq adabiyotida “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” kabi asarlarining yaratilishiga qadar ushbu sujet asosida yozilgan asarlar haqida ma'lumot berish ayni muddaodir. Bundan ko'zda tutilgan maqsad, avvalo, ushbu sujetning vujudga kelish sababi, manbalari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish bo'lsa, ikkinchidan bu ikki tilda yaratilgan asarlarning o'ziga xos jihatlarini, betakror ko'rinishlarini aniqlashdan iboratdir.

Sharq mumtoz adabiyotida muayyan an'anaviy sujetlarining yaratilishi va rivojlanish tarixi bo'lganidek, qushlarning ramziy sarguzashtlari asosida

¹ G'anieva S. Alisher Navoiy. - T.:Fan, 1968.-1486.

yozilgan “Mantiq ut-tayr” hamda “Lison ut-tayr” tipidagi allegorik-falsafiy asarlar kelib chiqish va rivojlanishining ham o`ziga xos tarixi bor¹.

Ma`lumki, Navoiy va Attor dostonlari sujeti qushlarning Semurg` tomon qilgan safari tasviriga asoslanib, bu tasvir orqali mualliflar o`zlarining muayyan falsafiy masalalarga doir qarashlarini obrazli tarzda ifodalab ko`rsatganlar.

Xuddi shunga o`xshash holat, ya`ni qush tili vositasida falsafiy masalalar xususida mulohaza yuritish Navoiy va Attordan ilgari ham mavjud bo`lib, sharqning bir qator yirik mutafakkirlari o`z asarlarini mazkur usulda yozishgan. Bular jumlasiga Abu Ali ibn Sino (980-1037)ning “Risolatut-tayr”, Abu Hamid Muhammad G`azzoliy (1040-1111)ning shu nomli risolasi, Shahobiddin Suhravardiy (vafoti 1191-yil) qalamiga mansub “Risolayi musammo ba safari Simurg`” kabi asarlarni ko`rsatish mumkin.

Ba`zi olimlarning fikricha Ibn Sinoning “Risolatut-tayr”i sharqda qushlar allegorizmiga asoslanib yozilgan ilk badiiy asar bo`lib, Attor va Navoiy dostonlarining yaratilishida asosiy vazifani bajargan. Xususan prof. A.M.Bahouddinov Ibn Sino Risolasining sharq adabiyotiga, ko`rsatgan ijobiy ta`siri haqida gapirar ekan, Navoiy ham “Lison ut-tayr” dostonini yozishda undan ta`sirlanganini qayd etadi. Shu jumladan, A.Irisov ham bu nuqtai nazarni quvvatlab, shunday mulohaza yuritadi: “Risolatut-tayr” asosan ramz-ishoralar bilan yozilgan bo`lib, Farididdin Attorga “Mantiq ut-tayr”, Navoiyga “Lison ut-tayr” kabi asarlarni yozishda asosiy turtki bo`lgan deyish ham mumkin. Chunki, bu sohada dastlab Abu Ali ibn Sino asar yozdi, undan so`ng bir qancha yozuvchilar qalam tebratdilar.²

Sh.Sharipov ham bu jarayonga o`z fikrini bildirib shunday deydi: “Darhaqiqat, Ibn Sinoning mazkur risolasi faqat Attor va Navoiy dostonlari vujudga kelishida bir turtki bo`libgina qolmay, shu bilan birga, Ibn Sinodan so`ng qush tili vositasida yaratilgan barcha asarlar, jumladan, G`azzoliy va Suhravardiylarning nomlari qayd etilgan asarlari maydonga kelishida ham

¹ M. O`zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an`analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246.

² Irisov A. Abu Ali ibn Sinoning “Salomon va Ibsol” kissasi. Toshkent, 1973, 14 - bet.

asosiy omillardan biri rolini o'tadi. Shu jihatdan mazkur risola sharq adabiyotida keng tarqalgan qushlar haqidagi traditsion asarlarning kelib chiqishida muhim rol o'ynagan manbalar sifatida alohida diqqatga sazovordir.¹

Ibn Sinoning "Risolatut-tayr" asari ikki xil nom: "Risolatut-tayr" (Qush risolasi) va "Kitobush – shabaka vat-tayr" (Tuzoq va qush kitobi) nomlari bilan yuritilgan. Uning qisqacha mazmuni quyidagicha: Bir guruh qushlar ovchi tuzog'iga ilinib, undan qutilishga harakat qilishsa-da mehnatlari foyda bermaydi. Natijada ular ozodlikka chiqishdan umid uzib, o'zlarining tuzoqda ekanliklarini ham ma'lum darajada unutadilar. Shunda ular tepasida bir gala qush paydo bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, bu qushlar ham tuzoqqa ilingan bo'lib, keyinchalik undan qisman xalos bo'lishgan ekan. Ularning bosh va qanotlari ozod bo'lsada, oyoqlarida tuzoq qoldiqlari saqlanib qolgan edi. To'r ostidagi qushlar birodarlari yordamida bo'yin va qanotlaridagi tuzoq changalidan xalos bo'lishadi, lekin ular oyog'idagi tuzoq bandlarini olib tashlashning sira iloji bo'lmaydi. Shundan so'ng ularning hammasi bundan xalos bo'lishda yordam berishni so'rab, keng vodiylar va baland tog'lar osha buyuk podshoh huzuriga yo'l oladilar. Nihoyat, sakkizta tog'-vodiy ortda qolib, ko'zlangan manzilga yetib keladilar. Qasrga kirganlarida sahnadan parda ko'tarilib, qushlarning ko'zi shohga tushadi: u husn-u malohatda shunchalik tengsiz bir siymo ediki, buni ko'rgan qushlarning aqli hushi boshdan uchib, bu yerga nima uchun kelganliklarini ham unitadilar. Shoh o'z lutf-marhamati bilan ularning es-hushini joyiga keltiradi. Qushlar dadillanib, o'z istaklarini bildiradilar. Shoh ularga "Oyoqlaringizdagi tuzoqni qo'ygan kishidan bo'lak hech kim yecholmaydi. Men unga bir elchi yuboraman. Elchi sizlarni tuzoqdan qutqarishni ovchidan iltimos qiladi", deya javob beradi. Qushlar izlariga qaytadilar.²

Ibn Sinoning "Risolatut-tayr" asarini prof Sh.Sharipov o'z monologiyasida shunday izohlaydi: "Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, asardagi mazkur sujet Ibn Sinoning sharq folkloridan yaqindan tanish

¹ Sharipov Sh. Alisher Navoiy "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Toshkent, 1982, 10-bet.

² Abu Ali ibn Sino. Tayr kissasi. - "Falsafiy risolalar". Toshkent, 1963, 14-21-betlar.

va undan mohirlik bilan foydalana olish qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Chunki, shunga o'xshash asarlar Ibn Sinoga qadar ham sayyor sujet sifatida o'rta Osiyo, arab, fors va hind xalqlari orasida keng tarqalgan bo'lib, bizningcha, Ibn Sino ulardan ijodiy foydalangan. Bu esa o'z navbatida mazkur sujetning manbai xalq og'zaki ijodida ekanligidan guvohlik beradi. Bu sujetning ayrim variantlarini mashhur hind eposi "Kalila va Dimna", shuningdek, hind va o'zbek xalq og'zaki ijodining ayrim na'munalari tarkibida ham uchratish mumkin.

Xuddi shunday allegorik obrazlar, Rabg'uziyning "Qissasi Rabg'uziy" asarida ham uchraydi. Xususan, rivoyatlarda aytilishicha: "Yuzlab qushlar Sulaymon alayhissalom qayerga borsa, boshi uzra qanotlarini soyabon qilib borgan. Shohning oltinu kumushdan bunyod etilgan, bir yog'och (6km) maydon ichida turgan taxti uzra ham qushlar saf tortib, soyabon vazifasini ado etgan."¹

Ibn Sinoning "Risolatut-tayr" asari hayotida ro'y bergan voqealar bilan bog'liq ravishda sharhlash A.Irisov, U.Sultonov ishlarida ko'zga tashlanadi. Masalan, A.Irisov Ibn Sino tarjimai holidagi ayrim lavhalar, xususan, Mahmud G'aznaviy Xorazmni bo'ysundirgach (1017-yil), olimning u yerdan Eron tuprog'iga Mahmud qo'li yetmaydigan joylarga bosh olib ketishi va uning ta'qibidan qochib, turli shaharlarda sarson-sargardonlikda hayot kechirganligiga asoslanib shunday yozadi. "Asardagi tuzoq-Mahmud G'aznaviyning changali, qushlar boshi qanotlarining ozod bo'lishi esa Xorazm shohning olimlarga o'z taqdirlarini o'z qo'llariga berishi, qushlar oyoqlarida tuzoq qoldiqlarining qolishi". Ibn Sino qaysi o'lka, qaysi shaharga borsa, hamon muhayyo bo'lib turgan Mahmudning ta'qibi, qushlar qochib kezib yurgan shaharlardir".²

Bu asarni ba'zilar Ibn Sinoning tarjimai holi bilan bog'lab, biografik xarakterdagi asar sifatida izohlasalar, boshqa bir guruh olimlar esa ijtimoiy-siyosiy mazmundagi asar deb, feodal davr muhiti bilan bog'laydilar.

¹ Nosiruddin Burhoniddin Rabg'uziy. Qissasi Rabg'uziy. Birinchi kitob. Toshkent, 1990, 34-bet.

² Irisov A. Abu Ali ibn Sinoning "Salomon va Ibsol" kissasi. 18-19-betlar.

Bizningcha, mazkur asar falsafiy mazmundagi badiiy asar bo'lib, unda muallif o'sha davr falsafasining ayrim muhim nazariy masalalariga oid o'z qarashlarini allegorik shaklda ifoda etadi.

Sharq xalqlari orasida qadim zamonlardan buyon insonning ruhi qush sifatida tasavvur qilingan va bu badiiy adabiyotda “jon qushi”, “ko'ngil qushi”, “murg'i dil” iboralari bilan ifodalangan.

Ibn Sino asarida ana shu tasavvurlarga asoslanib, qushlar obrazini inson jonining majoziy obrazi sifatida talqin etadi. Diniy va tasavvuf ta'limotlariga ko'ra inson joni tananing ichida bo'lib, tana u uchun g'o'yo qafas, tuzoq yoki g'ilof vazifasini bajaradi. Chunki, tanamiz moddiy xarakterga ega bo'lib, oziq-ovqat iste'mol qilamiz va boshqa bir qancha tashqi mavjud bo'lgan narsalarga ehtiyoj sezamiz. Ibn Sino asardagi podsho obraziga “nuqsonsiz kamol, zavolsiz jamol” egasi sifatida ta'rif beradi.¹

O'sha davrda bu sifatlar faqat xudogagina nisbat berilishini hisobga oladigan bo'lsak, mazkur obraz xudoning simvolik obrazi ekanligi ma'lum bo'ladi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, asardagi qushlar-inson ruhi, tuzoq-inson tanasi, ovchi-tabi'at, podsho esa xudoning majoziy obrazlaridir.

Ibn Sinoning bu asarida allegorik sujetlar orqali insonning moddiy dunyoga va Allohga, bo'lgan muhabbati, falsafiy muammo sifatida o'rtaga tashlangan. Asarga falsafiy nuqtai nazardan yondashganda, uni quyidagicha izohlash mumkin: qushlar tuzoqdan to'liq xalos bo'lmaganliklari sababli, inson ham tanasidan tashqari mavjud bo'lolmaydi.

Demak, Ibn Sinoning fikricha, inson ruhi moddiy borliq bilan birgalikda mavjud bo'lib, ular o'zaro chambarchas aloqadadirlar.

Ibn Sino “Risolatut-tayr” asarining yaratilishi sharq xalqlari ijtimoiy-falsafiy fikr va badiiy tafakkuri taraqqiyotida chuqur iz qoldirib, o'zidan keyingi arab, fors-tojik va turkiy tillardagi adabiyotlarda shu xil uslubda asar yozish an'anasini boshlab berdi.

¹ Abu Ali ibn Sino. Tayr kissasi. 20-bet.

Shu jumladan, Attorning “Mantiq ut-tayr” hamda Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlarining ildizi ham bevosita Ibn Sinoning “Risolatut-tayr” asariga bogʻliqdir.

Ibn Sinodan soʻng allergorik tasviriy usuldan foydalanib yozilgan barcha risola va dostonlar, jumladan, Muhammad Gʻazzoliyning “Risolatut-tayr” asarida ham yaqqol koʻzga koʻrinadi. Bu asarda Gʻazzoliy oʻzining tasavvur va islom mafkurasi uchun umumiy boʻlgan gʻoyalarni bevosita emas, balki bivosita yaʼni, Ibn Sino risolasiga oʻxshash qush tili risolasiga badiiy ifoda etishga harakat qiladi. Asar quyidagicha boshlanadi: “Tabiati va xillariga koʻra turli-tuman boʻlgan qushlar yigʻilishib, oʻzlariga bir podshoh saylashga qatʼiy qaror qilishdi. Ular Gʻarb tomonda yashaydigan Anqodan boʻlak qush bunga loyiq emas, degan fikrga keldilar va uning oʻsha tomondagi orollardan birida turishini aniqladilar. Shunday qilib, ulardagi zavq-shavq kuchli istakka aylandi va unga tomon yurib, uning makoniga borishga ahdu paymon qildilar, uning xizmatida boʻlishni baxt-saodat deb hisobladilar”¹.

Gʻazzoliyning talqinicha, shoh axtarib yoʻlga chiqqan qushlar xudo vasliga erishmoq uchun tariqat yoʻliga kirgan soʻfiylarning majoziy timsoli boʻlib, Anqo esa ularning eng oliy hayotiy ideali sifatida xudoning simvolik obrazidir. Risoladan quyidagicha xulosa kelib chiqadi: agar inson bizni oʻrab turgan moddiy dunyo faoliyatidan voz kechib, zohidlik va oriflik yoʻlini bosib oʻtsa, u eng yuksak baxtga-Alloh taolo vasliga yetishmogʻi mumkin. Buning uchun u sirlar olami va gʻayb ilmiga qadam qoʻymogʻi va bu yoʻlda har qanday toʻsiqqa duch kelsa-da, ortga chekinmasligi lozim. Ana shunda u vahdat yaʼni, Alloh bilan birlashadi. Gʻazzoliy bunga namuna sifatida qushlarning safari davomida turli-tuman qiyinchiliklar, chidab boʻlmas ofatlarga duchor boʻlishi, qushlarning koʻpchilik qismi nobud boʻlishiga qaramay, oʻz yoʻllarini tark etmasligi va shu tariqa Anqo huzuriga yetib borib, u yerda baxt-saodatga erishganliklarini aytadi. Asarda qushlar bilan Anqo oʻrtasida savol-javoblar ham mavjud. Ularda Gʻazzoliy tasavvufga oid ayrim masalalarni Qurʼon

¹ M. Oʻzbek shoirlari nazmiyatida Navoiy anʼanalari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246.

oyatlari asosida izohlaydi. Masalan, qushlar o'zlarining yo'lda halok bo'lgan hamrohlari taqdiri haqida so'raganlarida shunday javob beriladi: "Tangri yo'lida halok bo'lganlarni o'lik deb emas, hayot deb hisoblanglar". Umuman, risolada Qur'ondan yigirmaga yaqin oyat keltirilgan bo'lib, ularning mazmuni insonlarni ezgu ishlar qilishga chorlash, bu yo'lda ularni qanday qiyinchilik va tuhfalar kutayotganligi haqidadir. Bularning barchasi so'fizmni islom aqidalariga moslashtirishda ko'zga tashlanadi.

Ma'lumki, G'azzoliyning ko'pchilik falsafiy asarlari buyuk yunon faylasufi Aristotel va uning sharqlik izdoshlari Abu Nasr Forobiy, ayniqsa, Ibn Sino kabi mutafakkirlarning bizni o'rab turgan moddiy dunyo qarashlariga qarshi qaratilgan edi.¹ Bu holat uning "Risalatut-tayr" asari o'z g'oyaviy mazmuni va falsafiylik jihatidan Ibn Sinoning shu nomli risolasida ilgari surilgan fikrlarga zid bo'lib, unga raddiya sifatida vujudga kelgan, deb xulosa chiqarishga asos beradi. Xususan, har ikki asar sujetidagi voqea-hodisalarning bir-biriga zid ravishda tasvirlanishi ham shunga guvohlik beradi. Mazkur asarlardagi bu allegoriyalar o'z falsafiy mazmuniga ko'ra ham bir-biriga zid turadi. Chunonchi, Ibn Sino ushbu majozdan ruhimiz va moddiy olamning o'zaro aloqadorligi, ularni bir-biridan ajratib qarash mumkin emasligi haqidagi nazariyani ilgari sursa, G'azzoliy esa jonning ilohiy mohiyatga ega ekanligi, agar inson zuhd va riyozatga ko'ngil qo'ysa, uning ruhi mutlaq ruh ya'ni, Alloh bilan birlashib keta olishi mumkinligi so'fiyona-diniy g'oyalarni ifoda etadi. Ibn Sino asariga tamoman zid bo'lgan bu g'oyalar G'azzoliy yashagan davrda juda keng tarqalgan va turli vositalar bilan targ'ib etilmoqda edi. Ayniqsa, G'azzoliy o'zining "Ihyoi ulumad-din", "Taxofutul-falosifa" va boshqa asarlarida bu masalaga juda katta ahamiyat beradi, uning to'g'riligiga shubha bildirganlarni keskin tanqid ostiga oladi. Bizningcha, uning "Risalatut-tayr" asari ham ana shu maqsadda yozilgan bo'lib, bu o'rinda muallif Ibn Sinoning kalom falsafasi va so'fiyona ta'limotga zid keluvchi yuqoridagi nuqtai nazariga allegorik tarzda raddiya bildiradi. G'azzoliyning Ibn Sino asari bilan bir xil nomlangan va bir xil usulda yozilgan maxsus falsafiy risola

¹ Xayrullaev M. Uyg'onish davri va Shark mutafakkiri. Toshkent, 1971, 161-162-betlar.

bitishidagi asosiy sabab ham shunda bo'lsa kerak. Mazkur risola o'zining bu xususiyatlari bilan Sharq adabiyotidagi qushlar allegorizmidan foydalanib yozilgan asarlarda aniq tarixiy sharoit bilan bog'liq holda bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan turli falsafiy qarashlarning o'zaro kurashi o'z aksini topib, "qush tili" ana shularni ifoda etishda muhim badiiy vosita rolini bajarganligidan dalolat beradi.

Nemis olimi Helmut Ritter, chex sharqshunosi Yan Ripka, Eron olimi Badi'uzzamon Firuzonfar va boshqalarning tadqiqotlarida Attor o'zining "Mantiq ut-tayr" dostonini G'azzoliyning mazkur risolasidan ilhomlanib yozganligi qayd etiladi. Darhaqiqat, har ikki asar syujeti, obrazlar sistemasi va boshqa tomonlari o'zaro chog'ishtirib ko'rilsa, bu fikrning haqiqatga muvofiq kelishi ma'lum bo'ladi. Demak, ushbu asardagi qushlarning ramziy sarguzashtlaridan hikoya qiluvchi allegorik syujet Attor dostoni va unga nazira sifatida turk va o'zbek adabiyotlari tarixida yaratilgan asarlar, jumladan, Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni syujeti uchun ham ilk taraqqiyot bosqichi vazifasini o'taydi. Shunga ko'ra, G'azzoliyning "Risolatut-tayr" asari o'zining ilohiy-diniy mazmunidan qat'iy nazar, Sharq mumtoz adabiyotida an'ana tusiga kirib, ko'p marta murojaat qilingan syujetlardan birining kelib chiqishida muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilganligi va umuman, qushlar allegorizmi asosida yozilgan asarlarning tipik bir namunasi sifatida ma'lum e'tiborga sazovordir.

Fors-tojik shoiri va mutafakkiri shayx Abu Tolib Fariddin bin Ibrohim Attor Nishopuriy (taxminan 1141-1229) o'z ijodiy faoliyati bilan Sharq xalqlari mumtoz adabiyoti tarixida muhim o'rinlardan birini egallaydi. Feodal tuzum davrining farzandi bo'lgan Attor asarlarida "ezilgan tabaqalarning, xususan, shahar aholisining kayfiyati mistik shaklda ifoda etiladi"¹. Uning dunyoqarashi va ijodi g'ayb ilmini o'zida aks ettirsa-da, asarlarining mohiyati va zamiri o'ta murakkab xarakterga ega.

Shoirning ko'p sonli asarlari orasida "Mantiq ut-tayr" dostoni alohida o'rin egallaydi. Sharq mumtoz adabiyotida mashhur asarlardan biri hisoblangan bu dostonida Attor tasavvuf ta'limotining

¹ Hayitmetov A. Shark adabiyotining ijodiy metodi tarixidan. 176-bet.

asosiy qonun-qoidalarini majoziy shaklda izchil bayon etadi. Shoir bu asarni yozishda G'azzoliy risolasida qalamga olingan sujetni bejiz tanlamagan. Chunki bu syujet uning uchun tasavvuf ta'limotiga oid o'z mulohazalarini sistemali tarzda bayon etishga qulay bir vosita bo'libgina qolmay, bu sohada obrazli falsafiy mushohada yuritishning yangi ufqlarini ham ochar edi.

Chunonchi, Attor G'azzoliy risolasidagi majoziy sujetni har tomonlama rivojlantirib, uni yangidan talqin etadi. Uning bu mavzuni rivojlantirishdagi xizmati avvalo asar bosh qahramonlari hisoblangan qushlar obraziga bo'lgan munosabatda sezilib turadi. Attor G'azzoliydan farqli ravishda "Risolatut-tayr" da umumiy tarzda talqin etilgan qushlar obrazini ba'zi o'rinlarda aniqlashtirishga harakat qiladi. Dostonda Bulbul, Tovus, To'ti, Tazarv, Kabk(Kaklik), Bum(Boyqush), Uqob(Burgut), Bat(O'rdak) va boshqa qushlar obrazi mavjud. Shoir mazkur obrazlarni jamiyatda tutgan o'rni, mashg'uloti va xarakteri jihatidan bir-biridan ajralib turuvchi muayyan inson tiplarining majoziy obrazi sifatida talqin etadi. Bu sohada u, asosan, o'z davri xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot va tasavvuf she'riyatida to'plangan boy tajribalarga suyanadi. Masalan, Uqob obrazi folklor va badiiy adabiyotda bo'lgani kabi mag'rurlik timsoli, Tovus esa o'z tashqi go'zalligi bilan faxrlanib yuruvchi usti yaltiroq, ichi qaltiroq kishilarning allegorik obrazidir. Qushlar obrazini bu xil tizimlashtirish shoir uchun tasavvufga doir o'z mulohazalarini kengroq bayon etish imkonini beradi.¹

Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishda qo'shgan hissasini belgilovchi omillardan yana biri dostonda Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning bosh, yetakchi qahramonlaridan biri bo'lib, asarda tasvir etilgan barcha voqea-hodisalar bevosita uning faoliyati bilan uzviy bog'liq holda berilgan. G'azzoliy risolasi sujetida bu personaj ishtirok etmaydi. Attor Hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqdagi Sharq folklori va Qur'onda (XXVII sura, 20-oyat) mavjud ayrim tasavvurlariga asoslanadi. Rivoyat qilinishicha, Hudhud go'yo Sulaymon payg'ambarning eng yaqin sirdoshi va

¹ M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246.

maslahatchisi bo'lib, u bilan Sabo shahri malikasi Bilqis o'rtasidagi sevgi munosabatlarida vositachilik rolini o'tagan va shu xizmatlari uchun payg'ambar nazariga sazovor bo'lgan qush emish. Boshqa rivoyatlarda ham Hudhud ana shu tarzda donishmand va maxfiy sirlaridan xabardor qush sifatida talqin etiladi. Shoir bu aqidalardan ijodiy foydalanib, Hudhudni Simurg' tomon safarga chiqqan qushlarning yo'lboshchisi sifatida tasvirlaydi. Hudhud obraziga yuklangan bu vazifa uni tariqat yo'liga kirgan so'fiylar boshlig'i (pir yoki shayx)ning umumlashma majoziy obrazi darajasiga ko'taradi. Shunga muvofiq tasavvufga oid barcha nazariy va amaliy masalalar uning tilidan bayon etiladi.

G'azzoliy va Attor asarlari o'rtasidagi o'ziga xoslikni Anqo va Simurg'¹ obrazlari misolida ham ko'rish mumkin. Anqo (Simurg') barcha qushlar podshosi ekanligi to'g'risidagi qadimiy tushunchalar har ikki muallifga uni xudoning ramziy obrazi sifatida qo'llash uchun asos bergan, bu jihatdan ular umumiy xususiyatga ega. Lekin Attor bu obraz nomini fors-tojik xalqlari orasida mavjud Simurg' nomi bilan o'zgartiradi va shu orqali unga juda katta g'oyaviy-badiiy vazifa yuklaydi. Dostonda hikoya qilinishicha, yetti vodiy: Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat va Faqru fanolardan uchib o'tish jarayonida Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan ko'p sonli qushlarning deyarli barchasi halok bo'lib, faqat o'ttiztasi ko'zlangan manzilga yetib keladi. Ana shu o'ttizta qush (simurg') Simurg' (xudo)ga aylanadi, o'zlarida Simurg'ni ko'radi: "O'ttiz qush atrofga zudlik bilan qaradi. Shubhasiz, bu o'ttiz qush o'sha Simurg'ning o'zi edi". Attor bu o'rinda "si murg' " so'zi yordamida so'z o'yini qilib, xudo va insonning bir butunligini obrazli tarzda ifodgalab ko'rsatgan. Bu falsafiy qarash G'azzoliy risolasida olg'a surilgan tasavvufiy va islom dinidan jiddiy farq da, inson mavqeyi past bo'lgan o'rta asr sharoitida uni ilohiylashtirishni mavjud ekanligi bilan o'sha davr nuqtai nazaridan ma'lum ijobiy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, shoirning mazkur qarashlari uni ilk tasavvufning yirik namoyondalaridan biri bo'lgan va "anal-haq" ("men-xudo")degani uchun dorga

¹ "G'iyosul-lug'ot", "Komusul-a'lom" va boshqa manbalarda berilgan ma'lumotlarga kura, Simurg' va Anko ismi boru jismi yuk bir afsonaviy kushning ikki xil nomidir.

osilgan Mansur Halloj (858-922) ta'limoti bilan yaqinlashtiradi. Shuning uchun ham mavlono Jaloliddin Rumiy u haqda "Shayx Mansur Halloj nuri yuz ellik yildan so'ngra Shayx Farididdin Attor ruhig'a tajalliy qildi"¹ deganida tamoman haqli edi.

Attorning fikricha, dunyodagi barcha narsalar, jumladan, inson ham xudoning soyasidan iborat bo'lib, inson o'z hayotining mohiyatini ana shu soyalikdan oftob (xudo)ga qarab intilishda, o'z asliga qaytishda deb bilmog'i kerak. Buning uchun u bizni o'rab turgan moddiy dunyoga ahamiyat bermasdan, zohidlik va tarkidunyochilikka berilishi, ma'naviy kuchning hammasini "haqiqat"ni bilishga sarflamog'i lozim. Oqibatda u marifatga erishib, xudoni tanish darajasiga ko'tariladi. Bu paytda uning uchun barcha dinlar teng ahamiyatga ega bo'lib, butga sig'inish, olovga topinish, yohud Ka'baga ibodat qilishning zarracha ahamiyati qolmaydi. Chunki u hamma narsada, hamma o'rinda va o'zida ham xudoni his qila boshlaydi. Shu tariqa u "haqiqat"ning asl mohiyatiga tushunib, Alloh vasliga muyassar bo'ladi.

Attorning bu qarashlari ba'zi masalalarda: turli dinlarni mohiyat jihatidan bir xil deb tan olish, hamma narsada xudoni ko'rish nazariyasini ilgari suradi. Shunday qilib, Attor "Mantiq ut-tayr" dostonini yozishda G'azzoliyning "Risolatut-tayr" asariga suyansa-da g'oyaviy-falsafiy mazmuni, obrazlar talqini, kompozitsion tuzilishi, badiiy poetik uslubi va boshqa jihatlari bilan tamomila farq qiluvchi asar yaratdi. Dostonning yuzaga kelishi Sharq xalqlari adabiyotida katta bir voqea sifatida kutib olindi va shoirga katta shuhrat keltirdi. Asar allegorik majoziy tasvir usuli orqali falsafiy masalalarni ifoda etishning epik poeziyadagi mumtoz namunalari sifatida o'zidan keyingi fors-tojik va turkiy xalqlar adabiyotining falsafiy-didaktik yo'nalishi taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatib, Sharq mumtoz she'riyatida yangi bir an'anani-"qush tili" bilan doston yozish an'anasini boshlab berdi.

Attor dostonining keyingi davrlar adabiyotiga ta'siri keng va murakkab bo'lib, u turli asrlarni o'z ichiga oladi. Bu ta'sirni o'zida mujassam

¹ Alisher Navoiy. Nasoyimul-muhabbat. –Asarlar. 15 tomlik. 15-tom. Toshkent, 1968, 169-bet.

etgan asarlar ham g'oyaviy badiiy mazmun jihatidan bir xil bo'lmay, muayyan davrlarning mahsuli sifatida o'zida o'sha zamonlarning muhim ijtimoiy-siyosiy, falsafiy va axloqiy masalarini aks ettiradi. Bu holni mazkur dostonidan ilhomlanib yozilgan barcha asarlar, jumladan, turk shoiri Gulshahriyning unga nazira tarzda yozgan "Mantiqut-tayr" dostonida ham ko'rishimiz mumkin. A. S. Levend Gulshahriyni "o'z zamonasidagi eng hayajonli san'atkor shoirlardan biri sifatida gavdalanadi" deya e'tirof etadi.

Gulshahriyning "Mantiqut-tayr" dostoni Attorning shu nomli asariga turkiy tilda yozilgan birinchi nazira bo'lib, kitobning xotima qismida muallif bergan ma'lumotiga qaraganda, u shoir vafotidan sal oldinroq, ya'ni hijriy 717 milodiy 1317-yilda yozib tugallangan. Gulshahriy mazkur asarida Attor dostoniga suyangan holda qushlarning ramziy sarguzashtlari haqidagi an'anaviy syujetni bir qator yangi epizod, fikr- mulohaza va g'oyalar bilan boyitib, yangi o'ziga xos asar yozganligi ma'lum bo'ladi.

Shoir dostondagi bosh obrazlarning tamsiliy ma'nolarini quyidagicha izohlaydi: Hudhud aql, qushlar xalq, Simurg' esa xudoning majoziy obrazlaridir. Doston kompozitsiyasida qushlarning Hudhud bilan qilgan savol-javoblari alohida o'rin egallaydi. Hudhud javoblarida tasavvuf ta'limotining asosiy tomonlari bayon etilib, ularga turli hikoyatlar ham ilova qilingan. Gulshahriy vahdati vujud nazariyasini izohlashda, asosan, ustoz Attor yo'lidan boradi. Bu holat ayniqsa qissaning xotima qismida yaqqol namoyon bo'ladi. Unda ham Simurg'ni izlab yo'lga chiqqan ko'plab qushdan faqat eng chidamli o'ttizta qushgina maqsadga erishadi. Ya'ni qushlar o'z borlig'ini tark etish oqibatida mutlaq vujud (xudo) bilan birlashib ketadilar. Ammo shoir Attor dostonidagi g'oyalarni turk tilida targ'ib qilish bilangina cheklanib qolmaydi. U o'z davrining farzandi sifatida o'zi yashab turgan jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqea-hodisalarni, o'sha davr uchun dolzarb bo'lgan ijtimoiy va axloqiy masalalarni yoritishga harakat qiladi.¹ Dostondagi futuvvat haqida keltirilgan ko'plab satrlar bunga misol bo'la oladi.

¹ M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246.

Futuvvatiya yoki axiylik XIII-XIV asrlarga kelib Turkiyaning ko'pchilik shaharlarida ommaviy harakat tusini oladi. Bu harakat o'zining muayyan falsafiy va sotsial dasturiga ega bo'lib, uning o'ziga xos ichki qonun-qoidalari ham bor edi. Bu qonun-qoidalarining eng asosiylari haqida Gulshahriy shunday yozadi: "Qo'li saxiy, dasturxoni va darvozasi hammaga ochiq bo'lishlik, tili pok va g'iybat qilishdan xoli bo'lib, kishilar aybini ko'rganda ta'na qilmaslik " kabilarni keltirib o'tib, ularga to'liq rioya qilinsa, u futuvvat yo'liga kira oladi, degan fikrni ilgari suradi. Mazkur doston haqida tadqiqot olib borgan A. S. Levendning fikricha, asardagi futuvvat masalasiga oid fikrlar mashhur "Qobusnoma" ta'siri ostida vujudga kelgan. Bu xil o'xshashlikni to'liq ko'chirma deyish noto'g'ridir. Chunki har bir asar muayyan davr va ijtimoiy-siyosiy sharoitning mahsuli o'laroq, o'zida o'sha muhit uchun xarakterli bo'lgan g'oyalarni aks ettiradi. Binobarin, "Mantiqut-tayr" dostonida futuvvat haqidagi fikrlarning bunchalik keng o'rin olish sabablarini ham o'sha davr hayotidan izlash lozim. Demak, mazkur dostonidagi futuvvatiyaga oid o'rinlar A.S. Levend qayd qilganidek, "Qobusnoma" ta'sirida emas, balki shoir yashagan ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga kelgandir.

Gulshahriy o'z asarida tariqat yo'lini futuvvat orqali qabul qilish lozim, degan fikrni olg'a suradiki, bu holat shoirning nazariy masalarda Attor ta'sirida bo'lsa-da, amaliyotda undan jiddiy farq qilinishi va bu sohada o'z salafidan bir qadam olg'a ketganligini tasdiqlaydi.¹

Doston kompozitsiyasi an'ana bo'yicha qoliplash usuli asosida tuzilgan bo'lib, unda Gulshahriy Attorga o'xshash asosiy qissa ichida ko'plab hikoya va masallar ham keltiradi. Biroq ulardan ayrimlarigina Attor dostonidan olingan. Talantli shoir Attor asarida mavjud bo'lmagan ko'pgina yangi hikoyatlar ham yaratgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotning yaxshi bilimdoni bo'lgan. Gulshahriy bu ikki manbadan o'rinli foydalanadi. Asardagi

¹ Qudratullaev H. Navoiyning adabiy-estetik olami. -T.: G'ulom nomidgi Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991. -

“Dostoni Sheru Xargush” (“Sher va Quyon”dostoni) mashhur “Kalila va Dimna”ta’sirida yaratilgan bo’lsa, ayrimlari mavlono Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” , Shayx Sa’diy asarlari va Nizomiy dostonlari tarkibidagi hikoyatlaridan ilhomlanib yozilganligini A.S.Levend qayd etib o’tadi.Umuman asarda chuqur insoniy g’oyalar bilan sug’orilgan badiiy jihatdan yetuk hikoya va masallar anchagina bo’lib, ular Gulshahriyni turk adabiyotidagi mohir hikoyatnavis shoirlardan biri sifatida namoyon qiladi.

Shunday qilib, Gulshahriyning Attor asariga nazira tarzida yozilgan “Mantiq ut-tayr” dostonida muallifning o’zi yashab ijod etgan davr ijtimoiy-siyosiy voqealari, tasavvuf ta’limotiga bo’lgan munosabati o’z aksini topgan.Shoir an’anaviy qissaga ijodiy yondashgan holda uni o’z davri hayoti bilan bog’lab talqin qiladi.Falsafiy masalalarda u garchand asl yo’l tutmasa-da, so’fizmning amaliy va axloqiy tomonlarini yoritishda o’ziga xos yo’l tutadi.Nazariy muammolarni hal qilishda shoirning diniy-ilohiy qarashlari futuvvatiya harakatiga ham hayrixohlik bildiradiki, bu uning dunyoqarashi o’sha davr ijtimoiy muhiti bilan chambarchas bog’liqligidan dalolat beradi.

Mavlono Jaloliddin Rumi asarlarida ham bu jihatlarni ko’rishimiz mumkin.Rumiyni uning salaflari- Nizomiy, Sanoiy, Attor asarlari qanchalik ilhomlantirgan bo’lsa, undan keyin yashab ijod etgan ko’pdan-ko’p Sharq shoirlari Rumi she’riyatidan, ayniqsa, “Masnaviy”sidan yanada kengroq ta’sirlanganlar.”Masnaviy”, albatta, hikoyat yoki rivoyatlar majmuasi emas.Ammo uni tasavvufiy-diniy, falsafiy va hayotiy masalalarning badiiy tasvirlari berilgan hikoyat va rivoyatlarsiz tasavvur qilib bo’lmaydi.Eron olimi A.Zarrinko’bning fikr-mulohazalariga tayanib, “Masnaviy”dagi hikoyatlarni R.Jumayev to’rt guruhga ajratadi:¹

1. Xalq og’zaki ijodiyotidan olingan hikoyatlar.
2. Payg’ambarlar va tasavvuf arboblari bag’ishlangan hikoyatlar.
- 3.Yozma adabiyotdan o’zlashtirilgan hikoyatlar.

¹ Sa’dulaeva Ya.Ona ko’ngli. (Oila tarbiyasida onaning roli).-T.:O’zbekiston,1972.-396.

4. Ramziy - majoziy xususiyatiga ega hikoyatlar.

A.Zarrinkoʻb Rumiylarning hikoyatlarining bosh manbai sifatida “Qurʻon”, “Kalila va Dimna”, Sanoiy va Attor asarlari, “Jomeʼ ul-hikoyat” va xalq ogʻzaki ijodiyotini koʻrsatadi. Xususan, “Lison ut-tayr”dagi bir hikoyat bevosita Rumiylarning “Masnaviy”idan ilhomlanib yozganligi buning dalilidir.

Naql qilinishicha, “Mehtari aʼzam Sulaymoni nabi” bir kun taxtda orom olib oʻtirganda yoniga bir malak kelibdi. U jon oluvchi Azroil edi. Xuddi shu kuni oʻlimga mahkum bir kishini Sulaymon saroyida koʻrib, hayron qolgan Azroil paygʻambarga bu kishini jonini olishga kelganligini aytadi. Azroil qoʻlida jon taslim qilishi kerak boʻlgan kishi buni sezib, oʻlim changalidan qutulishning yagona chorasi mol-mulkni tark etib, boshqa yurtlarga qochish boʻlib tuyuladi. Shunda Sulaymon uni oʻzi istagan joyga olib bor deb, shamolga aytadi va u Hindistonga borib qoladi. Shamol toʻxtab, bir lahza orom olmoqchi boʻlganda Azroil uni jonini oladi. Hikoyatdagi “shamol” ramziy mazmunni ham aks ettiradi. Shuning uchun Navoiy oʻz fikrlarini:

Yel bila hamtaklik etsa gar kishi,

Ruh qabzi keldi Azroil ishi.¹

Har kim shamoldek yelsa ham, jonini olish Azroilning ishidir, deya xulosalaydi. Oʻlimni qayerda qanday qarshi olishi insonga bogʻliq emas. Ammo uning kuni bitgan boʻlsa, har qanday holatda ham oʻlimdan qocha olmaydi. Aksincha, Sulaymon saroyiga kelgan kishiga oʻxshab ixtiyoriy tarzda ajalga tomon chopadi. Hikoyadan kelib chiqadigan asosiy maʼno ham ana shudir. Bu hikoyat “Mantiq ut-tayr”da uchramaydi. Demak, u Navoiylarning ijodiy yangiligidir. Lekin, bu ixtiro ayni paytda anʼana va izdoshlikning samarasidir. Chunki, hikoyatga asos qilib olingan gʻoya va voqeaning badiiy talqinini yaratishda Navoiy Rumiylarning “Masnaviy”sidagi hikoyatlaridan biriga tayangan.

Yuqoridagi mulohazalaridan Navoiy bevosita oʻzining “Lison ut-tayr” dostonini yaratishda Rumiylarning hazratlariga ham murojaat qilganligi anglashiladi.

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Toshkent, 1991, 156-bet.

Navoiyning “Lison ut-tayr” dostoni shoir ijodida oʻta muhim oʻrin tutadi. Chunki buyuk mutasavvuf Farididdin Attorning oliy insonparvarlik, aniqrogʻi, ollohparrvarlik va tabiatparrvarlik gʻoyalarining ramziy tarannumi boʻlgan “Mantiq ut-tayr” dostonini Alisher 9-10 yoshlarida boshdan-oxirigacha yod olgandi. Navoiyning bu asarni yozishdan koʻzda tutgan bosh maqsadi Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoniga nazira yozish orqali qush tili vositasida oʻzining diniy-falsafiy taʼlimot sohadagi koʻp yillik ijodiy qarashlarini maʼlum tizimga solish va ularga xotima yasashdan iborat edi. Buni muallifning oʻz asari haqida aytgan “Chun “Lison ut-tayr” ilhoni bila tarannum tuzubmen, qush tili ishorasi bila haqiqat asrorini majoz suratida koʻrguzubmen”¹ kabi soʻzlaridan ham aniq bilib olsa boʻladi.

Bunday buyuk falsafiy obidani turkiy adabiyotda ham koʻrish orzusida bir umr yongan Navoiy bu xizmatni oʻzi, 1499-yilda “Lison ut-tayr”ni yaratib, oʻrinlatdi. Navoiy bu dostonni yozishga qadar yorqin ijodiy mehnat va jasorat bilan toʻla boʻlgan sharaflı yoʻlnı bosib oʻtdi.

Buyuklarga xos kamtarlik bilan Navoiy bu doston uchun qalam charxlar ekan:

Kim bu daftargʻa berib tavfiq haq,

Tarjuma rasmi bila yozsam varaq,-

dedi. Ayni paytda Olloh muhabbati otashida oʻrtangan ustozı Farididdin Attorni oʻzi yoqqan oʻtda yonib kul boʻladigan Qaqnus qushiga oʻxshatdi va oʻzini uning farzandi deydi: Men demonkim, ul- atodur, men- oʻgʻul,

Ul- shahi oliysifat ,men-banda, qul.

Navoiyning yosh qalbini bunchalik rom etgan asar haqida “Lison ut-tayr”dagi Attor asarlari haqidagi maʼlumotdan soʻng yoziladiki:

Bir taraf borigʻa oyinu sharaf,

“Mantiq ut-tayr”igʻa oyin bir taraf.

Ondakim darj etti qushlardin maqol

¹ Alisher Navoiy. Muhokamatul-lugʻatayn. Asarlar. 15 tomlik. 14-tom, Toshkent, 1967, 120-bet.

O'zga tildir, o'zga so'zdur, o'zga hol.

Bu asarni yoza boshlaganida hijriy yil hisobida Alisher Navoiy oltmish yoshda edi:

Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,

Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.

Savol tug'iladi: nega shoir bu ishga ertaroq kirishmadi? "Lison ut-tayr"ni o'qisak bunga javob topamiz. "Bu kitob nazmida o'z munosabatining taqribi" sarlavhasida shoir gapni o'zining maktabdagi mashg'ulotidan boshlab, yozgan asarlarigacha hikoya qiladi:

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Shu o'rinda Foniylar taxallusi mazmuniga to'xtalish ham joizdir: chunki ko'pchilik bu so'zning lug'aviy ma'nosi bilan cheklanib, bebaqo, o'tkinchi, muvaqqat deb o'ylashadi. Vaholanki, shoir talqinida bu so'z ning ma'nosi behad terandir: dostonida qushlar siymosida nazarda tutilgan odamlar yetti vodiy – Talab, Ishq, Ma'rifat, Hayrat, Istig'no, Tavhid va Fano vodiylarini bosib o'tadilar va foniylar bo'ladilar: ya'ni:

Qilibon Simurg' o'ttuz qush havas,

O'zlarin ko'rdilar ul si murg'u bas.

Simurg'ni izlab chiqqan qushlar si murg' o'zlari ekanliklarini bildilar. Odamlar Ollohnin izlab, yetti riyozat bosqichini bosib o'tib Fanoga yetganda o'zlarining vujudlari fano bo'lib, ruhan Olloh bilan birlashdilar : Foniylar bo'ldilar.¹

Foniylar

Navoiy orzusi, Foniylar Olloh oshig'ining bosib o'tajak riyozat bosqichida kamolot cho'qqisidir.

Sho'rolar davrida "Lison ut-tayr" nashr etilgan va o'rganilgan bo'lsa-da, uning falsafiy talqinidagi biryoqlamalilik va ayniqsa Farididdin Attor qarashlariga adolatsizlarcha noto'g'ri munosabat hukm surdi. Vohid Zohidov, Natan

¹ Haqkulov I. Tasavvuf va she'riyat. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-846.

Mallayev va Olimjon Jo'rayev tadqiqotlarida Farididdin Attor dostonining falsafasi mistitizm-tarkidunyochilik, Navoiy dostoni falsafasi esa panteizm deb keskin farq ettirildi. Ayni ana shu fikrda ustoz dostoniga nisbatan adolatsizlik hukm surdi. Bu ularning aybi emas, albatta. Sho'rolar tuzumi mafkurada ham ilmda ham uslubiga "oq-qora" tarzida qarama-qarshi qo'yish amal qilib keldi: Navoiy maqtalib, Husayn Boyqaro sha'ni toptaldi; Navoiy maqtalib, ustoz Attor falsafasiga bepisand munosabat bildirildi. Vaholanki, Navoiy va Husayn Boyqaro bir-biriga jon fido qilishga shay bo'lgan tariximizning buyuk siymolari edilar... Xolbuki, Navoiy va Attor bir falsafiy qarash – tasavvuf kuychilari edilarki, shu bois o'z asarida shoir Attorni otam deya e'zozlagan edi.

Attor ham, Navoiy ham odamni goh Ollohnin soyasi, goh Ollohning o'zi sifatida talqin etadilar. Ammo sho'ro olimlari haqiqatni aytishdan cho'chidilar. Zero, tasavvuf olamda Ollohdan boshqa narsa yo'q: biz ko'rib turgan narsalar Olloh jilvasi deydi. Ya'ni borliq Ollohdan iborat, jonli-jonsiz mavjudotlar Olloh nomli buyuk quyoshning zarralaridir. Axir Mavlaviy Jaloliddin Rumi ochiqchasiga har birimizga boqib:

"Ilohiy – Siz! Ilohiy – Siz! Ilohiy – Siz!" deb bejiz aytmagan edilar. Ilohiy zarralar sharafini anglagan inson boshqaga nisbatan – Olloh namunasi – zarrasiga nisbatan yomonlik qilolmaydi; yomon ko'rolmaydi; ozor berolmaydi; o'zgani Ollohnin e'zozlaganday e'zozlash zaruratini anglaydi. U choq yer yuzi insonlar uchun jannatga aylanadi. Bu tasavvuf tantanasi demakdir!

Alisher Navoiy bizning kimligimizni ramziy ma'noda "Lison ut-tayr"da tanitgan, hoy, "sen Olloh namunasisan!", deya xitob qiladi.¹

Xulosa qilib aytganda, ramziy-majoziy usul orqali, xususan, qush tili vositasida badiiy asar yozish Sharq xalqlari adabiyotida qadimiy va murakkab tarixga ega bo'lib, bu xildagi asarlarning dastlabki namunalarini xalq og'zaki ijodida ham uchratishimiz mumkin. Ammo, rasmiy tarzda yozma adabiyotda qush tili vositasida yozilgan badiiy-falsafiy asarlarning ilk namunasi

¹ Haqkulov I. Tasavvuf va she'riyat. Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.-846.

Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub “Risolatut-tayr” asaridir. Mazkur asarning yaratilishi bilan bevosita Sharq xalqlari badiiy tafakkuri taraqqiyotida chuqur iz qoldirib, ularda yangi bir an’anani – qush tili orqali badiiy-falsafiy asar yozish an’anasini boshlab berdi. Davr o’tishi bilan insonlarning tajribasi ham orta boradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu asarlarning har taraflama, ham g’oyaviy jihatdan, ham mazmun jihatidan eng yuksak hamda yetuk namunasi bu albatta, Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonidir. Yana shuni ta’kidlash joizki, har bir asar yaratilayotgan davrning eng dolzarb muammolarini aks ettirishini inobatga olsak, G’azzoliy, Gulshahriy va Attor asarlarini ham bu tipdagi yuksak asarlar desak bo’ladi.

2.3. Alisher Navoiy asarlarida axloqiy g’oyalarni aks etishi

Alisher Navoiy insonning axloqiy xislatlari, yaxshi fe’l-atvorlar xususida to’xtab o’tar ekan, avvalo har bir insoniy faziltning ta’rifini beradi.

U yaxshi fe’llarga - qanoat, sabr, tavoze’ va adab, ishq va vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko’ngillilik (hilm) kabi xislatlarni kiritib, har birining ta’rifidan so’ng tanbeh va hikoyatlar vositasida o’z fikrini to’ldiradi. Navoiy yuqorida zikr qilib o’tilgan xaslatlarga ta’rif berish bilan birga ularga qarama-qarshi bo’lgan yomon ilatlar to’g’risida so’z yuritadi va ulardan qutilish yo’llarini ham bayon qiladi.

Axloqlilikning eng muhim belgisi sanalgan odob haqida fikr yuritar ekan: «Adab kichik yoshdagilarni ulug’lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod baxramand bo’ladi. Adab kichkinalar mehrini ulug’lar ko’ngliga soladi va u muhabbat ko’ngilda abadiy qoladi.

Adabdan muhabbatga bezak va pardoz etadi, adab tarkidan do’stlikning ravnaq va bahosi ketadi. Adab va tavoze’ do’stlik ko’zgusini yarqiratadi, ikki tomondan yorug’lik etkazadi.

Tavoze’li va adablilarga ta’zim va hurmat etadi va u urug’ni ekan bu qimmatbaho hosilni to’plab oladi. Xalq muomalasida yaxshi axloqning

boshlang'ichi shu xislatlar va bu xislat qattiq o'rnashsa muhabbatga xalal etishi maholdir. Agar har ikki tomonda yaxshi xulq bo'lsa, adabi va tavoze' evaziga va ta'zim paydo bo'ladi»¹. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostoni ulug' mutafakkir shoirning butun ijodiy faoliyati davomida ilgari surilgan ilg'or falsafiy qarashlarni umumlashtirib, ularga yakun yasaydigan asar sifatida muallif ijodida o'ziga xos o'rin egallaydi. Chunki, Navoiyning bu asarni yozishdan ko'zda tutgan bosh maqsadi Farididdin Attorning "Mantiq ut- tayr" dostoniga nazira yozish orqali qush tili vositasida o'zining ilohiy-diniy ta'limot sohasidagi ko'pyillik ijodiy qarashlarni ma'lum tizimga solish va ularga xotima yasashdan iborat edi. Buni muallifning o'z asarlari haqida aytgan "Chun "Lison ut-tayr" ilhoni bila tarannum tuzubmen, qush tili ishorasi bila haqiqat asrorining majoz sur'atida ko'rguzub men"¹ kabi so'zlaridan ham aniq bilib olsa bo'ladi. "Mantiq ut-tayr" hamda "Lison ut-tayr" tipidagi asarlarni sujet taraqqiyoti nuqtai nazaridan o'rganish, birinchidan, an'anaviy sujet umumiylikdan, xususiylikga qarab rivojlanganligini ko'rsatsa, ikkinchidan, sujetning obrazlar tizimi g'oyaviy-mazmun talabiga mos holda yangilanib va takomillashib borganligini tasdiq etadi. Qushlarning ramziy sarguzashtlarini tasvirlovchi majoziy qissa turli dunyoqarashdagi mualliflar uchun ularning ijtimoiy-falsafiy masalalarga oid qarashlarini ifoda etuvchi o'ziga xos badiiy vosita bo'lganligi tufayli sujet va obrazlar talqini ham ana shunga muvofiq tarzda o'zgargan va rivojlantirilgan. Ibn Sino, G'azzoliy, Attor, Gulshahriy va Navoiy asarlaridagi sujet va obrazlarning o'ziga xosligi ham mazkur holat bilan izohlanadi.

Navoiyning "Lison ut- tayr" dostoni kelib chiqishi jihatidan Attorning "Mantiq ut- tayr" asari bilan bevosita va Attor dostoni orqali Gulshahriy, G'azzoliy va Ibn Sino asarlari bilan bilvosita aloqaga kirishadi.

Navoiy bu dostonni yozish bilan o'zbek tilida ham fors-tojik adabiyotida bo'lgani kabi majoziy uslubda chuqur falsafiy mazmunli badiiy asar

^{1 1} Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar, O'n besh tomlik, Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 13-tom, 1966, 206-207-betlar.

¹ Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Asarlar. 5n besh tomlik. 14-tom, Toshkent, 1967, 120-bet.

yozish mumkinligini birinchi marta amaliy jihatdan isbotladi va o'zbek adabiy tilining bu sohadagi imkoniyatlarini namoyish etdi.

“Lison ut-tayr” dostoni janr xususiyatlariga ko'ra faqat Navoiy ijodida emas, o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida ham tamoman yangi voqea bo'ldi. Bu asarga qadar o'zbek adabiyotida falsafiy-didaktik, ishqiy-romantik, ishqiy-psihologik, ishqiy-sarguzasht va qahramonlik kabi janrlarda dostonlar yozilgan edi. “Lison ut-tayr” esa o'zbek dostonchiligining yangi janri – allegorik - falsafiy doston janrining g'oyaviy-badiiy jihatdan ilk yetuk namunasi hisoblanadi. Shu sababli mazkur asar o'zbek epik poeziyasining janr rang-barangligini taminlash va boyitishda mislsiz hissa bo'lib qo'shildi.

Xullas, Attor dostoni Navoiyga juda kuchli ta'sir ko'rsatib, shu kabi asar yozish uning bir umr orzusi bo'lib kelgan. Buyuk shoir o'zining mashhur “Xamsa”sini yozib tugatgandan keyin ham ana shu ezgu niyat bilan yashardi. E. Bertels va boshqa olimlarning tadqiqotlarida Navoiy Attor dostonini tarjima qilmoqchi bo'ladi¹ deb quyidagi baytga asoslanadi:

Kim bu daftarga berib tavhiq haq,

Tarjuma rasmu bila yozsam varaq

Navoiy o'z asarini Attor dostonining tarjimasi deb atagan, degan mulohazalar bildiradilar. Bizningcha Navoiy bu o'rinda o'z dostonini “tarjima” deb atamayapti, balki Attor asarini tarjima qilmoqchi bo'lganligi haqidagi o'z ijodiy niyatini qayd etyapti. Asarning shundan keyingi o'rinlaridagi shoirning :

Lek so'z dushvor edi, men notavon,

Bormas erdi xomag'a ilkim ravon.

Oqibat ko'rdumki umr aylar shitob,

O'lsamu qolsa deyilmay bu kitob.

Oltmishqa umr qo'yg'onda qadam,

Qush tilin sharh etgali yo'ndum qalam.

¹ E. E. Bertels .Navoiy va Attor. Monografiya. Rus tilidan Ibodulla Mirzaev tarjimasi. – Toshkent, 2005, 75-bet.

kabi soʻzlari ham shundan dalolat beradi. Koʻrinadiki, Navoiy avval Attor dostonini tarjima qilishni rejalashtirgani ammo bu ishni amalga oshira olmagan.

Nihoyat, umrining soʻnggi yillarida oʻzining bu niyatini oʻzgartirgan va qush tilini sharhlovchi asar yozishga kirishgan. Shuningdek, Navoiy mazkur dostonning boshqa oʻrinlarida uni Attor dostoniga javob-nazira maʼnosidagi “payrav” (173-bob) va “tatabbuʻ ” (174-bob) tarzida baholaydi. Shularga asoslanib, Navoiy oʻz dostonini Attor asarining “tarjima”si emas, balki unga javob-nazira tarzida yozilgan oʻziga xos asar deb hisoblash mumkin.

Attorning Garsen Doʻ Tassi nashrga tayyorlagan “Mantiq ut-tayr”dostoni kirish, yigirma toʻrt maqola va xulosadan iborat. Bu nisbatan yirik boʻlimlar, oʻz navbatida, hikoyat deb ataluvchi qator mayda fasllarga ham boʻlinadi. Biroq buni dastlabki boʻlinish deb hisoblash qiyin, negaki, Sharq qadimgi qoʻlyozma va toshbosmalarining katta qismi bunday boʻlinishni bilmaydi va odatda, nisbatan yirik boʻlaklarga birlashmaydigan kichik boblarni oʻz ichiga oladi.¹

“Lison ut-tayr” 3598 baytni oʻz ichiga oluvchi 193 bobdan tashkil topgan boʻlib, hajm jihatdan shoir dostonlari orasida eng kichigi hisoblansa-da, murakkab kompozitsion tuzilishga ega. Dostonni kompozitsion tuzilish anʼanaviy muqaddima (X-XIII boblar), asosiy qism (XVI-CLXXI boblar) va xotima (CLXXII-CXCIII boblar) kabi boʻlaklarga ajratish mumkin.

Umumiy muqaddima ham oʻz navbatida hamd, munojot, Muhammad Paygʻambar va uning choryorlariga bagʻishlangan naʼtlar, Abu Bakr Siddiq, Umari Foruq, Usmon Zunnurayn, hazrati Aliga bagʻishlovlar kabi tadrijiy qism va asosiy qissaga prolog vazifasini oʻtovchi Farididdin Attor va uning “Mantiq ut-tayr” dostoniga bagʻishlangan qismlarga boʻlinadi.

Dostonning asosiy qismi hikoya ichida hikoya usulida yozilgan boʻlib, u qushlarning Simurgʻ tomon qilgan safarini tasvirlovchi qoliplovchi

¹ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 1993. -

qissa va undagi ayrim epizodlarga ilova tarzida keltirilgan qirqdan ortiq hikoya, masal va latifalarni o'z ichiga oladi.

Asarning xotima qismi tariqatdagi yetti bosqichga bag'ishlangan munojotlar, shoirning o'z asariga bo'lgan munosabati, asarda qo'llanilgan taxallus masalasi, Sulton Husaynga madhiya va asar ta'rixiga oid boblardan iboratdir.

Doston qoliplovchi qissasi o'ziga xos kompozitsion xususiyatga ega bo'lib, u asardagi bosh g'oyaviy mazmunni ifoda etishga xizmat qiladi. Undagi turli qismlarning asosiy mavzu va bosh g'oyaga nisbatan maqsadga muvofiq tarzda joylashtirilishi asar kompozitsion tuzilishini belgilaydi. Qoliplovchi qissaning o'z sujeti, g'oyaviy mazmuni va shularga muvofiq keluvchi kompozitsion qurilishi mavjud. Shuningdek, undagi ayrim epizodlarga ilova tarzida keltirilgan hikoyatlarning ham o'z sujeti, g'oya kompozitsiyalari bor. Shunga binoan ular o'ziga xos mustaqil asarlar ham sanaladi. Lekin ular asosiy qissaning mavzusi jihatdan bosh kompozitsion yo'nalishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning muhim tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Ularni dostonidan chiqarib tashlash mumkin emas, aks holda asarning g'oyaviy mazmuniga jiddiy putur yetadi.¹

Shoirning oltinchi dostonida qo'llanilgan bu usul ko'proq uning "Hayrat ul-abror" va "Saddi Iskandariy" dostonlaridagi kompozitsion usullarni eslatadi. Jumladan, har uchala dostonida ham shoir hikoyatlarni ulardan avvalgi bobda bayon qilingan fikr-mulohaza, voqea va nazariy tezislariga isbot-dalil yoki ilova sifatida keltirganki, bu jihatdan ular bir umumiy tamoyilga ega. Umuman, "Xamsa"da shoir dostonchiligidagi kompozitsion holatlarning sintezlashuv hodisasi mavjud bo'lib, bu narsa "Lison ut-tayr" asarida kompozitsion usullarni o'ziga xos umumlashtirganidan dalolat beradi.

Birinchi parcha Attorda ham, Navoiyda ham maxsus sarlavhaga ega emas va ollohga hamdlardan iborat: dunyo yaratilishining tasavvufiy konsepsiyasi, Odam Ota tarixi, Shaytonning quvilishi va Odam Otaning jannat

¹ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 1993. -

Lison ut-tayrning III-XII boblarida an'anaga ko'ra, Muhammad payg'ambar va dastlabki to'rt xalifa madh etilgan. Me'roj voqeasiga oid to'rtinchi bobning o'ziga xos tomoni shuki, unda shoir payg'ambarning Buroq nomli afsonaviy otda koinot orqali xudo dargohiga ko'tarilish jarayonini alohida yo'sinda, o'sha davr astronomiyasi, ayniqsa Samarqanddagi Ulug'bek maktabi erishgan ulkan yutuqlardan samarali foydalangan holda tasvir etadi. Bunday holatda E.Bertels qayd qilganidek, Attor kuzatilmaydi.

Navoiy dostonning asosiy qismini boshlashdan oldin ustoz Farididdin Attor madhiyasiga maxsus bob ajratadi va uning ijodiy faoliyatiga

Har ne gardun bahr ila konida bor,
Oncha yuz Attor do'konida bor¹

deya yuksak baho beradi. Navoiy Attor ijodiyoti o'z mohiyatiga ko'ra "vahdat sirlari" ni sharhlashga bag'ishlangan ekanini qayd qilish bilan birga, uning mashhur asarlari sirasiga "Musibatnoma", "Ilohiynoma", "Ushturnoma", qasida, g'azal, va ruboiylardan tartib berilgan "Devon" va "Tazkirat ul-avliyo" kabilarni sanab o'tadi. Ammo shoir fikricha, mazkur asarlarning barchasi Attor ijodining muhim bir tomonini tashkil etib, qanchalik katta sharaf va maqtovg'a sazovor bo'lsa, yolg'iz "Mantiq ut-tayr" dostonining o'zi shunchalik maqto'v va shara'fga loyiqdir. "Lekin Shayx ruhi madadi bilan men ham qush tili vositasida asar yozishga kirishmoqchiman" der ekan Navoiy, Attor dostonining o'z asari yuzaga kelishida muhim bir turtki bo'lib xizmat qilganini ta'kidlaydi.

Attor dostonining navbatdagi to'rt bobi- birinchi to'rt xalifa ta'rifini Navoiyda ham ko'ramiz, faqat bir farqli tomon bilan: har bir ta'rifdan keyin uncha katta bo'lmagan hikoyat keladi. Mavzu xalifalarning tarjimai hollaridan olingan va uning vazifasi ta'riflanayotgan shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ziynatlab ko'rsatishdan iborat. Shunday qilib, Navoiyning mazmun bayoni aniq xulosalar beradi, Attorniki esa shakliy jihatlariga e'tiborini qaratgan. Masalan:

Xojai avvalki avval yori o'st,

¹ Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. 12-bet.

Soni isnoti az xuna filg'ari o'st.

Xojai shar'i oftob jam'i din,
Zilli Haq foriqi a'zam Sham'idin.

Xojai sunnatki nuri mutlaq ast,
Bal xuzovand du nur barhaq ast. . ("Mantiq ut-tayr")

Ulki sultoni rasulg'a yordur,
Soni istaganiz huna filg'ordur.

Ulki payg'ambarg'a hamdam erdi ul,
Shubhasiz, foriqi a'zam erdi ul.

U hayo koni nurul aynl edi,
Aylakim aynayni zi nurayn edi.¹ ("Lison ut-tayr")

Alining vasfi (10-bob) Navoiyda Attornikidan birmuncha farq qiladi. Kiritma boblarda Navoiy quyidagi mavzularni qo'llaydi: 5-bob. Abu Bakr zakotni man qilishni talab qilgan musulmonlarga qarata shariatdagi "bir ishni" ham o'zgartirilmassligini aytadi. 7-bob. Madina talon-taroj qilingandan keyin Umar o'ljadan o'ziga hech narsa olmaydi va barcha ulushlarini bayt al-molga beradi. 9-bob. Odamlar kelishganda, payg'ambar oyoqlarini uzatib o'tirar, biroq Umar kelganda esa uning nafsoniyatga tegmaslik uchun oyoqlarini yig'ishtirib olardi. 11-bob. Dushman nayzasining uchi Alining suyagiga kirib qoladi va yaqinlari uning dardini kuchaytirmasdan, qanday chiqarib olishni bilmaydilar. Payg'ambar bu ishni Ali ibodatga berilgan paytda qilishni maslahat beradi, chunki namoz paytida u tashqi dunyoni shu darajada unutadiki, hatto, og'riqni ham sezmaydi. Payg'ambarni aytganini qiladilar. Bundan xabar topgan Ali xulosa qiladi:

¹ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 1993. -

Kim xalos o'lmoq ajal paykonidin,
Mumkin ermas juz nabi ehsonidin.

Birinchi xalifalar ta'rifidan keyin Navoiy Attor madhiga o'tadi (12-bob), o'z niyatini amalga oshishida uning ruhidan madad so'raydi. Attor dostonining shu yerida esa shialar va sunniylar o'rtasidagi dushmanlik haqidagi juda muhim bir bob bor. Bunda Attor hijriy IV-Vasrlar fors so'fiylari o'rtasida odat tusiga aylangan yarshtiruvchilik nuqtasida turadi. Bir tomondan, u shialarni Umarga nisbatan adolatli bo'lishga chaqirsa, ikkinchi tomondan, so'fiylarga Ali o'z salaflariga dushmanlik kayfiyatida bo'lmaganini, binobarin, jamoat adovatni to'xtatishi kerakligini tushuntiradi. Ushbu o'rinlar juda mayda-chuyda tafsilotlar bilan bezatilgan. Tabiiyki, Navoiy ularni tushirib qoldirgan. Shu yerga kelganda, har ikkala shoirda ham kirish qismi tugaydi va hikoya boshlanadi.¹

Demak, an'anaviy muqaddimaning so'nggi bobi o'z mazmuni e'tibori bilan asosiy qissaning prologi vazifasini o'taydi. Shuningdek, asosiy qism mazkur bob orqali muqaddima bilan ma'lum mantiqiy bog'lanishga ega bo'lib, bu bilan Navoiy an'anaviy muqaddima va asosiy qismlar o'rtasidagi kompozitsion aloqani mustahkamlaydi. Qissadan hissa shuki, ikki tilda yaratilgan bir mavzudagi dostonlarda badiiy mahorat ko'rinishlari asarlar kompozitsiyasining o'ziga xosligida, sujet yaratilishida, badiiy san'atlar qo'llanilishida, kompozitsion vositalardan ustalik bilan foydalanishlarida ko'rinadi.

“Lison ut-tayr”ning badiiy-poetik xususiyatlari haqida yuqorida bildirilgan mulohazalar, Alisher Navoiy tomonidan ilgari surilgan badiiy asarda mazmunning birlamchiligi, mazmun va shaklning o'zaro aloqadorligi hamda yuksak ijtimoiy mazmun go'zal badiiy shaklda ifodalanishi lozimligi haqidagi ilg'or adabiy-estetik qarashlarga shoir umrining oxiriga qadar sodiq qolgani va

¹ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 1993. -

bu talabni o'z ijodiga to'la tadbiiq qilgan holda ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritganligini har tomonlama tasdiqlab va isbotlab turibti.

Navoiy doston tilining badiiyligi va xalqchilligini amalga oshirishda jonli xalq tili durdonalari hisoblanganmaqol frazeologik va turg'un birikmalardan keng foydalanadi. Bu esa, asarga hayotiylik baxsh etadi. Ayniqsa, Navoiy jonli xalq so'zlashuv tiliga xos ayrim bo'yoqdor so'z (masalan, "uyat", "hayf", "mokiya" va b.) va iboralarni doston tarkibida ko'plab qo'llab, asar tilining xalqchil chiqishini, uning obrazli va ifodali bo'lishini ta'minlagan. Dostonda erta kunni kech qilma, yo'lingdan qolma, boshga solmoq, boshidan chiqmoq, yerga urmoq, yuzi qaro bo'lmoq, hazilni chin bilmoq kabi iboralardan foydalanilgan. Diqqatga sazovor joyi shundaki, yuqorida qayd etilgan iboralarning ko'pchiligi hozirgi kunda ham xalq jonli so'zlashuvida keng qo'llaniladi.¹

Demak, yaxshi xulq asosi – odob, u Navoiy nazdida barcha insoniy xislatlarning boshlanishi sanaladi. Komil insonga xos xislatlar ana shunga bog'liq ravishda ta'rif beriladi. Zero, haiqiy insonga xos xislatlar - qanoat, sabr, tavoze', ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillilik) xudu shu odobli kishida tarkib topadi.

Masalan, «qanoat – buloqdir, suvi olingani bilan qurimaydir. Xazinadir – naqdinasi sochgan bilan kamaymaydir. Ekinzordir – urug'i izzat va shavkat mevasi beradidir. Daraxtdir – shoxi tortinchoqlik va hurmat mevasi etkazadi», deb ifodalaydi.

Demak, qanoat insoniylik belgisi. U insonni yomon kunlardan asraydi. Chunki, qanoat qanchalik og'ir va mashaqqatli bo'lmasin insonni nafs balosidan, do'st-dushmanidan, ta'magirlikdan xolos etadi. Shuning uchun alloma hech qachon ta'maga berilmaslik, halol mehnat bilan hayot kechirish qay darajada ulug'ligini ta'kidlab, ta'ma va ochko'zlik xasislik insoniylik zavoli, deb ta'riflaydi.

¹ Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 1993. -

Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi, sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir.

Saxiylik va insoniylikning haqiqiy mezoni sifatida ta’rif beriladi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta’limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning qarashlari o’zidan oldin o’tgan salafларining bu boradagi ilg’or ta’limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an’anaviy Sharq xalqlari ta’lim-tarbiya yo’riqlariga asoslanadi.

XULOSA

Buyuk insonparvar Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", "Lisonut-tayr", "Nazmul javohir" asarlarini insonparvarlik yo`nalishidagi axloqiy-estetik ruhiyatini ochishda har bir ma'naviy insoniy sifatlarni alohida tahlillariga etibor berib, ularning mohiyatlariga misollar keltirilishi insonparvarlik g'oyalarni shakllantirishga yana bir omil bo`lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik yo`nalishdagi axloqiy-estetik sifatlarning zarurati in-onning ma'naviy-hissiy vujudidan kelib chiqishi asosanib yoshlarga singdirilishi lozim.

Mazmun oddiy axborot beruvchi matn sifatida emas, balki yoshlarning ruhiy-hissiy siymosiga ta'sir qiladigan qilib, insonparvarlikka yo`naltirilgan ahloqiy-estetik sifatlarni majmuasi yoshlarning shaxsiy tajribasida egallanadigan qilib tuzilishi va shunga mos tarbiya shakllari, usullari tanlanganda ko`zlangan manfaat kasb etadi.

Xalqimizning mustaqillikka erishishi dunyo taraqqiyotiga katga hissa qo`shilgan "sharq madaniyati", "ma'naviyati" deb nom olgan ulkan merosimiz xazinalarini yangidan ochish, ulardan ajoyib mehnatsevar, insonparvar ulug' xalqqimiz bahramand qilish, yoshlarni shu ulug' an'analar ruhida tarbiyalashga yangi imkoniyatlar yaratib beradi.

Aslida insonparvarlik g'oyasi axloqiy - estetik sifatlarning uyg'un majmuasidan iborat ekanligini aniqladik. Chunki haqiqiy insonparvarlik qalb go`zalligidan boshlanadi. Qalb go`zalligiga esa axloqiy - estetik sifatlarni shakllantirish orqali erishish mumkin.

Bu aslida Zardo`shtiyning "Avesto", Firdavsiyning "Shoxnoma", Yusuf Xos Xojibning "Qutadg'u bilig" asarlaridan boshlanadi. Ularning nazariy - amaliy asoslari esa so`fiylik, tasavvuf ilmlari, ma'naviy -ilmiy tariqatlarida aks etgan edi.

Shayx Aziziddin Nasafiy komil inson yaxshi so`z, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma'rifat sifatlariga ega bo`lish kerak, deb komil inson tarbiyasida amaliy fao-liyat asos ekanligini ko`rsatib berdi. Tasavvuf, tariqat ilmining asoschilaridan biri ulug' mutaffakkir olim Muhammad Ibn Jaloliddin Bahouddin Naqshband tariqatlari aslida go`zallik inson qalbida boshlanishini uning faoliyatda o`sishi, rivojlanishini

nafaqat asarlarida, faoliyatida ham ko`rsatib beradilar. Ilmiy amaliy me`rosimizni o`zining ibratli xayoti va faoliyati orqali halqqa etkazish Navoiyning maqsadi bo`lgan. Bu boy manbaalarni o`rganishimiz bizga komil insonni tarbiyalashda axloqiy - estetik sifatlar majmuasini shakllantirish muhim ahamiyatta ega ekanligi xulosasiga olib keldi.

Inson sifati ruhiy dunyoni tushunish, xissiy kalbdan go`zallikka erishish va unga faoliyatda amal qilishda namoyon bo`ladi. A.Navoiy asarlarini axloqiy – ma`naviy sifatlar uyg'unligi asosida o`rganish, bu sifatlarni alohida - alohida qarash, ularga tasnif berish va sifatlarni yoshlarda shakllantirishning mazmuni, shakllari va usullarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Insonni kamolotga etkazuvchi sifatlar sabr, qanoat, ma`naviy - axloqiy sifatlar sanab o`tiladi.

Ulug' mutafakkir A.Navoiy uch fe'l odamning boshiga etadi deb ko`rsatadi: 1) axloqsizlik 2) nafs 3) shuhratparastlik.

Bu yomon xislatlarning xar biriga tasnif berish bilan birga ularning yomon oqibatlariga olib kelishini yoshlarga A.Navoiy asarlardagi hayotiy ibratlar bilan ko`rsatildi.

Axloqiy - estetik sifatlar tizimi ma`naviy -ma`rifiy, tasavvuriy - musavvuriy, musiqaviy - xissiy sifatlar majmualaridan iborat. Bu sifatlar A.Navoiy asarlaridagi axloqiy - insoniy sifatlarni anglash, musiqa san'ati, raqs san'ati, rassomchilik, xaykaltaroshlik, me'moriy ansanbllar, aktyorlik mahorati, go`zallik manzaralari, buyumlar go`zalligini ko`ra bilishda, odamlarning o`zaro munosabatlari, fikrlashlari, xatti - xarakatlari, his – hayajonlari, namoyon bo`ladi.

Mutafakkirlarining insonparvarlik va ma`naviy-ma`rifiy g'oyalari asosida yoshlarni axloqiy-estetik tarbiyalashning nazariy va amaliy o`rni aniqlanib bular asosida quyidagi xulosalarga keldik:

Alisher Navoiy o`z davrining fan yutuqlarini tasavvuf ilmining ma`naviy-axloqiy asoslari bilan uyg'unlashtirdi va o`zining hayotiy tajribasiga

tayangan holda "Mahbub ul-qulub", "Lisonut-tayr" va "Nazmul javohir" asarlarini ijodiy-amaliy faoliyatining xotimasi sifatida yaratdi. Bu asarlar jamiyatni, kishilikni insonparvarlashtirishda ilmiy amaliy qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Insonparvarlik yo'nalishdagi tarbiya insonning ruhiy-hissiy mohiyatiga va axloqiy-estetik sifatlar uyg'unligiga asoslanadi. Shunga ko'ra axloqiy-estetik sifatlar tizimi ma'naviy-ilmiy, tasavvuriy-musavvuriy, musikaviy-hissiy si-fatlar majmuasi tizimida yaratilib, bu tizimning nazariy-amaliy asoslari ishlab chiqildi.

Ulug' mutafakkir asarlarini o'rganish, ularni o'zlashtirish jarayonida A.Na-aoiy asarlarining tub mohiyati yoritib beriddi, ya'ni insonparvarlik yo'nalishi-yaing axloqiy-estetik tarbiyasidagi tutgan o'rnini aniqlash va uni amalga oshi-rish yo'llari belgilandi.

Ongli, ma'rifatli insonparvarlik vafo, saxovat, lafzi halollik, kamtarlik, yumshoq tabiatlilik kabi sifatlar insonninng sog'lom fikriga tayanadi, aqlilik bilan boshqarib, qalb amri orkali amalga oshiriladi. Shuning uchun ishimizda yoshlarning, qalb go'zaligini o'z-o'zini bilish, o'zini anglash vositasida tarbiyalashga alohida ahamiyat beriddi. Shuningdek yosh avlodni insonparvarlashtirish, axloqiy-estetik rivojlantirish ularning ruhiy-estetik takomillashuvi uchun zarur ekanligi, bu esa o'z navbatida har bir shaxs va jamiyat farovonligining asosi ekanligi nuqtai nazaridan tadqiq etildi va bu nuqqai nazar o'z echimini topdi.

ADABIYOTLAR RUYXATI.

1. Islom Karimov. «O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», 1- jild, Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 1996 yil.
2. Islom Karimov «Bizdan ozod va obod Vatan qolsin», 3- jild, Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 1996 yil.
3. Islom Karimov «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» jild, Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 1996 yil.
4. Islom Karimov «Turkiston umumiy uyimiz» Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 1995 yil.
5. Islom Karimov «O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari», Toshkent, «O`zbekiston» nashriyoti, 1997 yil.
6. Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikga erishish ostanasida. T.: O`zbekiston, 2011.-B. 69.
7. Karimov I.A. Xotira chirog'i o`chmaydi. // Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. – T.:O`zbekiston, 1999. T.7. – B.407.
8. Karimov I.A. Xotira boqiydir, qadr – muqaddas. // O`zbekiston ovozi. – 2009. – №56 – B.1 – 2.
9. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz-kelajak yo`q. T.: “O`zbekiston, 1996y-22b.
10. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar.- T., “O`zbekiston” 2001 yil.
11. “Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat engilmas-kuch.-T.:2008,-47-bet.
12. O`zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo`ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo`nalishlariga bafishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma`ruzasi. Xalq so`zi. 2005. 19yanvar.
13. Boyqobilov B. O`zbeknoma.- T.: Sharq, 1999.
14. Jakbarov M. Komil inson g`oyasi .- T.: Yangi asr avlodi, 2002.
15. Jo`raev N. Mafkuraviy immunitet.-T.: Ma`naviyat, 2001.

16. Karimova V, Umarov A., Qur'onov M. Milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari.- T.: Yangi asr avlodi, 2001.
17. Karimov N. Istiqlolni uyg'otgan shoir.- T.: Ma'naviyat, 2000.
18. Otamurotov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy taxdidlar.- T.: Yangi asr avlodi. 2001.
19. Sa'dulla Otamuratov, Sarvar Otamuratov. O'zbekistonda ma'naviy- ruhiy tiklanish.- T.: Yangi asr avlodi, 2003.
20. Choriev A., Mansurov A. G'oya, tarix va milliy tafakkur. –T.: Yangi asr avlodi, 2002.
21. Qodirova M. Yoshlar ongida g'oyaviy dunyoqarashni shakllantirish.- T.: Yangi asr avlodi, 2002.
22. Qosimov B. Milliy uyg'onish.- T.: Ma'naviyat, 2003.
23. “Qaltis savollarga xolis javoblar” (Din va dunyoviy muammolarga doir) “Tafakkur” jurnali, 1999 yil, 3- son.
24. “Xalq, milliy mafkura va ziyoli ma'suliyatli”, “Tafakkur” jurnali, 1999 yil, 2- son.
25. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T: “Yangi asr avlodi”, 2001.
26. Milliy istiqlol g'oyasi tushuncha va tamoyillar. T.: “Yangi asr avlodi”, 2001.
27. Imom Buxoriy. “Hadis”. 4- jildlik. Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati, 1993 yil.
28. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993 yil.
29. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”.
30. Amir Temur. “Temur tuzuklari”. Toshkent G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996 yil.
31. Mirzo Ulug'bek. “To`rt ulus tarixi”, Toshkent, 1996 yil.
32. Alisher Navoiy. “Maxbub ul- qulub”. Toshkent , 1987 yil.
- 33.Saifnazarov I., Kasimov B., Muxtarov A. Filosofiya. – T.:Shark, 2002. – S.

34. Abdullajanova D. Tarixiy ong va tarixiy xotira. //Falsafa va huquq. – Toshkent, 2004. – № 2. – B.83.
35. Tulenov J., Jabborov I. Tarixiy ongni rivojlantirish – davr talabi. – T.: Mehnat, 2000. – B.7.
36. Abdullaev I. Arab adabiyoti va Navoiy. O`zbek tili va adabiyoti j. - T.: Fan, 2012, №1.-846.
37. Alisher Navoiy asarlari tilining izoxli lug'ati. - T.: Fan, 1999 - 6416.
38. Alisher Navoiyning adabiy mahorati masalalari. - T.: Fan, 3013. - 2086.
39. Aripov M. Gumanizm Alishera Navoiy.— T.: Izd-vo "O`zbekiston", 1991.- 123s.
40. Boltaboev X. Mir Alisher Navoiy Fitrat talqinida. O`zbek tili va adabiyoti. - T.: Fan, 1992, №1. - 846.
41. Valihujayev B., Vohidov R. Navoiy ijodi - ilhom manbai. - T.: Fan, 2013. - 46.
42. Doniyorov X. Alisher Navoiy va o`zbek adabiy tili. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - 616.
43. Navoiy asarlari uchun qisqacha lug'at. - T.: Fan, 1993. - 3766.
44. Navoiy A. Asarlar, O`n beshtomlik. XVtom. -T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1968. – 248b.
45. Navoiy A Asarlar. O`n besh tomlik. XIII tom. - T.: Badiiy adabiyot nashriyoti, "1966. - 2446.
46. Navoiy A. Lisonut - tayr. (Nasriy bayoni bilan). - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991. -4646.
47. Navoiy A. Mahbub ul - qulub. - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 1126.
48. Navoiy A Xamsa. - T.: O`zFA nashriyoti, 1960. - 8546.
49. Rustamov A.Navoiyning badiiy mahorati.-T.:Adabiyot va san'at nashriyoti, 1999. -2146.

- 50.Qodirova M. O'zbek shoirlari nazmiyatida Navoiy an'analari.-.: "Sharq"(ashriyot-matbaa kontserni, 1991.- 246.
- 51.Qudratullaev H. Navoiyning adabiy-estetik olami.-T.:G'.G'ulom nomidgi Nashriyot-matbaa birlashmasi,1991.-1606.
- 52.G'anieva S. Alisher Navoiy. - T.:Fan, 1968.-1486.
- 53.Hayitmetov A.A. Navoiy ijodining manbalari. "O'zbek tili va adabiyoti".- T.:Fan,1991. №1.-846.
- 54.HayitmetovA. Navoiyxonlik suhbatlari.-T.:O'qituvchi,1993.-216b.
- 55.Hasanov S. Navoiyning esgi tuhfası.-T.:G'.G'ulom nomidagi Nashriyot-(matbaa birlashmasi, 1991.-1906.